

N.R. YUSUPOVA

# SPORT SOTSIOLOGIYASI

O‘quv qo‘llanma



496.01/316

191

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA  
VA SPORT UNIVERSITETI

YUSUPOVA NARGIZA RUSTAMOVNA

# SPORT SOTSIOLOGIYASI

O'quv qo'llanma


*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektorining  
2024-yil 10-maydagи 210-I/CH-sonli buyrug'iiga asosan  
61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim  
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
nashr etishga tavsiya etilgan.*

Ro'yxatga olish raqami: O'Q-0000149



ILM-FAN NASHRIYOT

Toshkent – 2024



**UO'K: 796.01  
KBK: 75.144.1**

**Yusupova N.R. // “Sport sotsiologiyasi” [O‘quv qo‘llanma] T.:ILM-FAN NASHRIYOTI, – 2024-yil, 150 bet.**

**Yusupova Nargiza Rustamovna – O‘ZDJTSU “Sport huquqi ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b.**

**Taqrizchilar:**

- Yakubov F.M.** – *O‘zDJTSU Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent.*
- Ro‘zmatova G.** – *Alfraganus universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori, f.f.d.:*

Mazkur o‘quv qo‘llanma 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlangan bo‘lib, unda sport sotsiologiyasining ijtimoiy fan sisatidagi o‘rni, uning maqsad va vazifalari, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy institut sisatidagi roli, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sport tushunchalarining o‘zaro nisbati, jismoniy madaniyatning kelib chiqishi tarixi va unga sabab bo‘lgan ijtimoiy omillar, sportchi kar’yerasi, sportdagi ijtimoiy muammolarni hal etishda sport sotsiologiyasining o‘rni va mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishning ustuvor vazifalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Muallif o‘quv qo‘llanmani yaratish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va qonun osti hujjatlari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportga oid munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy huquqiy hujjatlardan keng foydalangan va ularda belgilangan qoidalarni sharhlab borgan.

O‘quv qo‘llanma jismoniy tarbiya va sport, sotsiologiya, sport psixologiyasi va boshqa ijtimoiy yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar, sotsiologiya, sport sotsiologiyasi, sport psixologiyasi kabi fanlardan dars beradigan professor-o‘qituvchilar, amaliyotchi sportchilar shuningdek, zamonaviy sportning ijtimoiy muammolari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

**ISBN: 978-9910-9192-1-3**

**© N.R. Yusupova – 2024  
© ILM-FAN NASHRIYOTI – 2024**

## Kirish

Mustaqil O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'naliishlaridan biri etib belgilangan. Chunki jismoniy tarbiya va sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Shuningdek, sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rinn tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-istixor bag'ishlaydi.

Shuning uchun ham so'nggi yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport ga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu e'tibor samarasи o'laroq. sportchilarimiz 2016-yil Rio-de-Janeyroda, 2018-yil Djakartada, 2021-yil Parijda, 2023-yil Xitoyda bo'lib o'tgan Olimpia, Paralimpiada, yozgi va Osiyo o'yinlarida o'g'il-qizlarimiz boks, kurash, yengil va og'ir atletika (para), badiiy gimnastika, karate, shaxmat, para kanoye, para dzyudo yo'naliishlarida nufuzli o'rinnlarni egallashdi. 2022-yilda 22 ta Olimpiya sport turi bo'yicha milliy terma jumoa a'zolari 50 ta xalqaro turnir va musobaqada, 49 ta jahon va 26 ta Osiyo chempionatida ishtiroy etdi. Jami 598 ta medal – 193 ta oltin, 161 ta kumush va 244 ta bronzani qo'lga kiritdi. 2023-yilning o'tgan davrida esa ana shunday nufuzli xalqaro musobaqalarda 411 ta medal (210 ta oltin, 97 ta kumush va 104 ta bronza) egallandi. Ulardan 45 ta oltin – jahon, 12 ta oltin – Osiyo, 175 ta oltin esa xalqaro turnirlardagi mashaqqatli mehnatlar evaziga olindi.

2022-yil 3-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-414-sonli Qarorida jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta'llim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sisatini tubdan yaxshilash, ilg'or xorijiy sport-ta'llim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali

yuqori natijalarga erishish maqsadidagi bir qator ustivor vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash jismoniy tarboya va sport ta'limidagi mavjud muammolarni aniqlash, ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or usullarini tadbiq etish, xorijiy mamlakatlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yutuqlari hamda sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlardagi ilmiy yangiliklarni o'z ichiga olgan o'quv adabiyotlarini yaratishni taqozo etmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanma ushbu maqsadda yaratilgan bo'lib, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining jamiyat ijtimoiy hayotida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati, uning ham jismonan, ham ma'nani barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy muammolari, ularning sabablari va bartaraf etish yo'llari bilan bog'liq bilimlarini yanada oshirishni ko'zda tutadi. Shu bilan birga darslik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevralndagi "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5667-sonli Farmoni, 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sisatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori, 2022-yil 3-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-414-sonli Qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

O'quv qo'llanmada sport sotsiologiyasining umumiy sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, jismoniy tarbiya va sport tarixi, ethnografiya, qisman falsafa va pedagogika fanlari bilan bog'liqligi va ulardan farqli jihatlari sotsiologiya fani qachon va qayerda paydo bo'lganini va u nimani o'rGANISHINI, hamda, sotsiologiyaning jismoniy madaniyat va sport bilan

qanday bog‘liqligi borligini, bunda madaniyatning va ijtimoiy muhitning o‘rni qanday ekanligi asosida ko‘rsatib berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma sport faoliyati, sport turizmi hamda sport psixologiyasi mutaxassisligi bakalavriat bosiqichida tahlil olayotgan talabalarga ta‘lim berishga mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma “Sport sotsiologiyasi” Jani o‘quv dasturi asosida mavzularning to‘liq bayoni, mustahkamlash uchun savollar, sxemalar, glossariy va foydalananish uchun adabiyotlardan iborat.

O‘quv qo‘llanmaning yaratishi jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi qarorlari hamda buyruqlari shuningdek, jismoniy tarbiya va sportga oid munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy huquqiy hujjatlardan keng foydalaniilgan.

## MAVZU №1. SOTSIOLOGIYANING ASOSIY TUSHUNCHASI VA KATEGORIYALARI

**Reja:**

1. Sotsiologiya faniga kirish. Sotsiologiya strukturasi, obyekti va predmeti.
2. Ogyus Kont va uning izdoshlarining ilmiy-sotsiologik qarashlari. Sotsiologiya obyekti va predmeti Kont talqinida.
3. Sotsiologiya funksiyalari. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Jamiyat tushunchasining talqini.
4. Antik dunyo olimlari va Sharq mutasakkirlarining ijtimoiy borliq haqidagi qarashlari.

*Kalit so'zlar: jamiyat, ijtimoiy, me'yor, jamoatchilik, struktura, "sotsiologik bilim strukturasi", ijtimoiy faktlar, individ, gnoseologiya, funksiya, gender, ramz.*

### 1.1. Sotsiologiya faniga kirish. Sotsiologiya strukturasi, obyekti va predmeti.



*Sotsiologiya* – insonlarning ijtimoiy hayoti haqidagi, ijtimoiy munosabatlar haqidagi, ijtimoiy institutlar haqidagi, shaxslararo va jamoalararo munosabatlar haqidagi, ijtimoiy me'yorlar haqidagi, ijtimoiy mavqe va martaba haqidagi, jamoatchilik fikri va u bilan bog'liq barcha "ijtimoiy hayot" haqidagi, jamiyatning ichki tartib-qoidalari haqidagi, bir so'z bilan aytganda esa jamiyat va uni rivojlanishi uchun xizmat qiladigan qonun-qoidalalar haqidagi sandir.

Sotsiologiya ijtimoiy fanlar qatoridan joy olgan fan hisoblanadi. Sotsiologiya – insonlarning jamiyatda tutgan o'rni va rolini, ularning "ijtimoiy hayotini" empirik tadqiqotlar orqali o'rganish, tadqiq qilish, ularga tanqidiy yoki ijobiy baho berish vazifasini olgan nazariy va amaliy fan hisoblanadi.

#### **Sotsiologiya strukturasi (tuzilmasi):**

Bugungi kunga kelib zamonaviy sotsiologiya o'ziga xos murakkab, ko'p qirrali tuzilishga ega bo'lib bormoqda. Sotsiologik bilimlarni tizimlashtirishga, uni strukturasini ishlab chiqishga bo'lgan ko'pgina urinishlar orasida eng nufuzligi deb amerikalik sotsiolog-olim Robert

Mertonning sotsiologik strukturasini ko'rsatishimiz mumkin. Merton sotsiologiya strukturasini uch pog'onaga bo'lib ko'rsatadi:

1. **Oliy darajaga** – umumiy sotsiologiya bo'lib, unga nazariy sotsiologiya va makrosotsiologiya kiradi;

2. **O'rta darajaga** – ijtimoiy institutlar, jamoalar va ijtimoiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish darajasi (oraliq pog'ona vazifasini bajaruvchi ijtimoiy hayot va xususiy sotsiologik nazariyalar) kiradi;

3. **Quyi darajaga** – empirik, amaliy tadqiqotlar sotsiologiyasi, mikrosotsiologiya, (birlamchi va konkret sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish va umumlashtirish) kiradi;

Mertonning "sotsiologik bilim strukturasi" asosida ishlab chiqilgan quyidagi sxema orqali sotsiologik struktura haqida tasavvurga ega bo'lisingiz mumkin:

Demak, sotsiologogik tuzilmaning ya'nii strukturaning 3 xil ko'rinishi mavjud bo'lib, uning birinchi "oliy" darajasida sotsiologogik bilimlarni umulashmasiga, yagona bo'lgan ijtimoiy tizimning yaxlitligini tadqiq etishga va sotsiologiyaning fundamental asosini yaratishga qaratiladi.

#### Yuqori (cliy) darajadagi sotsiologik struktura:

Umumiy sotsiologiya, nazary sotsiologiya  
(Fundamental sotsiologik tadqiqotlar)

#### O'rta darajadagi sotsiologik struktura

ijtimoiy institutlar, jamoalar va ijtimoiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish darajasi (oraliq pog'ona vazifasini bajaruvchi ijtimoiy hayot va xususiy sotsiologik nazariyalar)

Qila sotsiolog sbyari	Din sotsiolo giyari	Tajum sotsiolo giyari	Sag'lighi taglash sotsiolo giyari	Madaniyat sotsiolo giyari	Jig. tarb va sport sotsiolo giyari	Va hokazo lar
--------------------------	------------------------	--------------------------	---	---------------------------------	---	------------------

#### Quyi darajadagi sotsiologik struktura

empirik, amaliy tadqiqotlar sotsiologiyasi, mikrosotsiologiya, (birlamchi va konkret sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish va ulami umumlashtirish)

Sotsiologogik tuzilmaning keyingi ko'rinishi bu – "o'rta" darajadagi sotsiolog struktura bo'lib, unda jamiyatning tarkibiy qismlari maydalab

o'rganiladi. Bularga yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, oila, din, ta'lif, tibbiyot, huquq va shular kabi ijtimoiy institutlarni o'rganish kiradi.

Sotsiologik tuzilmaning (strukturaning) quyi pog'onasi bo'lmish uchinchli ko'rinishi bu – yuqoridagi ikkita tuzilmaning asosi bo'lib, u sotsiologik tadqiqotlar olib borish, ularni tashkillashtirish, o'tkazish bilan bog'liq tuzilmadir. Bu tuzilma doirasida tajriba o'tkazish (eksperiment), xujjatlarni o'rganish, kuzatuv va so'rov usullari tadqiqotchilar orasida ayniqsa mashhur hisoblanadi.

“Sotsiologiya” atamasi ilk bor ilmiy muomalaga fransuz olimi Ogyust Kont tomonidan kiritilgan. «Sotsiologiya lotin va yunon tillaridan olingan bo'lib, u lotincha sotciyetas – jamiyat hamda yunon tilidagi logos - ta'limot – degan ma'noni bildiradi. Sotsiologiya tajriba, kuzatuv, so'rov kabi empirik metodlarga tayangan foydali va ijobiy san hisoblanadi. Sotsiologiya fani falsafa fanidan ajralib chiqqan bo'lsada, u falsafadan ancha yosh san hisoblanadi. Sotsiologiya amaliy jihatdan foydali fan hisoblanib, u amalda ijtimoiy olamdag'i masalalarni, ijtimoiy muhitdagi mavjud muammolarni tadqiq etadi va o'rganadi. Sotsiologiya falsafadan farqli ravishda aniq fanlar qatorijan joy olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki u fanlar klassifikatsiyasi nuqtai nazaridan ijtimoiy fanlar kategoriyasida tursada, uning uslub va usullari, u olib boradigan tadqiqot metodlari aniq fanlar (fizika, ximiya, matematika, biologiya va boshqalar) metodlari bilan o'hashashdir. Bu fan jamiyatni o'rganishda aniq empirik metodlarga tayanadi va jamiyatdagi mavjud muammolarni tahlil qilib o'rganib chiqadi. Hamda bu fan emperik metodlar yo'li orqali ijtimoiy hayotning ijobiy tomonga o'zgarishiga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda sotsiologiya amaliy foya keltiruvchi ijobiy san hisoblanadi. Kont sotsiologiyaga nisbatan shu fikrni olg'a surar ekan, olim jamiyatni o'rganishni tabiatni o'rganish bilan tenglashtiradi. Kont sotsiologiyani tabiiy fanlar qatoridan joy olishi kerak, deb hisoblaydi. U o'zining bu qarashini bir qancha sabablar orqali izohlaydi:

a) sotsiologiya tabiiy fanlarning empirik metodlaridan foydalangan holda jamiyatni o'rganadi, tahlil (analiz) qiladi, tajribalar o'tkazadi va shu orqali jamiyatni har tamonlama tadqiq qilib chiqadi;

b) Kont jamiyatni o'zini tabiatning mahsuli (ona tabiat tomonidan yaratilagan boshqa tabiiy jarayonlar kabi jamiyat ham ona tabiat tomonidan yaratilagan tabiiy jarayon) deydi.

Sotsiologiya fanining obyekti jamiyat ekanligini hisobga olsak, sotsiologiya fanini tabiiy fanlar qatoridan joy olishi to'g'ri hisoblanadi. O'z fikrini izohida olim jamiyatning kelib chiqishida inson omilini o'rni borligini ko'rsatib o'tadi. Bu o'rinda inson emas, balki ilk odam deb fikr yuritish to'g'ri bo'ladi. Ilk "aqlli" odam "birlashish" tuyg'usi (instinkti) orqali boshqa odam bilan birlashgan va eng birinchi ilk jamoani (ilk jamiyatni) tashkil qilgan. Bunda odamning boshqa odam bilan birlashish instinkti unga ov qilish jarayonini yengil bo'lishiga, yashash uchun kurashning oson o'tishiga yordam bergan. Ho'sh, "aqlli" odamda bu instinkt qayerdan kelgan? Nima uchun odam birlashishga intiladi? Nima uchun odamzod muloqotga, munosabatga ehtiyoj sezadi? Bu savollarning hammasining negizi yuqorida ko'rsatib o'tgan fikrimiz, ya'nikim, aynan tabiatning xizmati, aynan tabiat odamga birlashish tuyg'usini solgani sabab hisoblanadi. Tabiat odamga birlashish instinktini solgani sababgina odam odam bilan birlashgan. Xuddikim, asalarilar, chumolilar olamida har bir asalarini o'z vazifasi: qirolicha asalarining o'z vazifasi, ishchi asalarining o'z vazifasi, askar asalarining o'z vazifasi bor bo'lgani kabi. Asalarilar o'z vazifalarini o'z instinktlari orqali bajaradialar, aynan tabiat tomonidan berilgan instinkt orqali bajaradialar. Agarda, tabiat ushbu instinktni asalarilarga bermaganida edi, asalarilar birlashib, o'z jamiyatlarini tuzgan, o'z vazifalariini bilib-bilib bajargan bo'larmidi yoki yo'q? Nima uchun masalan, ayiqlarda birlashish tuyg'usi yo'q? Nima uchun ayiqlar, qora karkidon, leopard yoki yalqovlar yakka holda yurishni ma'qqla ko'rishadi? Chunki, tabiat tomonidan ularga birlashish instinkti, birlashishga ehtiyoj tuyg'usi berilmagan. Tabiatning odamlar bilan bo'lgan munosabati ham huddi shunday, ya'ni, tabiat odamlarga ham bir-biri bilan birlashish tuyg'usini, ehtiyojini bergan. Aynan shu instinkt odamlarning birlashish va ilk to'dani (jamoani) shakllantirishiga sabablarning biri bo'lgan. Albatta jamiyatning alohida bir jarayon sifatida shakllanishida aqlning o'mi, mehnatning o'rni, oilaning o'rni, bilim va ishlab chiqarishning o'mi kabi boshqa ko'plab sabablar ham mavjud. Lekin yuqoridagi Ogyust Kont

qarashlarining asosi sifatida (jamiyatning kelib chiqishida tabiatning o'rnini va sotsiologiyani tabiiy fanlar qatoridan o'rinni olishi kerakligi haqidagi qarashlari) aynan ushbu misollarning keltirilishi o'rinnidir.

Sotsiologiya kabi o'ziga xos bo'lgan, jamiyatni alohida obyekt sifatida o'rganidigan mustaqil fan yaratish g'oyasi XVIII asrning o'rtalariga kelib shakllangan. Mustaqil fan sifatida esa XIX asrga kelib to'liq oyoqqa turgan. Bu fanning Yevropada, aynan Fransiyada shakllanishiga sabablardan biri, o'sha davrdagi Fransiyada bo'lib o'tayotgan bir qancha og'ir vaziyatlar (3 ta revolyutsiya yuz bergen paytlari edi) bo'lib, ular ta'siri ostida Fransiya jamiyatning chayqalinishi, izdan chiqa boshlashi, jamiyat tizimining insonlar talabiga, zamon talabiga javob bera olmay qolganligi bo'lgan bo'lsa, boshqa tomonidan, bu davrda tabiiy fanlarning rivojlanishi qatorida, odamlarning jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ham tushuna boshlashlari mumkinligi g'oyasi edi. Sotsiologiya ilmiy bilim sifatida Fransiyada shakllana boshlagan bo'lsada, ilk bor "Sotsiologiya" kafderasi 1892-yili Chikago universitetida ochilgan.

## **1.2. Ogyus Kont va uning izdoshlarining ilmiy-sotsiologik qarashlari. Sotsiologiya obyekti va predmeti Kont talqinida**

Kont o'z sotsiologiyasida jamiyatni – o'ziga xos tabiiy qonuniyatlarga bo'yinuvchan alohida bir "organizm" sifatida izohlaydi. Sotsiologiyaning amaliy ahamiyati shunda ko'rindiki, u jamiyatni yana takomillashtirishga xizmat qiladi va jamiyatni takomillashtirishga xizmat qiladigan qonun va qoidalarni o'rganadi.

Sotsiologiya jamiyatni o'rganuvchi fan sifatida bir kunda yoki bir necha yilda paydo bo'lmasligi. U asrlar davomida rivojlanib, jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganib kelayotgan bir nechta ilmiy-fundamental bilimlar uyg'unligi asosida shakllangan. (Shuni yodda tutmoq lozimku, O.Kont sotsiologiyaga – jamiyatni o'rganuvchi fanga ehtiyoj borligi g'oyasini utopist Sen-Simonning shaxsiy kotibi bo'lib yurganda his qilgan. Kontning o'ziga bu g'oya Sen-Simon ijodidan ilohomlanganidan kelgan, desak ham bo'ladi). Sotsiologiya ilmining paydo bo'lishiga asos bo'lgan fundamental g'oyalalar qatoriga quyidagi g'oyalarni ko'rsatishimiz mumkin:

- Jamiyatni ijtimoiy tizim sifatida o'rganish g'oyasi;
- Jamiyatni alohida obyekt sifatida o'rganish g'oyasi;
- Tabiiy qonuniyatlar rivoji g'oyasi;
- Taraqqiyot g'oyasi;
- Tabiiy fanlar metodlari asosida jamiyatni o'rganuvchi alohida metodlarni yaratish g'oyasi;

**Sotsiologiya fanining obyekti** – O.Kont nazariyasidan kelib chiqib, uzoq vaqtlar sotsiologiyaning obyekti jamiyat deb, qarab kelingan. Ammo, hozirgi zamон sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, sotsial tadqiqotlar olib borilayotganda, har bir tadqiqotning o'ziga xos, individual xususiyatlaridan kelib chiqib ushbu tadqiqotning (ayni damda sotsiologiyaning) obyekti sifatida belgilanadi. Boshqacha aytganda, sotsiologiya obyekti sifatida – barcha ijtimoiy tizimlar yoki ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy aloqalar, shaxslararo va jamoalararo munosabatlar shuningdek, shaxs, oila, jamoalar, guruhlar, ijtimoiy institutlar, jamiyat ichidagi “jamiyatlar”, xalqaro hamijamiyatlar va boshqalarni o'rganish kiradi.

**Sotsiologiya fanining predmeti** – bu, jamiyat hayotining ijtimoiy tomonidir, ya'ni sotsiologiya ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'lgan barcha aloqalar va munosabatlar majmuini o'rganadi. Boshqacha aytganda, bular sotsial (ijtimoiy) faktlar, jamiyat ichida qabul qilingan odatlar, jamoalarda an'anaga aylangan odatlar, urf-odatlar, marosimlar, meyorlar, yozilgan va yozilmagan qonun va qoidalar, tan olingan qadriyatlar va boqalar kiradi. *Sotsiologiyani asoschisi Ogyust Kont sotsiologiya fanining predmeti sifatida – jamiyat hayotini, jamoatchilik hayotini taraqqiy ettirishga xizmat qildigan qonuniyatlar deb ko'rsatgan.*

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, sotsiologiya fanining obyekti va predmetiga hamda ularning o'zaro bog'liqligi masalasiga chuqurroq nazar solamiz. Demak, sotsiologiya obyekti va predmetini tushunishning ikki xil yo'nalishi mavjud. Birinchisi — “jamiyat bu tabiiy-biologik asosga tenglashtirilmaydigan alohida turdagи ijtimoiy-madaniy borliqidir. Inson shunday mavjudotki, uning yashash tarzi, ijtimoiy sharoitlari, mavjud axloq va madaniyat darajasi bilan chambarchas bog'langandir”[16].

Ikkinchisi — tabiiy dunyoni o'rganishda o'zining samaradorligini isbotlagan bilish yo'llari va usullaridan foydalanish zarurligidan iborat. Bu yerda tabiiy fanlarda qo'llaniladigan usullardan ongsiz foydalanish emas, balki olingan natijalarни albatta tajriba asosida tekshirish, aniqlik va jiddiylikka intilish, tabiiy fanlardagi umumiy mantiqni qabul qidish nazarda tutilmoqda.

Shularni nazarda tutib, sotsiologiyaning obyekti (yuqorida obyektga berilgan tarisga qo'shimcha ravishda) ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy munosabatlар va harakatlar tizimidan iborat deb aytish mumkin.

"Mashhur amerikalik sotsiolog T. Parsons takidlagan ediki, boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o'laroq, sotsiologiya "butun jamiyatga, ijtimoiy tizimlarning birlashuviga taalluqli bo'lgan tizim va jarayonlarni o'rganadi"[24]gan sandir. Zero, sotsiologiyani iqtisodiyotning qanchalik daromad keltirish masalalari qiziqtirmaydi, balki uni ijtimoiy olamda pul qanday rol o'ynayotgani yoki ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda pulning o'rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi qiziqiradi Sotsiologiya shaxsning jamiyatda bajarayotgan faoliyatini, o'zlashtirilgan maqomlarini ijtimoiy tizim jarayonlari bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganadi.

"Sotsiologiyaning predmeti inson hayot tarzining konkret jihatlari, odamlarning fe'l-atvori jamiyatdagи o'rni va intilishlaridan, turli hayotiy vaziyatlardagi takroriy harakatlaridan iborat"[24]. Vaholanki, oilada, ko'chada, transportda, do'konda, ishxonada, o'quv auditoriyasida, xullas barcha vaziyatlarda inson xulqining takrorlanuvchan ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, auditoriyaga kirgan o'qituvchi talabalardan qanday muomala kutishini oldindan biladi. O'z navbatida, talabalar ham o'qituvchidan kasb mahoratini ishga solgan holda ma'ruza o'qishini, amaliy mashg'ulotlar o'tkazishini va talabalarning bilimini obyektiv baholashini kutadi. Aytish mumkinki, o'qituvchi bilan talabalar orasida o'zaro bog'liqlik yuzaga keladi va bu bog'likliklar ularning jamiyat oldidagi vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Sotsiologiya fani ilm nuqtai-nazaridan nimani o'rganadi, yoki sotsiologiyaning o'rganish obyekti va prejmeti nimadan iborat, degan savolga hozirga qadar ko'pgina olimlar o'z nazariyalarini ilgari surishgan.

Shulardan *Ogyust Kontning* (sotsiologiya ilminin asoschisi) sotsiologiya – bu jamiyat to'g'risidagi fan, degan qarashi bilan tanishdik.

Kontning maslakdoshi fransuz olimi *Emil Dyurkgeym* esa sotsiologiyani – ijtimoiy ma'lumotlar, ya'ni sotsial (ijtimoiy) faktlarni o'rGANADIGAN fandir, deb ataydi.

Nemis olimi *Georg Zimmel* sotsiologiyani – individual xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy fanlarning nazariyasi, deb ataydi.

Yana bir nemis olimi *Maks Veber* esa sotsiologiyani – ijtimoiy xulq va ijtimoiy fe'l-atvor to'g'risidagi fan deydi.

Millati rus lekin o'zi AQSHda yashab ijod qilgan *Pitirim Sorokin* sotsiologiyani – jamiyat va undagi ijtimoiy hodisalarni o'rGANADIGAN fan, deb ta'kidlaydi.

### **1.3. Sotsiologiya funksiyalari. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Jamiyat tushunchasining talqini**

Sotsiologiya o'z mohiyatiini va o'z vazifalarini namoyon etuvchi bir nechta funksiyalarni bajaradi. Ular ichida eng ko'zga ko'rinarli funksiyalardan quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

- gnoseologik (nazariy-kognitiv) funksiya;
- amaliy funksiya;
- g'oyaviy-tarbiyaviy yoki manaviy-ma'rifiy funksiya;
- ilmiy bashorat qilish funksiyasi;
- tanqidiy funksiya;
- axborot berish funksiyasi;
- boshqaruvchanlik funksiyasi;
- tashkilotchilik funksiyasi;
- targ'ibot-tashviqot qilish funksiyasi va boshqalar.

Ushbu funksiyalar orasidagi farq shartli bo'lib, ular bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir.

*Nazariy-kognitiv funksiya* ilmiy ravishda jamiyatning mohiyati, uning tuzilishi, qonuniyatları, rivojlanishning asosiy yo'nalishlari va tendensiyalari, uning faoliyat ko'rsatish mexanizmlari haqidagi bilimlarni yanada kengaytirish va konkretlashtirishni ta'minlaydi. Sotsiologiyaning ilmiy jihatdan rivojlanishi uning nazariy jihatdan o'zini-o'zi

takomillashtirishga bo'lgan iintilishidan hamda jamiyatning dinamik o'sishi, rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yuz beradi. Sotsiologiya tasavvurni rivojlantiradi, kengaytiradi, kundalik turmushda doimo biz duch keladigan tanish bo'lgan holatlarga, kundalik jarayonlarga hamda hodisalarga o'zgacha nazar bilan qarashga undaydi. U ijtimoiy hayot haqida, ushbu hayotdagि o'zingizning o'rningiz haqida bo'lgan fikringiz o'zgartiradi. Jamiyatni tanish orqali sotsiologiya insonni o'zini-o'zi tanish imkonini, ushbu muhitda o'zini egallab turgan o'rnnini tanish, o'z o'miga baho bera olish imkonini beradi.

*Sotsiologyaning amaliy vazifasi* shundan iboratki, sotsiologik bilimlar doirasida to'plangan nazariy tajriba nafaqat ijtimoiy voqelikni anglash, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, balki uni to'g'ri yo'nalishga o'zgartirish, rivojlanishning muayyan yo'llarini shakllantirish imkonini beradi.

*Sotsiologyaning g'oyaviy-tarbiyaviy funksiyasi* shundan namoyon bo'ladi, sotsiologiya jamiyatning ma'naviy olami, uning qadriyati va xulq-atvor ko'rsatmalarini o'rganadi, ularning o'zgarishi tarixiy jarayonga bevosita ta'sir qiladi.

*Sotsiologyaning bashorat qilish funksiyasi* va bashorat qilish salohiyati jamiyatning holatini aniqlash va uning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilishdan iborat bo'lib, bu paradigmalar, qadriyatlар, ideallar va boshqalarning tez o'zgarishi bilan tavsiflangan zamonaviy dinamik davrda ayniqsa muhimdir. Bu funksiya ayniqsa, jamiyatda uzoq muddatga tuziladigan rejalarни ko'rib chiqishda, ularni tasdiqlashda, qarorlar qabul qilishda kerakli funksiyadir.

*Taqnidiy funksiya.* Bu funksiya orqali individ ijtimoiy olamda bo'layotgan jarayonlarga o'z qarashlari bilan yondoshadi va o'z qarashlaridan kelib chiqib baho beradi. Chuqur ilmiy bilimga va o'zining mustaqil obyektiv yondashuviga ega bo'lgan individ jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga jimgina qarab turmay o'z tanqidiy va yoki aksincha ijobiy bahosini berishi, ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni oldindan aniqlashi mumkin bo'ladi.

*Axborot berish funksiyasi* nafaqat mutaxassislar, balki jamoatchilik uchun ham sotsiologik bilimlarni olish imkonini beradigan funksiyadir.

**Boshqaruvchanlik funksiyasi** – bu sotsiologlar jamiyatni bevosita boshqaradi degani emas. Ularning vazifasi ijtimoiy boshqaruv bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, ijtimoiy hodisalarни tushuntirish, ularning sabablari va imkonи bor bo'lgan echimlarni izlash, topish va tavsiya qilishdir.

**Sotsiologiyada tashkiliy funkija** turli ijtimoiy guruhlarni, jamoalarni tashkil etishdan iborat bo'lgan funksiyadir, masalan: ishlab chiqarishda, siyosiy sohada, harbiy qismida, ta'tilda va hokazo.

**Targ'ibot-tashviqot qilish funksiyasi.** Sotsiologyaning targ'ibot-tashviqot funksiyasi ijtimoiy ideallarni, qadriyatlarni shakllantirish, jamiyat qahramonlari obrazlarini, muayyan ijtimoiy munosabatlarni yaratish imkonini beradi. Bu funksiya ayniqsa ta'lif, siyosat, ommaviy axborot vositalari faoliyati va harbiy sohalarda yorqin namoyon bo'ladi.


**Sotsiologyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.** Sotsiologiya ijtimoiy fan hisoblansada, u gumanitar fanlar bilan ham chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelmoqda. Xo'sh, ijtimoiy fanlar gumanitar fanlardan nimasi bilan farqlanadi, degan savolni o'rta ga tashlasak, qisqacha javobi shunlay bo'ladi: gumanitar fanlar – insonnинг o'zini, uning ma'naviy va ruhiy olamni o'rganadi. Bunday bilimlar tizimi bizga insonlar fe'l-atvoridagi o'zgarishlarni nazorat qilishga, yuz berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Ijtimoiy fanlar esa - butun jamiyatni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Sotsiologiya ijtimoiy fan hisoblangani uchun shak-shubxasiz birinchi navbatda u falsafa, madaniyatshunoslik, axloqshunoslik, siyosatshunoslik, ijtimoiy psixologiya, antropologiya, etnografiya, umumiy psixologiya, tarix, iqtisodiyot va menedjment, huquqshunoslik kabi fanlar bilan bog'liq ravishda rivojlanishi hamda ular bilan aloqada bo'lishi bilan birlgilikda, uning o'zi ham quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linib, alohida o'rganiladi:

- oila sotsiologiyasi;
- din sotsiologiyasi;
- mehnat sotsiologiyasi (menedjment va iqtisodiyot sotsiologiyasi, tibbiyot sotsiologiyasi);
- shaharsozlik sotsiologiyasi (urbanizatsiya sotsiologiyasi, transport sotsiologiyasi);

➤ madaniyat sotsiologiyasi (sport sotsiologiyasi, san'at sotsiologiyasi, muloqot sotsiologiyasi, ommaviy madaniyat sotsiologiyasi, bo'sh vaqt sotsiologiyasi) va boshqalar

### Sotsiologyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi



*Sotsiologiya fanining eng asosiy o'r ganilish obyekti (manbai) bu jamiyat va unda yuz beradigan barcha jarayonlar bo'lsa, unda jamiyat o'zini, degan savolga javob bermog'imiz lozimdir.*

**Jamiyat** – kishilarning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'lgan tarixiy jarayon. Jamiyat – ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy munosabatlар, o'zaro aloqalar natijasida vujudga kelgan, tartiblangan kishilar yig'indisi. Jamiyat bu universal tizim, kabi bir qancha tariflarni o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos, betakror hodisadir.

**Jamiyatning o'z belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni kiritish mumkin:**

- doimiy hududning mavjudligi;
- madaniyatning majudligi;
- kishilararo ijtimoiy va aqliy munosabatlarning mavjudligi;

Jamiyatning kelib chiqishiga doir bir qancha qarashlar va farazlar mavjud bo'lib, ilm ahli bu jarayonni ilmiy nuqtai-nazar bilan, din vakillari esa bu jarayonni ilohiyot ta'sir bilan bog'lashga urinishadi.

**Jamiyatning kelib chiqishiga doir bu farazlarga quyidagi qarashlarni kiritish mumkin:**

- tabiiy sabablarga ko'ra;

- ilohiy sabablarga ko'ra;
- mehnatning taqsimlanshi najaśida;
- jinsiy aloqalarning tartiblanishi natijasida (oilaning paydobo'lishi natijasida);
- gender bo'linish natijasida (ijtimoiy jinslarning bo'linishi natijasida);
- ziddiyatlarning vujudga kelishi natijasida;

Jamiyatning paydo bo'lish evolyusiyasi va rivojlanishi tendensiyalarni ko'rib chiqadigan bo'lsak:



### 1. Jamiyat shakllanishining tabiiy manbai.


Mehnat – maqsad bilan biron-bir faoliyatga qaratilgan jismoniy va aqliy jarayon bo'lib, aynan mehnat aqlli odamning pvydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Mehnat sabab bemaqsad bo'lgan odamlar to'dasidan aql bilan bir maqsad ostida birlashgan kishilar yig'indisi shakllangan. Bu kishilar yig'indisi vaqt o'tib madaniyatni shakllantirishgan;



2. Jamiyat paydo bo'lishining ijtimoiy sababi. Jamoaviyalik xususiyati – insonlar o'rtaSIDagi munosabat, o'zaro muloqat va undan qoniqish xissi hamda ko'pchilik o'rtaSIDa erishiladigan mavqe-martabaga bo'lgan ehtiyoj; Mehnat ostida birlashgan insonlar yig'indisi endilikda jamoa bo'lib yashashni o'rganishdi va ushbu jamoada har bir kishi o'z o'rniGA, mavqeiga ega bo'la boshladı. Albatta yuqori mavqe va martaba nuſuzli hisoblanib, kishilar imkon qadar jamoada yuqori mavqeni egallashga urina boshlashdi. Bu esa o'z navbatida kishilar o'rtaSIDa jamoaviylik hissini, jamoa o'rtaSIDa hurmat va e'tiborga erishish hissini o'yg'otadi;



3. Jamiyat paydo bo'lishining ilohiy sababi Ma'naviy-ruhiy munosabatga bo'lgan ehtiyoj. Bunda diniy va ahloqiy qonun-qoidalarning kelib chiqishi, kishilarning g'ayri tabbiy ilohiyotga bo'lgan ehtiyojlari, ishonchlari hamda axloqning, tartib-intizomning kelib chiqishi sabab bo'ladi.



**4. Jamiyat paydo bo'lishining kosmik sababi.** Jamiyatning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan qarashlarning yana bir shakli bor, u tanqidiy qarashlarga uchrab kelsa ham-ki, bu qarash mavjud. Bu qarashda jamiyatning kelib chiqishi koinotda yashovchi boshqa aqlii mavjudolarning ta'siri borligi farazi ilgari suriladi.

Ammo shuni yodda tutmoq lozim-ki, bu nazariyalar jamiyatning shakllanishiga doir barcha savollarga javob bera olmaydi.

Demak, jamiyat o'ziga xos, o'zaro bog'langan, hamma narsani o'z ichiga oluvchi o'ziga xos tizimdir. *Xo'sh tizim o'zi nima?* Tizim deb – o'zaro bog'langan bir-nechta elementlarni o'z ichiga olgan yaxlit obyektga aytildi.

Odamlarning birgalikdagi hayotini butun murakkabligi bilan tushunish uchun uni ma'lum qismlardan tashkil topgan tizimli bir butun, yaxlit jarayon sifatida ko'rib chiqish kerak. Ya'ni, jamiyatni yaxlit tizim sifatida qabul qilish uni o'rganishni osonlashtiradi, chunki bu yo'l bilan uning barcha tarkibiy qismlarini eng qulay uslubda o'rganish imkonini beradi. Jamiyatning tarkibiy qismlari o'z navbatida jamiyat elementlarini tashkil qiladi. Jamiyatni tashkil etuvchi elementlar quyidagialar:

**1. Subyektlar.** Subyekt deb, har qanday faoliyatni boshlab beruvchi, belgilovchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi va baho beruvchiga (bu yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lishi mumkin) nisbatan aytildi.

**2. Obyektlar.** *Obyektlarga* narsa, buyum va ranzlarini kiritish mumkin. Narsalar, buyumlar va ranzlar jamiyatning moddiy elementlari hisoblanib, ularni, ya'ni obyektni subyekt belgilab beradi. Subyektning diqqat-e tibori qaratilgan, subyekt tomonidan o'rganilayotgan, izohlanayotgan baholanayotgan har qanday narsa obyekt bo'ladi. Masalaning bir tomoni borki, obyekt sifatida ayrim vaziyatlarda moddiy elementlar (narsa, buyum va hodisalar) kirsa, boshqa vaziyatlarda esa obyekt sifatida insонning o'zi ham kirishi mumkin. Masalan, har tomonlama o'rganilayotgan shaxs yoki tajriba sifatida o'rganilayotgan, tadqiq qilinayotgan shaxs yoki kuzatilayotgan shaxs ham obyekt sifatida yuritiladi. Jamiyat elementlari sifatida kishilar subyek sifatida ham, obyekt sifatida ham kelishi mumkin. Ammo, hozirda biz fikr yuritayotgan obyekt bu aynan jamiyatning moddiy elementlarini belgilovchi omillar bo'lmish

asosan, insoniy xususiyatlardan mahrum bo'lgan obyektlar (narsa, buyum, hodisa va ramzlar) haqida so'z ketmoqda.

*Narsa, buyum va hodisaga* insonlar tomonidan ta'sir o'tkazsa bo'ladigan, insonlar hayotida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, jismoniy o'zgarishlarga moyil bo'lgan obyektlarga aytildi.

*Ramzlar deb* biron buyum, narsa, hodisalarni va yoki ularni ifodolovchi belgilarni tushunishimiz mumkin. Sotsiologiyada ramzlar bo'lib jamoaning timsolini ifadolovchi belgilarni, ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy munosabatlarning belgilarini aytishimiz mumkin. Masalan, olimpiada o'yinlarining ramzi sifatida 5 ta halqani, oila ramzi sifatida nikoh uzugini, ta'lim sifatida o'quv-qurollarining rasmini, do'stlik ramzi sifatida qo'l berib ko'rishishni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

3. **O'zaroaloqadorlik va munosabatlar.** Jamiyat tuzilishida subyektlar va obyektlar bilan bir qatorda bitta o'ziga xos "element" mavjudki, jamiyatning bu elementi aynan obyekt va subyektni bog'lab turuvchi muloqat, munosabat va o'zaro aloqadorlik vazifasini bajaruvchi elementidir.

O'zaro aloqadorlik elementi. Odamlar, narsa va hodisalarning o'zi, ularning bir-biri bilan bo'lgan mexanik aloqadorligi bu hali mustaqil, yaxlit tizimlashgan jamiyat hisoblanmaydi. Odamlar, narsa va hodisalarning o'rtaсидаги ikki tomonlama bo'lgan o'zaro aloqadorlikkina jamiyatning elementi bo'la olishi mumkin. Ya'ni: subyekt-obyekt, obyekt-obyekt va subyekt-subyekt aloqalarining mavjudligini taqozo etadi.

Har qanday faoliyatni amalga oshirish uchun, masalan, tennis o'ynash uchun, odamlar o'zlariga (jismonan) qulay bo'lgan racketkalarni tanlashlari kerak (bu narsa subyekt-objekt munosabatlari misol bo'la oladi), o'z navbatida racketkalarda o'ynashga mos bo'lgan to'plar tanlanadi, (racketka va to'p bu - obyekt-obyekt orasidagi aloqaga misol bo'la oladi), qoidalarga rioya qilish (qonun-qoidalarning ramziy timsoliga misol bo'la oladi), va nihoyat, tennis o'ynash uchun sheriklari topish (subyekt-subyekt o'rtaсидаги munosabatlarga misol bo'la oladi).

*Jamiyatni zamonaliv yushunishning ikki xil yunalishi mayjud bo'lib, birinchi tushuncha sifatida – jamiyatni tabiiy biologik asosga tenglashtirilmaydigan aloxida turdag'i ijtimoiy-madaniy borliq deb*

qarashdir. Inson shunday mavjudotki, uning yashash tarzi, ijtimoiy sharoitlari, mavjud axloqi va madaniyat darajasi bilan chambarchas bog'langandir. *Ikkinchisi* — tabiiy dunyoni urganishda uzining samaradorligini isbotlagan bilish yo'llari va usullaridan foydalanish zarurligidan iborat. Bu yerda tabiiy fanlarda qo'llaniladigan usullardan ongsiz foydalanish emas, balki olingen natijalarni albatta tajriba asosida tekshirish, aniqlik va jiddiylikka intilish, tabiiy fanlardagi umumiy mantiqni qabul qilish nazarda tutilmoqda.

Sotsiolog *Tolkott Parsons* ta'kidlashicha, sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlardan farqli ularoq, "butun jamiyatga, ijtimoiy tizimlarning birlashuviga taalluqli bulgan tizim va jarayonlarni o'rghanadi" [24]. Zero, sotsiologiyani iqtisodiyotdagি foyda maromlari qiziqtirmaydi, balki uni butun jamiyatda pul qanday rol o'ynaydi yoki ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda pulning o'rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi qiziqtiradi. Sotsiologiya shaxsnı jamiyatda bajarayotgan faoliyati, o'zlashtirilgan maqomlarini ijtimoiy tizim jarayonlari bilan chambarchas bog'liqlikda o'rghanadi.

*Djon Lokkning* «Tabiiy qonun haqida tadqiqot» asarida jamiyat bu odamlarning oddiy jamoasi yoki yaxlit bir organizmi sisatida ta'riflanadi. Biroq, bizning sikrimizcha, jamiyat terminining eng muhim ma'nosi — tarixiy taraqqiyotning nisbatan mustaqil birligi hisoblangan aniq bir alohida jamiyatdir. "Jamiyat" so'zining ushbu ma'nosi ko'pincha uni turidan, individual xususiyatlaridan, mavjud bo'lish vaqtidan qat'iy nazar, barcha alohida jamiyatlarga tegishli bo'lган umumiy jamiyat tushunchasidan farqlanib turadi. "Jamiyat" so'zining ushbu ikki ma'nosini farqlash har bir jamiyatshunos uchun nihoyatda muhim.

Alohida aniq bir jamiyatning ajratilishi jamiyat alohida mavjudlikka egami yoki uning mavjudligi u tarkib topadigan individlar mavjudligining mahsulimi degan savol qo'yishga imkoniyat yaratadi. Jamiyatni tadqiq qilish sari nazariy yondoshuvlarning boshidanoq falsafiy va tarixiy ta'limotlarda ushbu savolga ikkita javob mavjud bo'lган. Ulardan biri jamiyatni individlar birlashmasining oddiy jamoasi sisatida talqin qilgan. Shuning uchun ham sotsial tadqiqotlarning real obyektlari odamlar hisoblanadi. Boshqalari mavjud emas. Bunday nuqtai-nazarni ko'pincha sotsiologik nominalizm deya ataydilar.

Jamiyat doimo odamlardan tashkil topib kelgan. Lekin shuni ta'kidlash joizki, u shunchaki odamlar jamoasi emas, balki ma'lum ma'noda ular o'rtaqidagi munosabatlarni tartibga soladigan tizim yoki institut sifatida namoyon bo'ldi.

Jamiyat tushunchasi nihoyatda ko'p qirralidir. U goho ma'lum bir muhim asoslar tufayli birlashgan odamlar guruhi jamoasiga, ya'ni masalan: sportchilar jamiyat, siyosatchilar jamiyat, jonivorlarni himoya quluvchilar jamiyat va xokazolarga nisbatan ham ishlataladi.

Ijtimoiy falsafaning ko'plab muammolari ingliz faylasufi va sotsiolog Gerbert Spenser (1820- 1903) asarlarida o'z aksini topgan. Spenser «Ijtimoiy statistika», «Sotsiologiya asoslari» kitoblarida jamiyatga organik yondashuv g'oyasini ishlab chiqadi. U jamiyat xuddi tirik organizm kabi faoliyat ko'rsatadi, uning har bir elementi ma'lum funksiyalarni bajaradi, deb hisoblaydi.

Spenser «Boshlang'ich asoslar», «Ilmiy-siyosiy va falsafiy tajribalar» kabi asarlarida jamiyatning organik nazariyasini yaratdi. Ularda jamiyat rivojlanishida biologik va ijtimoiylikning o'zaro ta'sirini ko'rsatdi. Jamiyatga biologik va ijtimoiy omillarning yaxlit birligi sifatida qaradi. Jamiyatni ijtimoiy-tabiiy birlik sifatida ta'rifladi. G.Spenser evolyusiya muammosini o'ziga xos tarzda hal etdi, unga xos quyidagi muhim belgilarni ko'rsatdi:

- a) oddiydan murakkabga o'tish(integratsiya);
- b) bir xillikdan ko'p xillikka o'tish (differensiatsiya);
- v) beqarorlikdan barqarorlikka o'tish.

Ijtimoiy evolyusiya nima? Ijtimoiy evolyusiya jamiyat rivojlanishining progressiv usuli, ijtimoiy institutlar faoliyatining murakkablashuv va takomillashuv sari yo'nalishidir. Ijtimoiy evolyusiya insonlar chtiyoji bilan shartlangan obyektiv jarayondir. Ijtimoiy evolyusiya insonlar faoliyatini va turli ijtimoiy institutlarning ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, u individlarni ham hisobga olishi zarur. Ijtimoiy evolyusiya kishilarning turli-tuman avlodlari tomonidan amalga oshiriladi. Natijada, jamiyatning ko'pgina funksiyalari, hajmi, turli-tumanligi, muayyanligi va murakkabligi o'zgaradi, kengayadi va rivojlanadi.

Jamiyat jo'shqin dengizga o'xshaydi, unda dengiz to'lqilari boshqa to'lqinlari bilan to'qnash kelganday, har bir odam ham boshqa odamlar bilan to'qnash keladilar, odamlar dengiz to'lqinlari kabi doimo bir-biri bilan to'qnashib, tug'ilib, o'sib-ulg'ayib, yana yo'q bo'lishadi. dengiz esa jamiyat, unda hayot qaynaydi, u jo'shqinlanadi, tovlanadi va hech qachon yo'q bo'lmaydi.

Jamiyat o'zi nima ekanligini o'rganish, jamiyatni alohida obyekt sifatida ko'rib chiqishga bo'lgan urinishlar qadim davrlarda ham uchragan. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, sotsiologiya ilmi mustaqil fan sifatida XIX asrda shakllangan bo'lsada, lekin uning asl o'zagi bo'lgan jamiyatni tahlil qilish antik dunyodan boshlangan.

#### **1.4. Antik dunyo olimlari va Sharq mutafakkirlarinig ijtimoiy borliq haqidagi qarashlari**

##### *Antik dunyo mutafakkirlarining qarashlari:*

➤ *Suqrotning (Sokrat) (er. avv. 470-399)* ijtimoiy qarashlarini quyidagi fikrlardan bilsa bo'ladi: «Har qanday yomonlikning ildizi nodonlikda». «Haqiqatga- bahs orqali erishish mumkin»;

➤ *Afslotun (Platon) (er.av 427-347)* fikricha olamda «g'oyalar dunyosi» birlamchi bo'lib, moddiy dunyo esa uning mahsuli, soyasidir. «G'oyalar dunyosi» zamon va makonga bog'liq bo'lmay, u mangu harakasiz va o'zgarmas, haqiqiy dunyodir. «G'oyalar dunyosi»da eng oliy g'oya – yaxshilik va baxt g'oyasi – xudodir. Boshqa g'oyalarning hammasi u bilan bog'liq;

➤ *Arastu (Aristotel) er. avv. 384–322).* Uning ta'limoticha, jamiyatning qul va qul egalariga bo'linishi, quldarlarning hukmronligi va qullarning qulligi tabiiy holatdir. Axloqiy fazilatlar faqat erkin kishilarga, qul egalariga xosdir. U xalqni 2 yo'l bilan: qo'rquv urug'ini sochib va mehr-muhabbat qozonib boshqarish mumkin deydi.

➤ *Budda (buddizm)* – jahon dinlaridan biri bo'lib, asosan Hindiston, Nepal, Birma, Yaponiyada keng tarqalgan. U er.av 6-asrda Shimoliy Hindistonda ham rivojlangan. Budda ta'limotidagi sotsiologik g'oyalarga ko'ra, inson hayoti – yovuzlik va azobuqubatdan iborat, azob-uqubat chekishning sabablari esa istak va ehtirosdadir, ana shulardan qutilmoq

kerak. Budda taklif qilgan «qutilish» yo'li dindor kishi uchun «taqvodorlikka intilish» va «yaxshilik bilan hayot kechirish»ga borib taqaladi.

➤ *Zaratushtra* (*Zardo'shi*). Milod. av 6-asrdan to milodning 3-asrigacha bo'lgan dualistik dunyoqarash markazida zardo'shtiylik ta'limoti yotadi. Zardushtlik faqat din bo'lib qolmay, balki o'sha davrning hukmron masjurasi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy qarashlari ifodasi hamdir. «Avesto»da qadimgi kishilarning tabiat va uni bilish yo'llari haqidagi tasavvurlari umumiy tarzda ifoda etilgan. «Avesto»da aisonaviy tasavvurlar bilan birga kishilarning hayotiy tajribalari ham o'z ifodasini topgan. Kitobda inson va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. «Avesto»da inson, mehnat dehqonchilik kabi ezgu ishlar ulug'lanadi.

➤ *Konfutsiylik* (551–479) – millordan av. V–III asrlarda vujudga kelgan ta'limotdir. U qadimgi Xitoydagagi ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga katta hissa qo'shgan. Bu ta'limot Xitoy, Bobil, Misr mamlakatlarida keng tarqalgan. Konfutsiyning salsafig va sotsiologik qarashlarida axloqiy masalalar markaziy o'rinda turadi. «Hamma odamlar birbirlaridan farqlanadilar», «yangini bilish uchun – eskini o'rganish kerak», «mulohazasiz ta'limot soydasizdir, ta'limotsiz mulohoza bo'lmaydi»

➤ *Abu Nasr Farobi* (873–950) “Fozil shahar aholisi qarashlari haqida kitob” asarida «Fozillar shahrining birinchi boshlig'i - shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan 12 xislat, fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur», deydi:

1. Hokimning to'rt muchali sog'-salomat bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni oson bajarishi lozim;
2. Nozik farosatli;
3. Xotirasi yaxshi;
4. Zehni o'tkir, zukko;
5. Fikri tiniq, so'zlari chiroyli;
6. Bilim-ma'rifatga havasli bo'lishi;
7. Taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo'lmasligi;
8. Haqiqatgo'y;
9. Nomusli, oriyatli, oliyhimmat bo'lishi;
10. Mol-dunyo ketidan quvmaydigan;
11. Tabiatan adolatparvar, istibbdod va jabr-zulmni yomon ko'ruchchi;
12. Sabotli, jur'atli, jasur bo'lish, qo'rkoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymaslik kabi xislatlardir.

“Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb - hunarda ozod,

hammaga baravar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi ozod bo'ladilar" - kabi fikrlari Farobiyning jamiyat hayotini chuqur tahlil qilganligidan dalolat beradi.

➤ *Abu Rayhon Beruniy* o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Minerologiya", "Hindiston" asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan. "Mineralogiya" asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan.

➤ *Abu Ali Ibn Sino*. Ibn Sino o'zining bir nechta falsafiy risolalarida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy munosabatlarni atroflichayoritib bergen. Mutafakkirning "Solomon va Ibsol", "Yusuf qissasi" kabi asarları bunga misol bo'la oladi.

➤ *Ibn Xaldun*. Ibn Xaldun – arab tarixchisi va mutafakkiri. U o'zining asarlarida «Sotsiologiya» (arab.ilm al-ijtimo') faniga oid dadil fikrlarni o'rtaga tashlagan va Sharqda haqli ravishda shu fan asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning «Kitob ul-Ibar» (1370) asarining muqaddima qismida tarixiy-sotsiologik nazariyasi bayon etilgan. U insoniyat ijtimoiy fikri tarixida birinchi bo'lib, jamiyat, uning ichki rivojlanish qonuniyatları va taraqqiyot an'analari haqidagi fanni yaratdi. Sharqning yetuk sotsiologi bo'lgan desak mobolag'a bo'lmaydi. Ibn Xaldun «Muqaddima» (1381) asarining «Kirish» qismidagi dastlabki bo'limni «Kishilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'g'risida» deb nomlagan.

➤ *Zahriddin Muhammad Bobur* "Boburnoma" asarida o'z davri ijtimoiy hayoti voqeligini, inson shaxsi xususiyatlarini, yaxshi va yomon tomonlarini, Andijondan – Hindistonga qadar bo'lgan ulkan hududida yashagan xalqlarning ijtimoiy jihatlarini shaxsiy kuzatishlari. ilmiy tadqiqotlari asosida o'rgangan va yozib qoldirgan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan buyuk mutafakkirlar yashagan davrda sotsiologiya hali mustaqil fan sisatida shakllanmagan edi. Ularning ijtimoiy hayot jarayonları to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlari natijalari esa ijtimoiy – falsafiy qarashlar tarzida namoyon bo'lgan.

*Xulosa*. Sotsiologiya fanining vujudga kelishiga sababchi bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar Ogyust Kont tomonidan pozitivistik nazariyaning yaratilishiga ham sababchi bo'ldi. Kont nazariyasi vaqt o'tib, sotsiologiya nomli mustaqil fanga aylandi. Garchi, ijtimoiylik haqidagi qarashlar Antik

davr va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy nazariyalarida ham uchrab kelgan bo'lsada.

Sotsiologiya ijtimoiy hayotning bir sohasi bilan chegaralaniб qolmay, u "inson" mansub bo'lgan barcha guruhlar, qatlamlar, jamoalar, muassasalar hamda odamlarning kundalik-maishiy hayotlari masalalari bilan ham qiziqadi. Sotsiologiyaning bosh maqsadi — bu inson va unga aloqador ijtimoiy tashkilotlarning hatti-harakatlarini oqilona tarzda tushuntirishdir. Buning natijasida jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolar o'ziga xos yechimini topadi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sotsiologiya nima haqidagi fan? U nimani o'rganadi?
2. Sotsiologiya strukturasi (tuzilmasi) deganda nimani tushunasiz? Sotsiologiya strukturasining qanday shakllari mavjud? Ularga nimalar kiradi?
3. Ogyust Kont kim? Uning sotsiologik nazariyasini aytib bering? Kont sotsiologiyaning obyekti sisatida nimani ko'rsatadi?
4. Ogyust Kontning qanday ilmiy asralarini bilasiz?
5. Sotsiologiya fanining obyekti va predmeti nimadan iborat?
6. Qandas sotsiolog olimlarni va ularning ilmiy nazariyalarini bilasiz?
7. Sotsiologiya funksiyalariga nimalar kiradi? Ularni ochib bering.
8. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligini ochib bering.
9. Jamiyat deganda nimani tushunasiz? Jamiyat belgilariiga nimalar kiradi? Jamiyatning kelib chiqishi nimalar bilan bog'liq?
10. Tizim deganda nimani tushunasiz?
11. Jamiyatni sotsiolog olimlar qanday ta'riflashgan?
12. Antik dunyo olimlarining ijtimoiy-falsafiy qarashalari.
13. Qadimgi Sharq allomalrining ijmtioiy-falsafiy qarashlarini yoritib bering.

## **MAVZU № 2. SPORT SOTSILOGIYASI FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**Reja:**

1. Jismoniy harakatlarning ijtimoiy-madaniy kelib chiqish tarixi. Qadimgi dunyo ijtimoiy muhitida jismoniy harakatlarning o'rni.
2. Qadimgi Sharq va qadimgi G'arb ijtimoiy olamida jismoniy tarbiyaning o'rni.
3. Olimpiada o'yinlarining kelib chiqishi va ularning ijtimoiy ahamiyati.
4. Qadimgi Markaziy Osiyoda jismoniy tarbiya. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish bosqichlari.

**Kalit so'zlar:** *Qadimgi dunyo. Qadimgi Sharq. Qadimgi G'arb. Shumer sivilizatsiyasi. qadimgi Hindiston. qadimgi Hitoy. qadimgi Gretsiya. kun-fu. "kripta". "eyrene". "esheba". Pentatlon" (beslikurash) zardushiyilik. Avesto.*

### **2.1. Jismoniy harakatlarning ijtimoiy-madaniy kelib chiqish tarixi.**

**Qadimgi dunyo ijtimoiy muhitida jismoniy harakatlarning o'rni**



Zamonaviy olamda sport nafaqat gumanitar fan sifatida balki, uning ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'lig jihatni ko'pgina tadqiqotchilarni qiziqtira boshladi. Fanlar tarixiga nazar solsak, sport avvalo, jismoniy tarbiya nazariyasi, axloq, falsafa, pedagogika, psixologiya, tibbiy fanlar bilan va bugungi kunga kelib sotsiologiya bilan bog'liqlikda rivojiana boshladi. Sotsiologiyada sportning shaxs va jamiyat hayotidagi o'ziga xos fenomen ekanligiga ilmiy e'tibor ilk bor XX asrning 1950-60 yillarida ro'y berdi.

Sotsiologiya fanida sportning individ ijtimoiy hayotidagi o'rnnini o'rganish tobora rivojlanib bormoqda. Hattoki, zamonaviy sotsiologiya sportning shakllanish va rivojlanish bosqichini bir necha etaplarga bo'lib o'rganishni va bunda sportning jamiyat hayotiga, kishiilar hayotiga qanday ta'sir etganini tadqiq etishni taklif qilishmoqda. Albatta, sport sotsiologiyasi umumiy sotsiologiya tarmoqlari ichida eng yangi, paydo bo'lganiga ko'p bo'limgan tarmoq hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportning alohida fenomen sifatida qadimdan (qadimgi Olimpiada o'yinlari, o'rta asr ritsarlar jangi, kun-fu, ushu kurash uslablari, sirk san'ati va otdagi poygalar, kurash

turalri va xo.zo.) mavjud bo'lganligini hammamiz tan olamiz. Lekin *sportning aynan ijtimoiy fenomen* ekanligi olimlarni yaqin tarixdangina qiziqtira boshladi.

*Sport sotsiologiyasi fani* – *sportning jamiyat va kishilar hayotida tutgan o'rnnini, uning tarixini, ijtimoiy hayotga bo'lgan ijobiy ta'sirini, uning nufuzli bo'lib borishi yoki nufuzining tushishi sabablarini, alohida ayrim sport turlarining mavqeい doimo ko'tarilish hoshqa ayrim sport turlari esa kam e'tiborda qolib ketayotganligini, ayollar sportining ahvoli, bolalar sportining ahvoli, sportga mentalitetning ta'sirini, sport iqtisodiy daromad manbaiga aylanib horayotganligini, sportdagи muammolarni, sportdagи korrupsiya masalasini, doping muammosini, sportda diskriminatsiya, millatchilik, irqchilik, sportda gender muammosini, professional sport bilan havaskor sportning farqini, ommaviy sportni va qolaversa sport va jismoniy tarbiyaning kishi sog'lom turmush turziga qo'shgan hissasini va shu kabi boshqa ko'plab masalalarni o'rganadi va tadqiq etadi.*

Albatta, sport sotsiologiyasi fanining shakllanishi va rivojlanishi davri ilmiy nuqtai nazardan XX asrning 1950-60 yillariga to'g'ri kelsada, lekin jismoniy hatti-harakatlarning jismoniy tarbiyaga, jismoniy madaniyatga aylanishi jarayoni birmuncha avval yuz bergen bo'lib, aynan shu jarayonni alohida hodisa sisatida o'rganishimiz ahamiyatga molikdir.

Jismoniy tarbiya va sportning kishilik jamiyatiga bo'lgan ta'sirini 8 bosqichga bo'lib o'rganishni lozim topdik:

1-bosqich: *qadimgi dunyo halqlarida jismoniy tarbiya, boshqacha aytganda "ibtidoiy" davr er. avv. 40 ming yillar (tartiblangan yoki sistemalashtirilgan jismoniy harakatlarning hayvonlarga taqlid qilinishi asosida, mehnatning shakllanishi asosida paydo bo'lishi);*

2-bosqich: "antik" davridagi jismoniy tarbiya, er. avv. 1000 yillar (Olimpiada o'yinlari: ulardan avvalgi va keyingi davrlar, Sharqdagi yoga, kum-fu, ushu sport turlarining rivojlanishi);

3-bosqich: "o'rta asrlar" davridagi jismoniy tarbiya (ritsarlar jangi va olishuvlari);

4-bosqich: "ma'rifatparvarlik" davridagi jismoniy tarbiya (XVIII-XIX asrlar);

5-bosqich: "ma'rifatparvarlik" davrining davomi, halqaro "Olimpiada qo'mitasining" tashkil topishi, bu davr jismoniy tarbiya yanada ko'proq yangilanish borligi bilan farqlanadi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari);

6-bosqich: "sanoatlashgan" davrda jismoniy tarbiya rivoji, bu davrda Sport sotsiologiyasi fan bo'lib shakllanib bo'lган davridir (1950 – 1960-yylar);

7-bosqich: "postindustrial" davri, bunda "sport – ijtimoiy institut" sifatida tan olingen davr (1965-yillar – XX asr ikkinchi yarmi);

8-bosqich "zamonaviy" davr (XX asrning oxiri va hozirgi kunga qadar);

Jismoniy mashqlar va ularning jismoniy madaniyatga aylanish bosqichlari bir-qancha vaqt ni o'z ichiga olgan bo'lsada, ularning ilk kelib chiqishi ibtidoiy jamiyat davrga borib taqaladi. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

*Sehr-jodu va jismoniy harakatlar.* Sehr-jodu va magiya marosimlari jarayonida bajariladigan jismoniy xatti-harakatlar (raqslar, mehnat jarayonlariga, ov jarayoniga taqlid qilish raqslari) qadimgi dunyo odamning jismoniy harakatlarining tartiblanishiga, jismoniy harakatlarni maqsadli o'rGANISHGA sabab bo'ldi.

*Marosimlardagi jismoniy harakatlar.* Turli hil marosimlarda (masalan, to'y marosimlarida, aza marosimlarida, chaqaloq tug'ilganda o'tkaziladigan marosimlarda, yosh yigitlarni jangchi bo'lishiga bag'ishlash marosimlarida, fasallar almashgandagi marosimlarda, hosil bayramlarida va boshqalar) bajariladigan jismoniy harakatlarning vaqi o'tishi bilan tartiblanishi, madaniylashishiga sabab bo'lgan.

*Urushlarlarning jismoniy harakatlarga ta'siri.* Janglarga tayyorgarlik jismoniy harakatlarni maxsus shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi.

*Bo'sh vaqtlardagi jismoniy haraktalar.* Qadim davr odamlarining ovdan, mehnatdan bekorchi bo'lган vaqtlarida o'z bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga bo'lган harkatlaridir. Ularga o'zaro jismoniy o'yinlari (bolalar o'yinlari, kattalar o'yinlari), raqs harakatli o'yinlari yordamida jismoniy harakatlarning madaniylashishiga sabab bo'lganligi.

## **2.2. Qadimgi Sharq va qadimgi G'arb ijtimoiy olamida jismoniy tarbiyaning o'rni**

*Shumer sivilizatsiyasida jismoniy tarbiya.* Dajla va Furot daryolari oralig'ida joylashgan Qadimgi Shumerning jismoniy madaniyatini haqidagi ilk ma'lumotlari miloddan avvalgi uch ming yillik tarixga borib bog'lanadi. Bu xududda jismoniy tarbiya va madaniyatning paydo bo'liishiga harbiy tayyorgarliklardagi mashqlar sabab bo'lgan. Avvaligi harbiy zahiralar oddiy xalq orasidan keyinchalik qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan baquvvat er yigitlar orasidan saralab olingen va jangovor mashqlarni maxsus raqs marosimlari orqali o'rganganlar. Vaqt o'tishi bilan bu marosimlar jang mashqlarini mustahkamlash uchun an'ana yoki boshqacha aytadigan bo'lsak jang qilish usullarini yanada takomillashtirish yo'llaridan biriga aylandi.

"Qadimgi Shumer an'anasi keyinchalik qadimgi Vavilon uchun, Ossuriya uchun, Forslar uchun namuna va maktab bo'lib qolgan"[35]. Nomlari yuqorida ko'rsatilgan sivilizatsiyalar uchun ov (ayniqsa, sher ovlash), kurash, mushlashish, kamondan otish, kurash (belbog'li kurash), suzish ("emaklash" uslubiga o'xshash uslubda suzish) o'ziga xos bo'lgan.

Kundalik hayotda va musobaqlarda qo'lga o'rgatilgan hayvonlar orasida otlardan samarali soydalanish uchragan. 7-16 yosh oralig'idagi o'g'il bolalar va o'spirinlar uchun jismonan baquvvat qiliish va tarbiyalash maskanlarini tashkil etilishi va ushbu maskanlarning o'qiish uslubi yaqin tarixgacha jismoniy tarbiya darslarida saqlanib kolganligi katta ahamiyatga ega.

*Qadimgi Misrda jismoniy tarbiya.* Yer yuzida ilk davlatchilik qadimgi Misrda er. avv. IV-III ming yilliklarda shakllangan. Taxtga o'tkazish uchun hukumadorlar tanlanganda katta ehtimol bilan hukumadorlikka nomzodlar jismoniy musobaqlardan ham o'tishi shart bo'lgan, deb qaraladi. Chunki, bunday xulosaga kelishga undovchi er. avv. 2778-2723 yillarda devorga iushurilgan relefli tasvir (lot.dan. relevo "ko'tarilish" – tekis devordagi bo'rtva tasvir) bunga dalil bo'la oladi. Relefda bo'lajak shohlaring yugurish musobaqasida ishtirok etayotganligi tasvirlangan. Bu ma'lumotlar bir tomonдан hukumdar sinf odamlarining jismoniy tayyorgarligi bo'lganligini, jismoniy tarbiya ular uchun ahamiyatli bo'lganligini ko'rsak,

ikkinchi tomondan, aynan hukumdorlargina maxsus jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanganini va aynan hukumdorlarga mashqlar maxsus o‘rgatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Fir‘avnlar va ularning yaqinlari ot aravada yurishga, qurol-aslahadan foydalanishga maxsus o‘rgatilganlar. Bo‘lajak hukumdorlar va aslzodalarning farzandlari yoshlikdan maxsus maktablarda tahsil olganlar va u yerda jismoniy tarbiya va mashqlar bilan qurollantirilganlar. Ushbu maktablarga ustoz va murabbiy sifatida eng yuqori martabali, bilimli kishilar tayinlanganlar. Hatto-ki, ayrim devoriy-releflarda murabbiylarning o‘z shogirdlariga dars berayotganligi tasvirlari, relef va barelefslari mavjud. Umuman olganda hukumdorlar o‘zlarining va o‘z farzandlarining bilimlariga juda e’tiborli bo‘lganlar. Bilim olish o‘sha davrda ham qadriyat hisoblanib, hukumdorlarning bilimi kuchli, dunyoqarashi keng bo‘lishi qo‘llab-quvvatlangan.

Shuningdek, qadimgi Misr hukumdorlari orasida ov jarayonlari sevimli mashg‘ulotlardan biri hisoblangan. Hukumdorlarning ov jarayonlariga qatnashish va yoki tomosha qilishlarinng o‘zi ham o‘ziga yarasha zavq bag‘ishlagan. Ov jarayonlarida esa asosan sherlar, buqalar, timsoxlar, begemotlar, kiyik va ohular ovlanganlar.

“Qadimgi Misrning er. avv. XVIII-XII asrlarda qoldirilgan ma’lumotlarida bu hududda 400 ga yaqin jismoniy mashqlar va o‘yinlar turi shu jumladan, suzish, kamondan o‘q uzish, kurash, qo‘l jangi bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Devoriy rasm va chizmalardan esa qadimgi Misr armiyasida askarning jismoniy baquvvatligiga va jismoniy tayyorgarligiga katta e’tibor bo‘lganini bilsak bo‘ladi”[35].

Shuni ta’kidlash kerakki, Misrda qullar tomonidan bajariladigan jismoniy o‘yinlarni (qo‘l to‘pi o‘yinlari, gimnastik mashqlarini) tomosha qilish an’anasi mavjud bo‘lgan. Hozirgi kungacha saqlanib qolningan yosh bolalar o‘yinlarini aks ettiruvchi tasvirlarda: odamni mindi-mindi, oyoqni osimonga qilib bosh ustida turish, balandlikka sakrash, dor ustida muvozanatni saqlash, arqon tortish kabi jismoniy harakatlar mavjud bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

*Qadimgi Hindistonda jismoniy tarbiya.* Tarixni o‘rganar ekanmiz “Qadimgi Hindistonda ham qadimgi dunyodagi boshqa davlatlardagi kabi marosim raqlari, kamondan o‘q uzish, nayza uloqtiiish, kurash, yuguriish,

sakrash, uzoqqa sakrash va shunga o'xshash boshqa jismoniy-harakatli mashqlar va musobaqlar turlari bo'lgan”[30]. Qadimgi hind falsafasi negizida asta-sekin jismoniy madaniyat falsafasi shakllana boshlandi. Ushbu falsafa negizida eng avvalo inson kamoloti ta'limoti vujudga kelgan. “Qadimgi hind falsafasida uchta mezon bir-biri bilan teng kelgandagina inson o'z kamolotiga yetishgan hisoblangan. Boshqacha aytadigan bo'lsak, insonda uchta mezon bir-biri bilan uyg'unlikda kelsagina inson to'liq komillikka yetishgan hisoblangan. Ushbu uch mezon qdimgi hind falsafasida: “sattvam” – yaxshilik, “radjax” – ehtiros, “tamah” – johillik”[35].

Qadimgi hind jismoniy tarbiya falsafasida yoga , xususan, xatha-yoga e'tiborga molik bo'lgan. O'zi hind tilidan tarjima qilinganda yoga – “histuyg'ularni boshqarish” deb tarjima qiliniib, uning xatha-yoga turi samadxi (ruhiy va jismoniy uyg'unlik, garmoniya) bosqichiga qaratilgan hisoblanadi. “Samadxi bosqichiga erishish uchun asan usulidan soydalilanigan. Asana usuli o'z mazmunidan kelib chiqib statik-dinamik harakatlar, maxsus murakkabligdagi pozalar, degan ma'nodagi usul hisoblangan”[35].

**Qadimgi Xitoyda jismoniy tarbiya.** Qadimgi Xitoy jismoniy madaniyati haqida so'z ketganda “Kun-fu” sport turi va uning kelib chiqishini eslash maqsadga muvofiqdir. “Kun-fu jang san'ati qadimgi Xitoyning ot sport turi rivojlanmagan hududlarida keng tarqalgan va taraqqiy etган”[35]. Kun-funi – gimnastikani, davolovchi gimnastikani, badanni cho'zishni, uqalashni, davolovchi uqalashni, kasalliklardan forig' etuvchi maxsus mashqlar hamda jangovor jang san'atidan iborat jismoniy harakatlar yig'indisi, desa bo'ladi.

Qadimgi Xitoy, o'z davrning falsafiy qarashlariga asoslanib, o'sib kelayotgan avlodning axloqiy tarbiyasiga, yoshlarning irodasi hamda harakterini shakllantirishga katta e'tibor qaratgan. Musobaqa jarayonida sportchi jang qoidalalarini buzsa yoki qo'pollik kilsa yoki biron-bir qoidani buzsa, unda hakamlar va tomoshabinlar bu kurashchini “syao szan” deb qoralaganlar. Bu so'z jamiyat a'zolari tomonidan yuqori darajadagi nafratlanishni anglatgan.

Kun-su Xitoyning eng qadimgi sport turlaridan hisoblansada, bu hududda ham boshqa Sharq davlatlarida mavjud bo'lgan ko'plab boshqa spot turlari, jumladan ovda qo'l keladigan jismoniy harakatlar, kamondan o'q uzish, nayza uloqtirish, qo'l jangi, yugurish, sakrash, otda turib jang qilish va shu kabi jismoniy mashqlarni uchratish mumkin bo'lgan.

Er. avv. VI asrga kelib qadimgi Xitoyda passiv va aktiv (faol) harakatlarni talab qiluvchi jismoniy harakat turlari shakllandi. Passiv jismoniy harakat turlariga "ney kunng" – ichki (a'zolarni) rivojlantiruvchi harakatlar va "taoszin" – faol tashqi jismoniy rivojlantiruvchi harakat turlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan jismoniy harakatlar rivoji bilan birgalikda, qadimgi Xitoyda zamonaviy futbolga o'xshash "Chju ke" ham paydo bo'lgan. "Chju ke"ning 10 xil qoidasi, to'pga qo'l va oyoq bilan urish va tepishning 70 ga yaqin turlari bor bo'lgan.

Er. avv. II asrga kelib qadimgi Xitoyda jismoniy harakatlarni ikkinchi darajaga surib quyadigan falsafa shakllana boshladi. Masalan, konfusiylilik insonning jismoniy qadr-qimmatini inkor etdi, buddizm va daosizm esa "sariq sallalar" harakatining falsafiy asosiga aylandi, bu esa o'z navbatida oddiy odamlarning quroq ishlatmasdan o'zini himoya qilish qobiliyatini o'stirdi.

Shunday qilib, qadimgi Xitoyda jismoniy harakatlarni talab qiluvchi mashqlar, jang san'ati turlari, raqs turlari, turli-tuman bolalar o'yinlari, davolovchi mashqlar, harakatli uqalash turlari rivojlanganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

**Qadimgi Gretsiyada jismoniy tarbiya.** Er. avv. III ming yillikda Egey dengizi bo'yidagi Krit orolida ilm-fan, madaniyat, san'at turlari shakllangan. Ular qatorida falsafa, etika, matematika, astronomiya, biologiya, geografiya, meditsina kabi fanlar bilan bir qatorda sport, jismoniy tarbiya va jangavor mashg'ulotlar turlari ham rivojlanan boshlagan. O'zi aslida Egey dengizi bo'yidagi Krit orolida rivojlangan taraqqiyot "minay madaniyati" deb nomlangan bo'lib, bu nom Krit orolining podshosi Minos bilan bog'liq bo'lgan. Keyinchalik bu hudud hozirgi Gretsiya hududiga aylangan.



Hush, minay hududida jismoniy madaniyat mavjud bo'lganligini qayerdan bilamiz? Minay madaniyatidagi o'sha davr uchun eng mashhur bo'lgan "Knoss" qasri devoriy suratlarda jismoniy harakatdagi insonlar tasviri topilgan. Devoriy suratlarda yunon-rum kurashi, qo'l jangi, akrobatik mashqlar tasvirlari bor bo'lgan. Bunday tasvirlarning ichida eng keng tarqalgani bu – buqa bilan o'tkaziladi akrobatik harakatlar tasviridir. O'sha davrda akrobatik mashqlarni ayol va erkaklar bir-xilda barobar teng bajarishgan. Ular o'ziga yarasha murakkab bo'lgan mashqlarni, buqa ustidan sakrash san'atini namoyon qilishgan[35].

Afsuski, er. avv. XV asrda bo'lib o'tgan vulqon otilishi Krit oroliga va u yerdadgi me'moriy majmualarga, arxitektura yodgorliklariga sezilarli zarar yetkazgan.

### Sparta shahridagi harbiy-jismoniy tarbiya.

Krit orolida bo'lib o'tgan tabiiy ofat (vulqon otilishi) natijasida hamma joy vayron bo'lganidan foydalangan qadimgi greklar ajdodlari o'sha hududni bosib olishdi va madaniyatning o'chog'i greklar bilan bog'liq. deb talqin qilina boshlandi. Qadimgi Greklar madaniyatida (o'lkasida) ikkita katta shahar: Sparta va Afina qad ko'tardi. Keyinchalik bu shaharlara ham "Minay madaniyati" kabi ilm-fanning, madaniyatning, san'atning, siyosatning va demokratianing o'chog'iga aylandi. O'z navbatida jismoniy harakatlar va sportning o'rni ham Sparta va Afinada o'z o'rniga ega bo'lgan. Jumladan, Spartada yashovchi 30000 erkin fuqaro 300000 qullarga boshchilik qilgan. Albatta bu "erkin fuqarolar" dan cheksiz kuch, ilm, ruhiy chidamlilik va jismoniy baquvvatlikni talab qilgan. Spartadagi "erkin fuqarolar"ning harbiy-jismoniy tayyorlarligi ham yuqori darajada bo'lgan. 7 yoshdan boshlab o'g'il bolalar o'zları mustaqil ish olib borishni bilishlari uchun maxsus maktab-otryadlarga yuborilganlar. Bunday maktablarda dars berish nufuzli hisoblanib, unday joylarda jamiyatdagi baobro' kishilar ta'lim berishgan.

Jismoniy ta'lim jarayonlari ochiq maydonlarda, shaharlardan tashqarilarda o'tkazilib, u yerladar ayniqsa yugurish mashqlariga katta e'tibor berilgan. Keyinchalik bu mashq turi uchun binolar ichida maxsus joylar barpo etilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashqlari diskni uzoqqa uloqtirish, kurash tushish (yunon-rumi kurashi nazrda tutilmoxda), yugurish,

akrobatik mashqlarni bajarishdan iborat bo'lib, ular qizlar va yigitlar uchun teng barobar majburiy hisoblanganlar. 14 yoshga yetganda yoshlar "cripta" (yashirin) nomli sinov-imtihonidan o'tishlari shart bo'lgan. "Cripta" imtihonidan o'tgan o'smir yigit va qizlar "eyren" (14 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan) bosqichiga ko'tarilganlar. 20 yoshga to'lgan yigit va qizlar "eyrenye" bosqichidan so'ng balog'at yoshiga yetgan deb sanalganlar. Endilikda ularni ajratish boshlangan, ya'ni qizlarning jismoniy ta'lif olishi to'xtatilgan. Yigitlar esa "er yigit" hisoblanib armiyaga xizmatga olinganlar. Harbiy xizmatga olingan "er yigitlar" endilikda "eseba" deb nomlanganlar. "Esehye" – bu balog'at yoshiga yetgan, harbiy xizmatni o'ta oladigan, yetuk erkak kishi deb qabul qilingan.


Umuman olganda, er. avv. VII – VI asrlarda Spartada jismoniy tarbiya harbiy-taktik tarbiya bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lgan.

**Afinada jismoniy tarbiya.** Afina demokratik boshqaruva amalga oshirilgan ilk shahar-davlat bo'lgan. Afinada bolalar tarbiyasi bilan maxsus shug'ullanish bu – ota-onaning shaxsiy ishi hisoblanib, u yerda Spartadagi kabi qizlar va o'g'il bolalar maxsus tarbiyasi majburiy bo'imagan. Afinada farzandalari tarbiyasi bilan o'ziga bo'q bo'lgan, badavlat oilalar shug'ullanganlar. "Badavlat oila farzandlari tarbiyasi, shuningdek, ularning jismoniy tarbiyasi "palestera" nomli xususiy o'quv maskanlarida amalga oshirilib, ularga "pedotrib"lar (bolaning aqliy va jismoniy tayyorgarligia javob beradigan murabbiy-o'qituvchilar) dars bergenlar. Badavlat oilalardan ko'ra nisbatan kamroq ta'minlangan oilalar esa o'z farzandalarini davlat o'quv dargohlariga – "gimnasiy"ga bergenlar. "Gimnasiy"larda jismoniy tarbiya "pentathlon" asosida amalga oshirilgan. "Pentathlon" (beshkurash) o'z tarkibiga 5 ta mashqni olgan kompleksniy trenirovka shakli hisoblangan. Ushbu "pentathlon-beshkurash" tarkibiga: yugurish, uzoqqa sakrash, disk va nayza uloqtirish hamda kurash mashq turlari kirgan. Shuningdek, jismoniy tarbiyaning yana bir bo'lagi (bo'limi) sisatida "orkestrika" – musiqa ostida yugurish, raqs tushish, sakrash, koptoklar bilan o'yin o'ynash hisoblangan. "Orkestrika"ni zamonaviy fitnes darslariga tenglashtirsak ham bo'ladi" [35]. Spartadan farqli ravishda Afina yoshlari ta'lif-tarbiyasida jismoniy tarbiya katta ahamiyatga ega bo'lsagan.

Afinada qizlar xuddi Spartadagidek maxsus jismoniy mashqlar bilan o'rgatilimgaganlar. Jismoniy tarbiyaga maxsus tarbiya sifatida qaralib, unga hammaning ham imkoniyati va puli yetmagan.

Umuman olganda Afinada ko'proq falsafa, davlatni boshqarish usuli, siyosatni o'rganish, demokratiyani qadrlash rivojlangan. Albatta, Afindan jismoniy tarbiya bo'limgan, deb ayta olmaymiz, bunga yuqorida ko'rsatib o'tgan mashqlarimiz va maktablardagi ta'lim dasturlari misol bo'la oladi. Shunga qo'shimcha ravishda "Afinda otda yurish, suzish, eshkak eshish, kamondan o'q uzish, sextovaniye kabi sport turlari ham bo'lganligini aytib o'tamiz"[39].

### **2.3. Olimpiada o'yinlarining kelib chiqishi va ularning ijtimoiy ahamiyati**



*Olimpiada o'yinlarining kelib chiqish tarixi.* Aytib o'tilganidek Qadimgi Gretsiyada jismoniy tarbiyaga katta e'tibor berilgan bo'lib, ular tezlik, epchillik, jismoniy baquvvatlilikni qadrlashgan. Ular har to'rt yilda tantanavor tarzda sportga bag'ishtangan musobaqalar o'tkazishgan. Musobaqalar Olimpiada shahrida o'tkazilgani uchun ular "Olimpiada o'yinlari" deb nom olishgan. Ilk Olimpiada o'yinlari er. avv. 776 yilda Gretsiyaning janubiya qismida joylashgan Olimpiya shaharchasida bo'lib o'tgan [30,34,35,39,43].

Afsonaga ko'ra Olimpiada o'yinlaridagi sport musobaqalariga Gerakl asos solgan bo'lib, u ularni Zevs xudosiga bag'shida qilgan. Keyinchalik Olimpiada o'yinlarni har 4 yilda o'tkazilish an'anaga aylangan. Olimpiada o'yinlari odamlarni bir-birlari bilan birlashtirgan, odamlar orasida xursandchilik tuyg'usini solgan, urushlar va kelishmovchiliklar shu kunlarda to'htatilgan va hamma joyda tinchlik hukm surgan. O'rmatilgan mavjud tartib-qoidalarga hamma bo'ysunishi shart bo'lgan. Qoidalarga rioya qilmaganlarni jazolashgan, jarima solishgan va xudolar qarg'ishi bilan qurqitilganlar. Olimpiada o'yinlari davrida Gretsiyaning turli burchaklaridan minglab odamlar Olimpiya shaharchasiga oqib kelganlar. Olimpiada o'yinlari boshlanishidan avval o'yinlarga barcha nufuzli insonlar, che'l davlat elchilari mehmon siftaida taklif qilinganlar va

olimpiada musobaqalrida o'zi istagan barcha "ozod fuqaro" largina ishtirok etishgan.

Olimpiada o'yinlari avval boshida musobaqlar 1 kun o'tkazilgan, keyinchalik ular 3-5 kun davomida o'tkaziladigan bo'lgan. Musobaqaning birinchi va oxirgi kunlari Olimpiada o'yinlariga bag'ishlangan turli xil marosimlar, musobaqada halol bo'lish qasamyodlari, qurbanliklar, musiqa va o'yin-kulgi hamda tantanali chiqishlarga bag'shlangan bo'lgan. Olimpiada o'yining atigi 1 kuni esa sof jismoniy harakatlardan iborat musobaqalarga bag'ishlangan bo'lgan. Bu degani, Olimpiada o'yinlari – bu tantanali, xursandchilikka bag'ishlangan, xalq sayllari va shoiru-fuzalolarning chiqishlaridan iborat bo'lgan bayram hisoblangan. Shunday bo'lsada, Olimpiada o'yinlarini o'tkazishning asosiy maqsadi bu – ularda jismoniy musobaqalarning o'tkazilishi bo'lgan.

Olimpiada ishtirokchilari ("ozod fuqaro" hisoblangan har qanday shaxs ishtirok eta olgan) musobaqlar boshlanishidan 11 oy avval tayyorgarlik ko'rishgan.

Musobaqalarni avval atletlar ochib bergen. *Atlet* deganda – sport musobaqalarining ishtirokchisini tushunish bilan birgalikda, qadimgi Gretsiyada atlet deb – zabardast, baquvvat, jismonan barkamol bo'lgan inson ham tushinilgan.

Musobaqlar asosan dumaloq shaklda barpo etilgan stadionlarda bo'lib o'tgan. Stadionlarga kirish tekin bo'lgan bo'lsa-da, u yerga ayollarning kirishi va yoki ayollarning atletik musobaqalarda ishtirok etishi umuman taqiqlangan edi. Bunga sabab esa: musobaqa ishtirokchilarining musobaqada kiyimsiz ishtirok etishi bo'lgan.

Umuman olganda, uzoqqa yugurish, uzoqqa sakrash, uzoqqa disk va nayza uloqtirish, kurash, ot-aravada poyga o'tkazish olimpiada o'yinlarining eng mashhurlari hisoblanganlar. Ushbu musobaqlar u yoki bu tarzda harbiy tayyorgarli ishlari bilan bog'liq edi, shuning uchun o'yinlarda qatnashish er yigitlarining jangovar mahoratini va ruhini kuchaytirgan.



*Pentatlon-beshkurash* – besh xil sport turlarining janlanmasi bo'lib, qadimgi Gretsiyada pentatlon yugurish, uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish, disk uloqtirish va kurashdan iborat bo'lgan. Pentatlon-beshkurash musabaqalarida birinchi bo'lib yuguruvchilar qatnashishgan. Keyin maydonga uzoqqa sakrovchilar, keyin disk va nayza uloqtiruvchilar va oxirgi bo'lib kurashchi polvonlar tushishgan. Pentatlon-beshkurash jamlanmasi shu bilan yakunlangan.

*Ippodrom* - bu ot-arava sportturi musobaqalarini o'tkazish uchun maxsus jihozlangan maydon.

Olimpiada o'yinlari uchun maxsus ippodrom Olimp tog'ining tagida tashkillashtirilgan bo'lib, unga bir vaqtning o'zida 10000 ga yaqin muxlislar sig'ishgan. Har bir poyga vaqtida ippodrom maydoniga 60 ga yaqin ot-arava ishtirokchilari musobaqada ishtirok etishlari mumkin bo'lgan. O'yin shartida ot-arava maydonni 12 marotaba aylanpib o'tishi kerak bo'lgan. Musobaqa ishtirokchisi uchun eng xavli joy bu – burilish ustunini aylanib o'tish kerak bo'lib, keskin burilish paytida ba'zi o'talar o'zlarini boshqara olmay, ustilarida o'tirgan chavandozni uloqtirib yuborishlari mumkin edi. Bundan tashqari, nohalol raqiblar tomonidan ham turli-tuman to'siqlar va tuzoqlar uyuştililib chavandozlarga jarohatlar yetkazish holatlari ham bo'lib turgan. G'olib deb marraga birinchi kelgan ot-arava va uning chavandozi hisoblangan.

Olimpiada o'yinlarining oxirgi kuni g'oliblarga sovrinlar berish, ularni mukosoflash, zaytun barglaridan tayyorlangan gulchambarni g'olib sportchining boshiga kiygazish va ularni olqishlash bilan yakunlangan. Olimpiada o'yinlarining g'olibini bo'lish juda nufuzli hisoblanib, ular sharasiga kuy-qo'shiqlar yaratilgan va madxiyalar kuylangan.

Vaqt o'tishi bilan Olimpiada o'yinlarini o'tkazish quyidagi tarzda o'zgarib borgan:

➤ "diaulos" er. avv. XIV asr (er. avv. 724 y.) – ikki bosqichda yugurish;

➤ "dolixodrom" er. avv. XV asr (er. avv. 720 g. y.) – uzoq masofaga yugurish;

➤ "pentatlon" er. avv. XVII asr (er. avv. 708 y.) – beshkurash;

- “qo'l jangi” er. avv. XXIII asr (er. avv. 688 y.);
- ot-arava poygasi er. avv. XXV asr (er. avv. 680 y.);
- “pankriotion” er. avv. XXXII asr (er. avv. 648 y) – kurash va qo'l jangi qo'shmasi;

Er. avv. 688-680 yillarga kelib Olimpiada o'yinlarining o'tkazilish vaqtiga 5 kungacha uzaytirilgan[35,39].

#### **2.4. Qadimgi Markaziy Osiyo jismoniy tarbiya.**

##### **O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish bosqichlari**

Qadimgi Markaziy Osiyo jismoniy tarbiyasiga oid ma'lumotlar tarixiy va arxeologik yodgorliklardan, topilmalardan olingan. Masalan, Qadimgi Xorazm So'g'd Dovon va shu kabi boshqa davlatlarning madaniy an'analarida jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta bo'lgan. Ajdodlarimizdan Amir Temurning tayyorgarlig haqidagi qarashlari, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zayniddin Mahmud Vosifiy asarlarida badan tarbiyasi va harbiy-jismoniy tarbiya haqida ko'pgina ma'lumotlar bor.


Tarixchi olim Gerodot bergen ma'lumotlarga qaraganda Kaspiy dengizidan sharqdagi tekislik (qoraqum)da, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida massagetlar qabilasi yashagan. Strabon xorazmiylarni ham massagetlarga kiritgan.

Saklar Markaziy Osiyo va Qozog'istonning tog'lari dashtlari va cho'llarida yashagan ko'chmanchi chorvador qabilalardir. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda ularga qarindosh bo'lgan qabilalar qora dengizning shimoliy sohillaridan to Xitoy chegaralarigacha bo'lgan keng xududda joylashgan.

Qadimgi fors yozuvlari ko'chmanchilarni «Saka», «Shak» deb yoritadi, yunon tarixshunoslari esa «Skiflar», «sarmatlar», «Saklar», «Massagetlar», so'ngi davrlarda «Daxlar», «olonlar» deb ataganlar.

Olimlar fikriga ko'ra, «Sak» so'zi - “qudratli, idrokli, epchil bo'lish”, yoki “kuchli, azamat, mard” deb tarjima qilinadi. Saklarning qadimiy yodgorliklarida bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zebu-ziynat buyumlari, melnat qurollari va sopol idishlarda uchraydi.

Sak-massagetlar jismoniy harbiy tayyorgarligida otda yurish, qilichbozlik, kamondan o'q otish, nayza sanchish kabi jang usullarini bilish muhim o'rinn tutgan. Aholisining zodagon va harbiylar guruhiga mansub bo'lganlarning bolalari uchun maxsus tajribali ustozlar tanlab olingan, qaysi-ki ularning bolalari uchun otda yurish, nayzani uloqtirish, sanchish, kamondan o'q uzish bo'yicha saboq berishgan. Ular yetuklik yoshiga yetgunga qadar maxsus harbiy jismoniy tayyorgarlik bosqichini o'taganlar. Uzoq muddatli mashaqqatli sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan yosh sak-massagetlar bemalol uchib borayotgan chumchuqni mo'ljalga olganlar, ot ustida ketayotib old va orka tarasga bir xilda o'q uzib, mo'ljalga aniq tegizganlar.



Gerodotning «Tarix» kitobida muntazam ravishda ahmoniyalar harbiy qo'shinlaridagi yurtimiz xalqlarining jangchilari haqida ma'lumot beradi: "Baqtriyaliklarning ubti-boshi midiyaliklarning ust-boshiga o'hshagan, ular o'q-yoy va kalta nayzalar bilan qurollanganlar. Saklar uzun cho'qqili

qalpoklar kiyib, kamon va xanjarlar bilan qurollanganlar, yana ularda ikki qirrali harbiy boltalar bo'lgan".

Gerodot o'z tarixiy ma'lumotlarda saklarning qurol-yarog' aslahalari va ot-anjomlari haqida aniq ma'lumotlar keltirgan. Ko'chmanchilarning mozor-qo'rgonlarida shu qurollar jumlasidan harbiy boltalar, hanjarlar va bronza o'qlari juda ko'p uchraydi. Saklarning o'qlari bargsimon, ikki yoki uch qirrali bo'lgan, xanjar va qilich dastasining boshi yoysimon qayirib qo'ygan.

Yunon sayyohi Dionisiy esa saklar to'g'risida: "Sug'diyona ortida joylashgan Yaksart (Sirdaryo) oqimi bo'ylab o'quzar, o'qi nishonga tegadigan, biron ta harakati behuda ketmaydigan, dunyodagi eng mohir o'qchilar – saklar yashaydi", - deb yozgan edi.

### Zardushtiylik.

Miloddan avvalgi I-ming yillikning birinchi yarmida Markaziy Osiyo zardushtiylik dini keng tarqaldi. Bu dinning asoslari ibridoij jamoa sharoitida, odamlar tevarak atrofida tabiatni iloxiylashtirigan bir davrda vujudga keldi. Zardushtiylar o'shanda olov (quyosh)ga, yer, suv, oy, yulduzlarga sig'inganlar va ularni muqaddas, deb bilganlar.

Zardushtiylar dinining nomi ushbu din asoschisi Zardusht (turli tillarda Zaratushra, Zoroastr) ismidan olingen bo'lib, u Sharqning birinchi faylasufi, notig'i, shoiri, donishmandi, xalq doxiysi hisoblanadi.

«Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, uning ilk saxifalari Zardusht tomonidan 548-519 yillar orasida Amudaryo soxillarida yaratilgan. Bu kitob 12 ming xo'kiz terisiga bitilgan.

«Avesto»ning «Vandidod» kismining 5 chi va 17 chi boblarida doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz-qo'lini bir necha marta yuvish, sochni toza tutib, tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya etiladi. Inson me'yori bilan doim to'q yurishi, ko'proq go'sht iste'mol qilish lozimligi uqtirilgan.

«Avesto»da yozilishi bo'yicha har bir inson, kuniga bir necha marotaba yuvininib, poklanib quyoshni olqishlab sig'inishi shart.

Markaziy Osiyo xalqlarining dastlabki yozma yodgorliklaridan biri sanalgan «Avesto»da ajdodlarimizning qadimgi axloqiy-didaktik

qarashlari, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari, ayniqsa salomatlik, baquvvat bo'lislilik xaqida o'z isodasini topgan.

«Avesto»dagi ma'lumotlarga ko'ra, ikki kuch, yaxshilik va yomonlik kuchlari mavjud bo'lib, ular bir-birlariga abadiy murosasizdirlar. Yaxshilik kuchlarida insonlarni yuksak fazilatlariga asoslanib jismoniy axloqiy, aqliy, tabiatni himoya qilish kabi go'zallikka doir juda ko'p muammolar mujassamlashgan. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal zardushtiylikning asosini tashkil qilgan.

Shuningdek, «Avesto»da oila gigiyenasi, atrof-muhitni, aholi yashaydigan joylarni toza tutish, kucha hovli, suv xavzalari, ariq va chashmalarni iflos qilmaslik haqida maxsus boblar mavjud.

Undan tashkari, «Avesto»da bemorlarni davolashning turli usuli ko'rsatilgan. Ulardan oila, shaxsiy gigiyena hamda qiz va o'g'il bolalarni parvarishlar, tarbiyalash qoidalari haqidagi fikr muloxazalar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

**“Arxeologiya va etnografiya ma'nbalari** shundan dalolat beradiki yurtimizning janubiy xududida qadim-qadim zamonalarda ham jismoniy tarbiyaning muayyan tizim mavjud bo'lgan. Shuni ko'z oldingizga keltiringki. sanoqsiz harbiy yurishlarda ishtirok etuvchi baqtriyajangchilariga katta jismoniy tayyorgarlik: chaqqonlik, tezlik, kuch va chidamlilik juda zarur bo'lgan. Bu sisfatlar ularda uzoq muddat davom etgan mashq'ulotlardan so'ng qaror topgan. Bu davrda ot sporti, kamondan otish, yugurish, sakrash, irg'itish, suvda suzish, ovchilik, shahmat, kurash va boshqa ko'pdan-ko'p o'yin turlari yuksak taraqqiy etgan. Surxondaryo xududida Nina ma'budasining paydo bo'lishi shundan guvohlik beradiki, bu yerda qadimgi grek olimpiya o'yinlariga o'xshash sport musobqalari o'tkazilgan.

Markaziy Osiyoning tashqi tadqiqotchisi G.Pugachennova shahmat tarixi haqida shunday yozadiki: "... fil suyagidan yasalgan-balndligi 2x2 eni 2 santimetr bo'lgan ikkita shahmat figurasining topilishi katta kashfiyotdir. Ulardan biri fil, ikkinchisi esa ho'kiz timsolidir. Ularning eramizdan bo'lgan I-II asrlar, ya'ni Kushon sultanati davriga mansub deyish mumkin. Dalvarzintepadan topilgan shahmat donachalari chaturing o'yinning shayranj shakliga oid bo'lishi kerak", - deb yozgan edi.

Zaminimizda shahmat donachalarining topilishi shundan dalołat beradiki, Surxondaryo xududida Osiyoning boshqa joylariga qaraganda shahmat ancha taraqqiy etgan. Xalq afsonalari, eposlar, rivoyatlar bu xududda qadim zamonalardan xalqning o'ziga xos jismoniy tarbiyasi shakllangan va rivojlanganligidan guvoxlik beradi”[17].

“O'zbek xalqining qahramonlik eposi «Alpomish» dostonida kurash, menganlik va chavandozlik musobaqalariga katta o'rın berilgan. Dostonda yozilishicha, qizlar Alpomishdek oldilariga qo'yilgan shartni bajargan yigitlarnigina kuyovlikka loyiq ko'rishgan. Sug'diyona va Baqtriya davlatlari mavjud bo'lgan davrlarda miloddan oldingi IV-I asr O'rta Osiyoda yashagan xalqlar orasida epchil dorbozlar juda mashhur bo'lgan. VIII-X asrlarda yashab ijod etgan faylasuflarimiz ham jismoniy tarbiya haqida yozib qoldirishgan. Jumladan, Abu Nasr Faroboiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarlarida o'rta asrlarga xos jismoniy mashqlar haqida ma'lumotlar berilgan. Ibn Sino jismoniy tarbiya to'g'risida fikr yuritar ekan, uni tashkil etishda kishilarning turli yoshi va jinsini ham hisobga olish kerakligiga alohida e'tibor qaratadi”[19].

Shuni alohida e'tirof qilish kerak-ki, milliy jismoniy mashq turlari yoshlarni jasurlik, chaqqonlik, epchillik va sobitlik ruhida tarbiyalash ularni qiyinchiliklarni dadil bartarasf etishi ruhida voyaga yetkazishida bebaxo vositalardir. Bu mashqlarning umumiyligi tarkibi xalqlarimizda jismoniy tarbiyaning tarixan qanday shakllanganligi, rivojlanganligini atroflicha anglab olishiga imkon berdi.

“O'rta asrning oxirlarida bahodirlarning quroq ishlatalish san'ati bo'yicha musobaqalari keng tarqalgan. Bu o'yinlarga voqislar rahbarlik qilar edi. Ular bahodirlar orasida o'yinlar boshlanishidan bir oy ilgari sport salaflari tomonidan saylanar edi. XVIII-XIX asrlarda milliylik xususiyati yorqin ifodalangan jismoniy tarbiya tizimlari yuzaga kela boshladи. Ulardan nemis jismoniy tarbiya tizimi – Guni-Muts (1759-1838), Vits (1763-1836) va Yan (1778-1852); shved jismoniy tarbiya tizimi – Ling (1776-1839); chek jismoniy tarbiya tizimi – Tirsh (1832-1884); Daniya jismoniy tarbiya tizimi – Naxtegall (1777-1847); fransuz jismoniy tarbiya tizimi – F.Amoros (1770-1847) va boshqalar tomonidan yaratilgan jismoniy tarbiya

tizimlaridir. Turkiston, Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng, evropa xalqlari o'rtaida ommalashgan sport turlari Turkustonga kirib kela boshladi. 1882 va 1894-yillarda Toshkent va Samarqandda chavandozlar jamiyatları tashkil topdi. 1895-yil Toshkentda havaskor velosipedchilar jamiyati tuzildi. 1900-yil velosiped sporti havaskorlari va professional velosipedchilar musobaqalarini o'tkazish uchun Toshkentda qurilgan maydonda velopoygalar tashkil qilindi. 1903-yil Toshkentda birinchi tennis korti ishga tushdi. 1904-yil esa gimnastika va jismoniy mashqlar havaskorlari jamiyati tuzilib, 1905-yildan bolalar o'rtaida yugurish, sakrash, koptok irg'itish kabi sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bu Toshkentda sportning yengil atletika turi rivojlanishiga zamin yaratdi. 1908-yil Toshkent sirkida taniqli kurashchi va mahalliy polvonlar ishtirokida fransuzcha kurash (oz. yunon-rum kurashi) bo'yicha chempionat o'tkazildi (bu musobaqa o'zbek kurashiga birmuncha o'xshash sportning shu turi rivojlanishida alohida rol o'ynadi). 1910-yil Toshkentdagagi harbiylar markaziy binosida gimnastika, qilichbozlik maktabi ochilib, unda (asosan, rus zabitlari o'rtaida) shu sport turlari bo'yicha mashqlar, musobaqalar o'tkazilib turildi. Ishehilarning dastlabki sport to'garaklari 1910-yil Toshkentda harbiy okrug shtabi bosmaxonasi matbaachilarini tomonidan tashkil etildi. Ularda gimnastika, yengil atletika va boshqa sport turlari bo'yicha mashg'ulotlar olib borilgan. 1912-yil Qo'qonda, keyinchalik Farg'ona, Toshkent va Andijonda futbol jamoalari tuzildi. Turkistonda eng yirik hisoblangan sport havaskorlari jamiyatining (1913-yil tashkil topgan) futbol, yengil atletika va laun-tennis bo'slimlari bor edi. 1915-yil Toshkentda gimnastika o'qituvchilar kursi ochildi. Suv sporti bilan shug'ullanuvchilar uchun dastlabki sun'iy havzalar barpo qilindi. Umuman olganda, XX asr boshlarida sport jamiyatları va to'garaklari Turkustonga ko'chib kelgan rus va evropalik fuqarolarga xizmat qilgan. Keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan sport inshootlari amalda yo'q edi.

Bugungi kunda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng sport sohasi nafaqat mamlakatni dunyoga tanitish balki xalqimizning sog'lig'ini mustaxkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalashning asosiy mezoni sifatida katta e'tibor berildi. Millatning kelajagi masalasi doimo jamiyat tarbiyalayotgan keyingi avlodning qanday kamol topishiga bo'g'liq bo'slib

kelgan. Shu sababli mamlakatimizda ham jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish keyingi avlodni har tomonlarma sog'lom qilib tarbiyalashga davlat oldidagi muhim vazifa bo'lib kelmoqda”[19].

**Xulosa.** Sport sotsiologiyasi fani yaqin tarixda ilmiy asoslangan fan sifatida shakllangan bo'lishiga qaramay, sport va uning jamiyat hayotidagi o'rni, sport bilan bog'liq ijtimoiy fikrlar, sport tadbirlari va ulardag'i hayot mazmunini ifodalanishi doim mavjud bo'lgan. Jumladan, qadimgi Sharqdagi sport va unda inson ruhiy tarbiyasi. Anik dunyoda Olimpiada o'yinlari va u yerda bo'ladigan olimu-fuzalolar, siyosatdonlar, tadbirkorlar jamoasi tashkil qilinishining o'zi – ijtimoiy jarayondir. Markaziy Osiyoda jismoniy mashqlar va musobaqalarda shaxslararo muloqot yaratilgan. Vatanga muhabbat kabi insoniy hislatlar shakllantirilgan. Shu tariqa, sport va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi orqali yillar mobaynida asta-sekin sport sotsiologiyasi fani asosiy tushuncha va kategoriyalarning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlariga asos yaratilgan.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sehr-jodu (magiya)da, turli-hil marosimlarda, jangavor jang san'atida, mehnat jarayonida, bo'sh vaqt ni samarali o'tkazishdagi jismoniy harakatlar turlari va ular ushbu jarayonlarda qanday ifodalangan?
2. Turli Sivilizatsiyada paydo bo'lgan jismoniy madaniyat elementlarini shgapirib bering: Qadimgi Shumer, Qadimgi Misr, Qadimgi Hindiston, Qadimgi, Xitoy.
3. Quyidagi atamani izohlab bering: a) "sattvam", "raja", "tamah", "samadhi", "asana", "hatha yoga", "ney kunng", "taoszin", "Chju ke".
4. Qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan "mukammal inson" tushunchasini kengaytiring.
5. Qadimgi Xitoyda jismoniy madaniyat rivojiga falsafiy tizimlarning ta'siri qanday bo'lgan?
6. Qadimgi Markaziy Osiyoda jismoniy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
7. Sak-massagetlar hayotida harbiy tayyorgarlik, jismoniy mashqlar. Geradot yozma manbalarida Markaziy Osiyo jismoniy tayyorgarligi haqidagi qarashlari qanday?

8. Zardushtiylik dini va "Avesto" asarida jismoniy harakatlar, mehant va er kishining vazifalari haqida nimalar deyilgan?

9. Qadimgi Markaziy Osiyoda yana qanday jismoniy harakatlarni talab qiladigan o'yinlar va mashqlar bo'lgan?

10.Qadimgi Gretsiya: Sparta va Afinadagi jismoniy tarbiya haqida ma'lomot bering. "Kripta", "cyren", "efeba", "palestera", "pedotrib", "gimnasiy", "Pentatlon", "orxestrika"lar haqida gapirib bering.

11.Olimpiada o'yinlari haqida gapirib bering.

12.Olimpiada o'yinlarida kimlar ishtirot etgan?

13.Olimpiada o'yinlari nimalardan iborat bo'lgan?

14.Olimpiada o'yinlarining tashkil etilishi qanday bo'lgan va ular necha kundan iborat bo'lgan?

15.Diaulos, dolixodrom, pentatlon, pankration nima?

16.Quyidagi jadvalni to'ldirib bering:

Olimpiada o'yinlarining yillar salnomasini to'ldirib bering:	Oylymпиада о'yinlari o'tkazilgan joylar:	Olimpiada o'yinlari turlarini sanab bering:	Olimpiada o'yinlari ishtirokchilari:	Olimpiada o'yinlarining ijtimoiy va madaniy ahauniyatini nima?	Olimpiada o'yinlarining zamonaviy ko'rinishlari va turlari:

## MAVZU № 3. SPORT SOTSILOGIYASI FANINING OBEKTI VA PREDMETI

### Reja

1. Jismoniy harakatlar, badan tarbiyasi va jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sport tushunchalarining o'zaro nisbati.
2. Sport sotsiologiyasi fanining vujudga kelishi tarixi, rivojlanishi va bugungi kundagi rivoji.
3. Sport sotsiologiyasi fani tushunchasi, o'rganilish obyekti va predmeti. Sport sotsiologiyasining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.
4. Sport bilan bog'liq olib borilayotgan davlat siyosati hamda qabul qilingan hujjatlarining o'rni.

*Kalit so'zlar: sport sotsiologiyasi, jismoniy harakat, badan tarbiyasi, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, sport, ommaviy sport, professional sport, tijoratlashutirilgan-professional sport, havaskorlik sporti, djon Lokk, Russo.*

### 3.1. Jismoniy harakatlar, badan tarbiyasi va jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sport tushunchalarining o'zaro nisbati



XIX-XX sport ijtimoiy hodisaga aylanib bo'lganiga qaramasdan u sotsiologlar e'tiborini o'ziga maksimal daraja endi-endi torta boshladi. Hali-hanuz sportni saqatgina jismoniy tarbiya nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan san, degan qarash mavjud. Shunga qaramay bugungi kun olimlari sportni ijtimoiy hodisa ekanligini tan olishmoqda va uni nafaqat jismoniy tarbiya nazariyasi va pedagogikasi balki, sotsiologiya fanining obyekti sisatida ham o'rganish lozimligini ta'kidlashmoqda. Sport sotsiologiyasi alohida, mustaqil fan bo'lib shakllanib bo'ldi. Albatta, bu san jismoniy tarbiya nazariyasi, sport pedagogikasi, sport psixologiyasi va umumiy sotsiologiya bilan uyg'unlashgan holda dunyoga kelgan sandir. Lekin, shunga qaramay "sport sotsiologiya"si mustaqil san sisatida allaqachon oyoqqa turib bo'lgan. Tabiiyki, bu fanning ilmiy metodologiyasi, kategorilari, qonuniyatları va funksiyalarini aniqlashtirib olish bilan bog'liq bir qancha savollar yuzaga keladi. Ushbu mavzuda, muallif baholi qudrat shu savollarga javob berishga harakat qiladi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi, pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologiyasi bilan shug'ullanuvchi olimlarining nazariyasiga ko'ra "jismoniy madaniyat va sport – bu umuman ikki xil, mustaqil fenomendir".

Jismoniy madaniyat deganda – jismoniy harakatlar madaniyati, badan tarbiya madaniyati va sog'lom turnush madaniyati nazarda tutiladi, deb qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda jismoniy madaniyat ikki hil ko'rinishda talqin qilinadi: *birinchi qarashda jismoniy madaniyat hu* – umumiy madaniyatning bir bo'lagi sifatida, *ikkinchi qarashda esa* – jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni bildiradigan holat, deyiladi.

Keling yuqoridagi fikrlarning umumlashmasi sifatida jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sport nima ekanligiga oydinlik kiritib olsak. Avvalo, shuni aytib o'tish kerakki, jismoniy tarbiya va madaniyat alohida madaniy hodisa sifatida bir kunda paydo bo'lib qolmagan, u avval boshda:

1. *Tizmilashtirilgan (sistemalashtirilgan), turtibga solingan jismoniy harakatlar* yig'indisi sifatida paydo bo'lgan (bunda albatta ibtidoiy diniy marosimlardagi, ov qilish jarayonidagi, hayvonlar harakatiga taqlid qilish jarayonidagi jismoniy harakatlarning tartibga solinishi va ularni tizimlashtirib, maqsadli foydalanishga bo'lgan urinishlar);

2. *Badan tarbiyasi, jismoniy tarbiyaning kelib chiqishi* (bunda odamlarning ibtidoiy fikrlash tarzi o'zgarib, endilikda ular jismoniy harakatlarga nafaqt ov marosimlarida foydalanish yoki diniy marosimlarda foydalanish uchun kerak bo'lgan harakatlar yig'indisi, balki, maxsus badanni chiniqtirish uchun, sog'lom bo'lish uchun kerak bo'lgan jarayon, deb qarashlari shakllangan);

Jismoniy madaniyat haqida "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida berilgan ta'rifga ko'ra: "Jismoniy tarbiya — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniadigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig'indisidan iborat bo'lgan qismi;" [2]dir.

3. *Jismoniy madaniyat* – umuminsoniy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib, u "jismoniy tarbiya"dan ko'ra kengroq tushunchani anglatadi.

Jismoniy madaniyat bu – odamlarning kundalik hayotda badan tarbiyasiga, sportga, ommaviy sportga, sportchiga va umuman sportning jamiyatda tutgan o’rniga bo’lgan munosabati, bahosi va hurmatidir.

4. *Sport*. Sport bu jismoniy madaniyatning bir bo’lagi. U odamlar doimiy turmush tarzidagi xatti-harakatlarining qadriyatga aylanganligi belgisidir. *Sport – 1) ommaviy sportga, 2) professional sportga va 3) havaskorlik (yuqori natijalar) sportiga bo’linadi*. Keling ularni yanada chuqurroq ko’rib chiqamiz.

1) *Ommaviy sport* – yoshidan, ijtimoiy holatidan, kasbidan, faoliyat turidan qat’iy nazar jamiyatni barcha a’zolarini qamrab olgan sport turlari majmuidir;

Ommaviy sportga “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonunida berilgan ta’rifga ko’ra: “ommaviy sport — sportning tashkil etilgan va (yoki) mustaqil mashg’ulotlar, shuningdek ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o’tkazish orqali aholini jismoniy tarbiyalash, sog’lomlashtirish, kamol toptirish hamda jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlariga jalb etishga doir qismi;”[2]dir.

2) *Professional sportni o’zini a) professional-havaskor va b) tijoratlashtirilgan-professional sportga ajratish mumkin*.

Agar, *professional-havaskor sportga* maxsus tayyorgarlik ko’rgan sportchilar ishtirokidagi halqlar o’rtasidagi do’stlikni ta’minlash, halqaro munosabatlarni yanada yaxshilash hamda jahon hamjamiyatini o’zaro birlashtirishga hizmat qiladigan sport musobaqalarini kiritish mumkin;

*Tijoratlashirilgan sportga* moddiy mansaftni ko’zlab, *professional sportchilar o’rtasida o’tkaziladigan sport musobaqalarini kiritish mumkin*. Tijoratlashgan sport bu sportchining kasb faoliyati hisoblanadi;

*Professional sportga* O’zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport” to’g’risidagi Qonunida aytilishicha: “*professional sport — sportning sport musobaqalarini tashkil etish va o’tkazishga doir qismi bo’lib, sportchilar ularda o’zining asosiy faoliyati sifatida ishtirok etganligi va ularga tayyorgarlik ko’rganligi uchun mukosot va (yoki) ish haqi oladi*;[2]”

3) *“Havaskorlik sporti* — sportning aholini ixtiyorilik asosida ommaviy sportga jalb qilish orqali odamlar sog’lig’ini mustahkamlashga qaratilgan qismi:[2]”



“Jismoniylar tarbiya va sport” haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida sportga quyidagicha ta’rif berilgan: “Sport — odamlarning muayyan qoidalar bo‘yicha tashkil etilgan, ularning jismoniylar va intellektual qobiliyatini taqqlashdan iborat bo‘lgan havaskorlik asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlari;[2]”dir.

#### “SPORT” TUSHUNCHASINING ETIMOLOGIK KELIB CHIQISHI

##### IK kelib chiqishi tanisi:

- Qadimgi fransuz va ingliz tilida “de sport” so‘zidan kelib chiqgan
- “yin-qaroq” qur’oqida, o‘ynaq oqkiy zavqlanmoq, mazza qilmoq” degen ma’nolarni englatiradi,

##### Zamonaviy ma’nosasi:

- “sport” qur’oqida “sport”
- “sport” qur’oqida “sport”
- “sport” qur’oqida “sport”

Umuman olganda, sport – betakror, o‘ziga nos hodisa bo‘lib, unga ijtimoiy institut sisatida qaraladi. “Sport” so‘zining etimologik kelib chiqishi qadimgi fransuz va ingliz tillarining chatishmasiga borib taqalib, u “*de sport*” ya’ni, “o‘yin qaroqlik, o‘ynamoq, zavqlanmoq, mazza qilmoq” degan ma’nolarni beradi.

Albatta, sport haqida berilgan bunday ta’rif hozirda o‘zining amaliy ahamiyatni birmuncha yo‘qotgan va sport so‘zi bugungi kunda yuqorida ta’riflaganimiz kabi – yuqori natija ko‘rsatish manbai sisatida bo‘lib qolmoqda. Garchi, muxlislar uchun sport hali ham o‘yindan zavqlanish obyekti sisatida qolmoqda.

### **3.2. Sport sotsiologiyasi fanining vujudga kelishi tarixi, rivojlanishi va bugungi kundagi rivoji**

Sport sotsiologiyasi haqidagi ilk ilmiy qarashlar 1920 yillarda birinchi Yevropada, keyinchalik esa shimaliy Amerikada paydo bo'lgan bo'lsada, lekin 1960 yillarga qadar u rivojlanmagan. Bunga bir qancha sabablar bo'lib, ularidan biri bu – ikkinchi jahon urushi hisoblanadi.

Sport sotsiologiyasi fanining mustaqil fan sifatida shakllanib, oyoqqa turishida YUNESKO qoshidagi “Halqaro sport sotsiologiyasi” (*(International Committee for the Sociology of Sport (ICSS))*) qo'mitasining o'rni katta. Bu qo'mita 1965 yilda jismoniy madaniyat va sportni alohida ilmiy tadqiqot sifatida o'rganadigan sohalarni (shu jumladan sport sotsiologiyasini) o'z ichiga qamrab oldi. Aynan shu hodisa sport sotsiologiyasini nafsatqat umumiyligi sotsiologiya ichidagi alohida bir tarmoq, balki endilikda alohida olingan, mustaqil fan sifatida rivojlanishiga sabab bo'lgan. Keyinchalik mazkur qo'mita “Xalqaro sotsiologiya assosiatsiyasi”ning rasmiy tadqiqot va izlanishlar olib boriladigan qo'mitasiga aylandi. Hozirgi kunda ushbu qo'mita a'zolari 40 dan ortiq davlat olimlaridan iboratdir.

1966-yildan buyon Xalqaro sport sotsiologiyasi qo'mitasi sport sotsiologiyasi bo'yicha xalqaro seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar o'tkazib kelmoqda. 1966-yildan boshlab Sport sotsiologiyasining “International Reviev of Sport Sociology” nomli xalqaro jurnali har yili nashr etilib kelinmoqda. 1978-yildan buyon esa Shimoliy Amerika Sport Sotsiologiyasi Jamiyati “Reviev of Sport and Leisure” jurnalini nashr ettirib kelmoqda.

O'tgan sal kam oltmis yil davomida bir qancha sport sotsiologiyasiga doir ilmiy qarashlar va nazariyalari ishlab chiqildi hamda ular turli sport turlariga tatbiq etildi. Hozirgi vaqtida sport sotsiologiyasiga doir Evropa va Shimoliy Amerikada yozilgan ko'plab ilmiy asarlar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar va ma'lumotnomalar inavjud.

So'nggi paytlarda Janubiy Amerika va Afrikada sport sotsiologiyasi sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Sport sotsiologiyasiga fan sifatida ilmiy yondashuv va nazariyalari yuqridda aytilgani kabi XX asrning 50-60 yillaridan boshlangan bo'lsada,

lekin sportning jamiyatdagi amaliy ahamiyati tobora ortib borayotganiga e'tibor qaratishlar XIX asrdan boshlangan (garchi, qadimgi davr, antik davr va o'rta asrlar mutasakkirlarining jismoniy tarbiya, badan tarbiyasi haqidagi qarashlari allaqachon mavjud bo'lib bo'lgan edi). Sportning ijtimoiy mavqe tobora ortib borayotganligi haqida XIX asr olimlaridan G.Spenser, G. Zimmel, M.Veber, M.Shiler, F.Znaneskiy, Djon Lokk, Jan Jak Russo kabi olimlar o'z fikrlarini bildirishgan.

Masalan, *ingliz olimi, faylasuf Djon Lokk (1632 – 1704)* insoniyat taraqqiyotida jismoniy tarbiyaning o'rnini birinchi o'ringa qo'ygan. D.Lokk jismoniy tarbiya orqali sog'lom ruh va sog'lom aqlga erishish mumkin (boshqacha aytganda, sog' tanda – sog'lom aql), deb hisoblaydi. Uning skiricha bu narsa insonga komillikka erishishida yordam beradi.

D.Lokk tarbiyaning talabchanlik bilan olib borish tarafidori bo'lgan, u tanani doimo chiniqtirib borish va donolik bilan tarbiya qilish tarafidori bo'lgan. U yengil, tabiiy matodan bo'lgan qulay kiyim kiyishni, sog'lom ovqatlanishni, toza havo va quyosha chiniqishni, jismoniy mashqlarni almashtirib-almashtirib shug'ullanishni tавсиya qilgan. Lokk suzish, qilichbozlik, ot minish, eshkak eshish va qayiqda suzishga, sayr qilishga katta e'tibor bergen. U har qanday djentelmen (er kishi) doimo qo'liga quroq olib o'z Vatanini himoya qilishga qodir bo'lmog'i lozim, er yigitlarni shunday tarbiyalash tarafidori bo'lgan. Lokk iroda, axloq va qat'iy harakterga erishish – tarbiyaning muhim vazifasi sisatida bo'lmog'i lozim, deydi. Afsuski, Lokk oddiy xalqning farzandlari tarbiya tizimiga befarqlik bilan qaragan. U oddiy xalqning bolalari to'yib ovqatlanmog'i, o'z vaqtida ibodatini qilib cherkovga bormog'i va ish beruvchiga ishlamog'i lozim, deydi. D.Lokk tomonidan ishchi-dehqonlar farzandalarining na jismoniy va na ruhiy tarbiyasi haqida umuman fikr bildirmagan[36].

Djon Lokk ta'limning asosiy maqsadi bu – o'z ishimi aqli va ehtiyojkorlik bilan olib borishni biladigan djentelmanni, odob-axloqi yuksak darajada bo'lgan, ish bilarmon shaxsni tarbiyalashdir. Lokk ta'lim-tarbiyasining oliy maqsadi bu – sog'lom tanada sog'lom aqlga erishishdir. D.Lokk o'zining ta'lim-tarbiyaga doir qarashlarini 1693 yili yozgan "Мысли о воспитании" (Tarbiya haqidagi fikrlar) asarida chuqur bayon elgan.

*Jan Jak Russo (1712–1778) fransuz olimi, ma'rifatparvarlik asrining asoschilaridan biri, pedagog olim.* Russo ta'lim-tarbiya tizimini tabaqalarga ajratilishiga, feodalizmning ta'limda mavjud bo'lishiga qarshi turgan olim hisoblanadi. U teng huquqli mehnatkash-tadbirkorlardan iborat bo'lgan jamiyat tuzimini orzu qilgan. Jamiyatning har bir a'zosi, hoh u kosb bo'lsin. hoh u ishchi-dehqon bo'lsin o'z me'nati mahsuli evaziga yashashi va o'z tanlovida, qiziqishlarida erkin bo'lmosg'i lozim, deb hisoblaydi Russo.

Russo o'z ilmiy asralarida ta'lim-tarbiya va undagi jismoniy tarbiyaning o'rni haqida gapirar ekan, u tanani doimo chiniqtirib borish, sezgi organlarining ishlash faoliyatini yanada yaxshilash, inson tanasining jismoniy harakatlarini yuqori darajaga olib chiqish uchun ularni ko'nikni va malaka darajasiga yetkazish lozim, deydi. Olim murakkab bo'limgan. tabiiy ko'rinishdagi gimnastika bilan shug'ullanib borishni tavsiya qiladi. Russo bolalar tarbiyasida aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishi uchun ta'lim-tarbiyani emin-tekin, barchaga teng, tushunarli va bepul bo'lgan ta'lim tizimning asoschisi edi. Bola tanasini chiniqtirish, uni mustahkamlash, jismoniy malaka va ko'nikmani shakllantirish kabi jarayonlarning barchasi o'yin tariqasida, salqin suvda suzish va harakatli mashqlarni bajarish orqali amalga oshishi kerak, deya ta'kidlaydi olim. Tarbiya tizimiga doir takliflarida u, tabiiy olamdagи bolaning jismoniy harakatlari o'mini e'tirof etadi. Masalan, daraxtga chiqish, toshdan-toshga sakrash, devor oshib o'tish, turli og'irlikdagi buyumlarni ko'tarish, og'ir buyumlarni joyidan siljitishtga harakatlar qilish, suzish kabi o'yin tariqaisdagi jismoniy harakatlar bular – tabiiy jismoniy harakatlar toifasiga kiradi. Bunday harakatlarni bola uzoq muddat zerikmasdan bajarishi uchun, uni bunga qiziqtirish, turli-xil musobaqalarni tashkil qilish kerak, deydi Russo.

Russo o'z ilmiy izlanishlarida ayollar ta'lim-tarbiyasi haqida ham qimmatli fikrlar bildirib o'tgan. U ayollarning jismoniy tarbiyasi haqidagi mulohazalarida, ularga mashq qildirmaslikni, aksincha, ayollarga yengil, nozik va nafislik bilan bajariladigan jismoniy harakatlarni bajarishni tavsiya qilgan. Chunki erkak va ayol turlichcha vazifalarni bajaradi, shuning uchun ham erkak va ayol ta'lim-tarbiyasida ham farq bo'lishi lozim, deydi. Russo ta'lim-tarbiya haqidagi o'zining ilmiy mulohazalarini "Emil yoki tarbiya to'g'risida" asarida chuqqur izohlab o'tgan[40].

Russoning pedagogik qarashlari: bolaga chuqur mehr-muhabbat bilan, uning har tomonlama kamol topishi uchun g'amxo'rlik qilish kabi qarashlari insonparvarlik va demokratiya g'oyalari chambarchas singib ketgan.

Bunday tarbiya bola bir tomondan, amalda foydali bo'ladigan ko'nikmalar bilan qurollantirishi, ikkinchi tomondan, unda axloqiy fazilatlarni ham shakllantirishiga qarailgan bo'lishi kerak.

Bizga qo'shni bo'lgan davlatlardan Rossiyada sport sotsiologiyasiga doir ilmiy izlanishlari bilan V.A. Artemov, T.I. Kukushkin, V.I. Joldak, N.V. Korotayeva, O. Milshteyn, I.V. Vishnevskiy, N.A. Ponamorev, V.I. Morozov, V.I. Stolyarov, L.I. Lubisheva va boshqalar mashhurdirlar.

Yurtimizda sport sotsiologiyasiga bilan N.N.Nazarov, A.N. Shopo'latov, O. Ochilov, F. Yakubov, X.F. Akramov, N. Adbikadirova va boshqalar o'z izlanishlarini olib bormoqdalar.

N.N. Nazarov, A. Shopo'latov, O. Ochilov, F. Yakubovlar yurtimizda birinchilar qatorida Sport sotsiologiyasi bilan shug'ullangan olimlar hisoblanishadilar. A.Shopo'latovning "Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimi mexanizmlarini takomillashtirish" doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan ilmiy ishi. F.Yakubovning "Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan ilmiy ishi ahamiyatga molikdir.

Shunday bolsada, N.N. Nazarov, A. Shopo'latov, O. Ochilov, F. Yakubov tomonidan 2019 yilda yaratilgan ilmiy adabiyotlar mazmun jihatdan qisman eskirgan va sport sotsiologiyasi sohasida 2019-yilgacha bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. N.Adbikadirova tomonidan yaratilgan "Социология физической культуры и спорта" nomli o'quv qo'llanma 2022-yilda nashr etilgan bo'sada 5230200 – Menedjment yo'nalishi talabalari uchun yaratilgan adabiyot hisoblanadi.

Yuqorida nomlari tilga olingan ilmiy adabiyotlar Sport sotsiologiyasi fani yuzasidan yaratilgan bo'lishiha qaramasdan, ular ko'proq spetsifik jihatdan yoshlarning ijtimoiy-demografik masalasiga, yoshlar submadaniyatiga, jismoniy tarbiya va sportda harakat mavzusiga, jismoniy tarbiya va sport konsepsiyasiga bag'ishlangan.

Chet el mualliflari tomonidan yaratgan ilmiy darslik va o'quv qo'llanmalar esa Rossiya, Ukraina va Belorus mentalitetidan kelib chiqib bayon eilgan va sportning siyosiy masalalarini o'z qonunchiliklaridan kelib chiqib baholaganlar.

N.R. Yusupova tomonidan yaratilgan Sport sotsiologiyasi o'quv qo'llanmasida O'zbekiston davlatidagi sport sohasida bo'lgan siyosiy, ilmiy, ijtimoiy o'zgarishlar va yutuqlar yoritilgan. Sportning ijtimoiytarixiy, milliy mentalitetimizga doir jihatlari, Sharq allomalarining jismoniy tarbiyaga oid qarashlari batasgil yoritib berilgan. O'zbek Olimpiada ishtirokchilari va ularning jamiyatdagi o'rni o'rganib chiqilgan, sotsiologiya asoschi Ogyust Kontning pozitiv qarashlari, jamiyatga nisbatan bo'lgan qarashlari, Jan Jak Russo, Djon Lokkning sport va u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy qarashlari muallif N.R. Yusupova nuqtai-nazaridan yoritilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada sport bilan bog'liq ijtimoiy muammolar. Doping masalasi, sportchi karyerasi masalasi, ayollar sportida karyera masalasi, shaxs ijtimoiylashuvida sportning tutgan o'rni, sportchining hulqidagi deviant se'l-atvor masalalari yoritib beriliganligi bilan ahamiyatlidir.

*Bugungi kundagi sport sotsiologiyasiga doir asosiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari:*

1. Kanada:
  - University of Waterloo in Canada (Kanadadagi Vaterloo universiteti);
  - University of Toronto (Toronto universiteti);
2. Shimoliy Amerikada:
  - Boston Northeastern University (Boston Shimoliy-Sharqiy Universiteti);
  - University of Illinois (Illinoya Universiteti);
3. Yevropada:
  - Leicyester University i Loughborough University, Angliya (Lester universiteti, Angliya);
  - University of Jyväskylä, Finlyandiya (Jyväskylä universiteti, Finlyandiya);
4. Yaponiyada:

➤ Tsukuba University(Tsukuba universiteti);

5. Yangi Zelandiya:

➤ University of Otago (Otago universiteti);

*Hozirgi kunda sport sotsiologiyasiga doir 4 ta ilmiy-amaliy jurnallar faoliyat olib hornoqda va ilmiy maqolalalarni nashr etilmoqda:*

1. International Review for the Sociology of Sport (IRSS), *Sport «Sotsiologiyasining xalqaro sharhi»;*

2. Sociology of Sport Journal (SSJ). «*Sport sotsiologiyasi jurnalı»;*

3. Journal of Sport and Social Issues (JSSI) «*Sport va ijtimoiy savollar»;*

4. Culture, Sport, Society Leisure Studies, «*Madaniyat, sport, bo'sh vaqt sotsiologiyasi tadqiqot jurnalı»;*

5. Japanese Journal of Sociology of Sport, «*Sport sotsiologiyasidan Yapon jurnalı»;*

### **3.3. Sport sotsiologiyasi fani tushunchasi, o'rganilish obyekti va predmeti. Sport sotsiologiyasining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi**



“Sport sotsiologiyasi”ning fan sisatida shakllanishiga sabab, bir tomondan “sotsiologiya” fanining yanada taraqqiy etishi va uning jamiyat hayotidagi bo’layotgan yangi o’zgarishlariga, paydo bo’lgan yangi sohalarga

(masalan, sport sohasiga) nisbatan bo’lgan ilmiy yondashuvi bo’lsa, ikkinchi tomondan, jismoniy tarbiya va sportning odamlar hayotiga bo’lgan ijtimoiy ta’sirini tadqiq etish bo’ldi. O’tgan asrning boshlarida umumiy sotsiologiya jamiyatdagi turli sohalarni alohida tarmoq sisatida o’rganishni boshladi. Shular ichida u (sotsiologiya) jismoniy tarbiya va sportni ham alohida soha sisatida tadqiq qilar ekan, vaqt o’tib bu tarmoqning o’zi mustaqil “Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi” bo’lib ajralib chiqdi. “Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi” (keyingi o’rinlarda “sport sotsiologiyasi” deb yuritiladi) fani boshqa barcha ilmiy fanlarga quyilgan talablarga javob beradi. Sport sotsiologiyasi fani ham o’z maqsad va vazifalariga, o’z tadqiqot obyektiga, predmetiga, metodologiyasiga, o’z

qonuniyatlariga, strukturasi (ilmiy tuzilishi)ga, funksiyalariga va o'z tadqiqot metodlariga ega.

*Sport sotsiologiyasi fani* – sportni, uning tuzilishini, uning faoliyat yuritishi va rivojlanishi tendensiyasini hamda uning yutuqlarni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadigan alohida mustaqil fandir.

*Sport sotsiologiyasi fani* – sportning jamiyat va kishilar hayotida tutgan o'rnini, uning tarixini, strukturasini, ijtimoiy hayotga bo'lgan ijobiy ta'sirini, uning nufuzli bo'lib borishi yoki nufuzining tushishi sabablarini. alohida ayrim sport turlarining mavqe doimo ko'tarilib boshqa ayrim sport turlari esa kam e'tiborda qolib ketayotganligini, ayollar sportining ahvoli, bolalar sportining ahvoli, sportga mentalitetning ta'sirini, sport tijorat va daromad manbaiga aylanib borayotganligini, sportdag'i muammolarni. sportdag'i korrupsiya masalasini, doping muammosini, sportda diskriminatsiya, millatchilik, irqchilik, sportda gender muammosini, professional sport bilan havaskor sportning farqini, ommaviy sportni va qolaversa sport va jismoniy tarbiyaning kishi sog'lom turmush tarziga qo'shgan hissasini va shu kabi boshqa ko'plab masalalarni o'rganadi va tadqiq etadi.

*Sport sotsiologiyasining maqsadlari bir qancha bo'lib, ularga:*

- Sportning inson va ijtimoiy hayotdagi o'rnini, vazifalari va ahamiyatini;
  - Ijtimoiy olaming turli qatlamlarida sportning mavjudligi va ommalashishi;
  - Zamonaviy sportning ijtimoiylashuvini;
  - Sportga, uning ishtirokchilariga, tashkilotchilariga va hattoki, muxlislariga hokimiyatning qay darajada ta'siri bor-yo'qligini, qandaydir cheklovlar bor-yo'qligini, yoki qanday shart-sharoitlar yaratilganini o'rganish;
  - Ijtimoiy o'zgarishlarga qarab sportning o'zining qay darajada va qanday o'zgarib borishini;
  - Umumiyligi sotsiologiyaning yanada ko'p qirrali bo'lib borishida sportning ko'magi qay darajada ekanligini o'rganish kabilar kiradi.
- Sport sotsiologiyasining bir qancha kategoriyalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:*

- ✓ somatik (jismoniy) madaniyat, bu – ijtimoiylashuv jarayonida ishtirok etadigan tabiiy inson tanasi;
- ✓ jisomniy faoliyat, bu – inson jismoniy harakatining ayrim shakkari;
- ✓ sport bu – musobaqalarning o'ziga xos alohida turi, ularga tayyorgarlik va boshqalar;

*Sport sotsiologiyasining obyekti sifatida:* jismoniy tarbiya va sportning jamiyatda tutgan o'rnnini va uning ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatish mumkin;

*Sport sotsiologiyasining predmeti sifatida:* jismoniy madaniyat va sport sohasida yuz berayotgan har qanday ijtimoiy jarayonlarni (sportning ijtimoiy olam bilan munosabatlarini, spotning o'zaro bir-biri bilan aloqadorligini, strukturasini, sportchilararo munosabatlarni va umuman jismoniy madaniyat va sportning kishilar hayotida tutgan o'rnnini) o'rganish kiradi;

#### *Sport sotsiologiyasi fanining metodlari va vositalari:*

- Aniq sotsiologik tadqiqotlar olib borish metodlari;
- Fundamental sotsiologiyasining nazariy metodlari;

#### *Sport sotsiologiyasi fanining funksiyalari:*

- Nazariy-kognitiv (aqliy) funksiyalar;
- Dunyoqarash funksiyasi;
- Tashkil qilish va boshqarish funksiyasi;
- Jamoatchilik bilan aloqalarn olib borish funksiyasi;
- Ma'naviy-ma'rifiy yoki g'oyaviy-tarbiyaviy funksiyasi;

#### *Sport sotsiologiyasining boshqa fanlar tizimidagi o'rni va vazifalari:*

1. Jismoniy tarbiya va sportning sotsiologiya fani negizidagi o'rni (JTvaSning nazariy sotsiologiyadagi, empirik sotsiologiyadagi o'rni);
2. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy fanlar negizidagi o'rni (falsafa, madaniyatshunoslik, etika, siyosatshunoslik, iqtisod, huquq va h.zo);
3. Jismoniy tarbiya va sportning sport mutaxassislik fanlari negizidagi o'rni (shaxs jismoniy rivoji va h.zo);

#### *Sport sotsiologiyasining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi:*

Sport sotsiologiyasi ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u madaniyat sotsiologiyasi, bo'sh vaqt sotsiologiyasi, falsafa, psixologiya, etika, estetika, pedagogika, tibbiyot, bioximiya, biomexanika, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti, jismoniy tarbiya va sport tarixi kabi fanlar bilan to'qnashadi. Sport sotsiologiyasi fan sisatida shakllanganiga ko'p bo'lmagan bo'lsada, uning bu fanlar bilan aloqasi uzviyidir. Sotsiologiya sport sotsiologiyasining nazariy qismini hal qilsa, sport bilan bog'liq fanlar sport sotsiologiyasining amaliy qismini hal qiladi. Jumladan, sport sotsiologiyasining etika bilan bog'liqligini - aqliy jarayonlarda (idrok, fikrlash, xotira, his-tuyg'ular) nutqqa, fazilatlarga va shaxs xususiyatlariga ta'sirida ko'rishimiz mumkin. Sport sotsiologiyasining estetika bilan bog'liqligini esa ranglar, harakat shakllaridan estetik zavq olishida ko'rishimiz mumkin.

"Bioximiya tomonidan jismoniy mashqlar bajarilish ta'sirida kishi organizmida, jumladan, muskullarda bo'ladigan ximiyaviy jarayonlarni o'rGANISH natijasida olgan ma'lumotlar mashg'ulotlarni o'tkazishda uning metodikasini takomillashtirishga yordam beradi. Tabiiy fanlar asosida erishilgan yangiliklar jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy mashqlarga o'rgatishning vosita va usullarini tanlash uchun, mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi. Jismoniy madaniyat nazariyasi pedagogik ta'limalar tizimi tarkibiga kiradi psixiologiya, pedagogika, sportning – gimnastika, yengil atleka, sport o'yinlari, suzish va boshqalar kabi ayrim turlari jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bilan chambarchas bog'langan, jismoniy mashqlarga o'rgatishning usullariga tayanadi. Harakatga o'rgatish masalalarini ishlab chiqishda jismoniy tarbiya nazariyasi o'rgatishning umumiy didaktik, tamoyillari va metodlariga, aqliy, axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa tarbiyalar metodlariga tayanadi"[13].

*Sport sotsiologiyasi boshqa fanlar bilan o'z aloqasini o'rnatar ekan, u quyidagi vazifalarini amalga oshirmoqda:*

- ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish va rivojlantirishni yo'lga qo'yish;
- sport, sport faoliyatining ijtimoiy muammolarini hal qilish;

➤ jismoniy tarbiya va sport saliyatini (bu yerda havaskor va ommaviy sport ham nazarda tutilgan) aholi turmush tarziga singdirish;

### 3.4. Sport bilan bog'liq olib borilayotgan davlat siyosati hamda qabul qilingan hujjatlarning o'rni

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasiga bo'lgan e'tibor katta bo'lib, ushbu soha davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Hukumatimiz tomonidan sportga doir qabul qilingan hujjatlarda sport yanada rivojlantirish, yoshlarning sport bilan qamrovlik darajasini yanda ko'paytirish, mahallalarda sport maydonlarini sonini oshirish, velosiped yo'laklarini yaratish, yoshlarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish uchun mahallarlarda sport bilan bog'liq tadbirlar sonini oshirish, Olimpiada va Parolimpiadada qatnashadigan sportchilarimiz sonini va litsenziyalar sonini oshirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"ning 67, 68 maqsadlari aynan jismoniy tarbiya va sport sohasining rivoji va targ'iboti masalalariga bag'ishlangan:

"67-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.

➤ Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish.

➤ Respublika yoshlari o'rtaida milliy sport turlarini ommalashtirish.

➤ O'zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish.

➤ Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog'lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish.

➤ Barpo etiladigan har bir «Yashil hudud»da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun «Salomatlik yo'laklari» hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish"[4].

➤ "Vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini va aholini sport tadbirlariga jalb qilish, ular o'rtaida musobaqalar tashkil qilish.

➤ Milliy olimpiada sport o'yinlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.



- Sport o'yinlari o'tkaziladigan sport obyektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash.
- Milliy olimpiada o'yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g'olib va sovrindorlarni munosib rag'batlantirish.
- Milliy olimpiada o'yinlariga tayyorgarlik ishlarining borishini ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritilishini tashkil etish.
- O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko'rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli murabbiylarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022 yilda 62 foizga, 2026 yilda 85 foizga oshirish.
- O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallari bitiruvchilarini sport ta'limi muassasalariga jalb etish"[4].
- “68-maqсад: Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish”
  - Yozgi paralimpiya sport turlarini rivojlantirish. Bunda: paralimpiya sportchilari orasida sog'lom turmush tarzini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish. Xususan, mazkur tashabbusni xalqimizning imkoniyati cheklangan vakillari qatlamida targ'ib qilish;
  - Olimpiya o'yinlariga kiritilgan jamoaviy (futbol, gandbol, basketbol, voleybol, regbi, chim ustida xokkey, badminton, suv sporti turlari) va boshqa sport turlarini rivojlantirish.
  - Jamoaviy va boshqa sport turlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlash.
  - paralimpiya sport turlari ro'yxatiga kiritilgan sport turlarini sport ta'lim muassasalarida tashkil etish orqali Parij-2024 Paralimpiya o'yinlariga 100 dan ortiq lisenziyalarni qo'lga kiritish.
  - Yoshlarni sportga jalb etish va ularni qamrab olish.
  - 2026 yilga qadar qishki va ekstremal sport turlari, shu jumladan tog'-chang'i sportini rivojlantirish maqsadida eng ilg'or va innovasion texnologiyalarni jalb qilgan holda salohiyatli hududlarda zarur infratuzilmani yaratish.

➤ Mavjud salohiyat va imkoniyatdan kelib chiqib, hududlarni qishki Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga sportchilarni tayyorlash bo'yicha ixtisoslashtirish.

➤ Qishki sport turlariga ixtisoslashtirilgan hududlarda tegishli sport turlarini rivojlantirish, milliy jamoa a'zolarini shakllantirish va 2023 yildan boshlab, xalqaro musobaqalarda ularning ishtirokini ta'minlash.

➤ Qishki sport turlarini rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, 2026 yildagi qishki Olimpiya o'yinlariga kamida 10 ta lisenziyani qo'lga kiritish"[4].

*"O'zbekiston — 2030" Strategiyasida ham 100 maqsad davlatimiz oldiga qo'yilgan bo'lib, ulardan 34, 35, 36, 37-chi maqsadlar jismoniy tarbiya va sport sohasiga bag'ishlangan.*



*"34-maqsad. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish:*

➤ Ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish.

➤ Sport bilan shug'ullanishga jalb qilingan aholi ulushini 36 foizga yetkazish.

➤ Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishi uchun kamida 5 mingta mahallada sport maydonchalarini barpo etish.

*35-maqsad. Respublikada sport bilan professional va doimiy shug'ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish:*

➤ Sport-ta'lim muassasalarida muntazam shug'ullanuvchi yoshlar sonini 1 million nafarga yetkazish.

➤ 130 ming nafarga yaqin yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullanishiga imkoniyat yaratish.

*36-maqsad. Milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish:*

➤ 2030 yil Dohada (Qatar) bo'lib o'tadigan navbatdagi Osiyo o'yinlarida O'zbekiston sportchilarining umumiy jamoa hisobida kuchli TOP-5 talik davlatlar qatoriga kirishiga erishish.

➤ Razryadli va unvonli sportchilar sonini 25 ming nafarga yetkazish.

➤ Sport sohasida oliy ma'lumotli xodimlar ulushini 85 foizga yetkazish.

➤ Sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot va izlanishlar sonini 140 taga yetkazish.

*37-maqсад. Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish.*

➤ Olimpiya va paralimpiya o'yinlarida kuchli 15 ta mamlakat qatoridan o'rın egallashga erishish"[5]ga doir munosabatlar davlatimiz siyosati tomonidan inobatga olinmoqda.

"Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[3]gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 414 sonli qarorida ham jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Jumladan, mazkur qarorda:

➤ Sport sohasi bilan bog'liq bo'lgan OTM talabalarini chet eldag'i nufuzli OTMlariiga tahsil olishga yuvorish;

➤ O'quv mashg'ulotlariga malakali sport trenerlarini mahorat darslarini olib borishga jalb qilish;

➤ Iqtidorli talabalarning bitiruv oldi amaliyotini o'z sohasi bo'yicha milliy terma jamoalarning mashq qilish jarayoniga va chet elda o'tadigan musobaqalarga jalb qilish;

➤ Menejment yo'nalishi bitiruvchilarining bitiruv oldi amaliyotida, o'z amaliyotlarini yoshlarni sportga jalb qilish maqsadida o'zları yashab turgan hududlaridagi mahallalarga sport tadbirlarini o'tkazish uchun yuvorish;

➤ Iqtidorli talabalarga "Pahlavon Mahmud stependiyasi"ni joriy qilinishi;

➤ O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti va uning filiallariga bakalavr va magistratura yo'nalishlariga o'qishga qabul qilishda abiturentlar "kamida ikkinchi sport razryadiga ega bo'lgan, «Sport turining alohida yo'nalishlari» magistratura mutaxassisligiga esa kamida O'zbekiston sport ustaligiga yoki O'zbekiston grossmeysterligiga nomzod sport razryadiga ega bo'lgan abituriyentlar qabul qilish"[3];

➤ "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi faxriy unvoniga ega bo'lgan sportchilar; Xalqaro toifadagi O'zbekiston sport ustasi yoki xalqaro grossmeyster sport unvoniga ega bo'lgan sportchilar; O'zbekiston sport ustasi yoki O'zbekiston grossmeysterleri sport unvoniga ega bo'lgan sportchilar"[3] ijodiy imtihonda ozod etilishi;

➤ Kutibxona bazasini yangilash, darsliklar sonini oshirish;

➤ Universitetni 2030 yilgacha top-1000 talikka kiritish;

Oliy sport mahorati instituti hamda Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti tashkil etilishi kabi va boshqa ko'plab maslalar ko'rib chiqilgangi, ularning barchasi jismoniy tarbiya va sport ravnraqi uchun xizmat qiladi. Talabalarni rag'batlantirish va aynan sport yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun Pahlavon Mahmud stipendiyasining tashkil qilinishi, menejment yo'nalishidagi bitiruvchi talabalarning amaliyoti o'z mahallalarigajalb qilinishi, to'g'ridan-to'g'ri sport bilan bog'liq bo'limgan yoshlarni ommaviy sportga jalb qilish uchun bo'layotgan harkatlar bunga misol bo'ladi.

Shuningdek, sport sohasi bilan bog'liq bo'lgan Oliy sport mahorati instituti hamda Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti[3] ochilishi ham yurtimizda sportga bo'lgan jiddiy e'tibordan dalolat beradi. Aholi turmush arajasini yaxshilash, ularning sog'lig'i haqida qayg'urish, yoshlarni bo'sh vaqtini samarali o'tkazish va sport sohasidagi mutaxassislarning kompetensiyasini yanada ko'tarishga bo'layotgan chora-tadbirlar o'z samarsini berib bormoqda. Olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida sportchi hamyurtlarimiz tomonidan turli Xalqaro bellashuvlarda, Olimpiada o'yinlari va jahon birinchiligi musobaqalarida yuksak natijalarga erishayotgani, Respublikamizning sport salohiyati yanada oshayotgani shahar va qishloqlarda zamonaviy sport inshootlari barpo etilayotgani, o'quvchi va yoshlar o'rtaida turli musobaqalar o'tkzilishi ommalashib borilayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

**Xulosa.** Sport sotsiologiyasining san sisatida vujudga kelishi sportning ijtimoiy xususiyatini yanada oshirmoqda. Natijada, sportga nafaqat jismoniy harakatlar yig'indisi, balki unga nisbatan ijtimoiy, siyosiy, ilmiy-nazariy yondashuvlar nuqtai-nazaridan qaralmoqda. Sport sotsiologiyasining yosh san bo'lishiga qaramay jadal rivojlanishi zamon talabiga aylanib bormoqda. Mazkur san Yevropada shakllangan bo'lsada, bugungi kunga kelib bu san Yaponiya, Shimoliy Amerika, Finlyandiya, Yangi Zellandiya, Rossiya, Belarussiya, O'zbekiston davlatlarida ham taraqqiy etmoqda. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportiga oid sotsiologik bilimlarning ahamiyati kundan-kun ortib bormoqda, bu esa jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy hayotdagi roli va ta'siri ortib borayotganidan dalolat beradi.

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ilmiy adabiyotlarda jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat qanday izohlangan?
2. Jismoniy harakatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Badan tarbiysi va jismoniy tarbiya deganda nima tushunasiz?
4. Jismoniy madaniyat va sport tushunchalarining nisbati qanday?
5. Sportni nechchiga bo'lib o'rganish mumkin? Ommaviy sport, professional sport va havaskorlik sporti nima?
6. Professional sportni nechchiga bo'lish mumkin? Ular qanday?
7. "Jismoniy tarbiya va sport" to'g'risidagi Qonun qachon chiqqan va unda nimalar deyigan?
8. Sprot sotsiologiyasi fanining obyekti va predmeti nimadan iborat?
9. Sport sotsiologiyasi fanining maqsadi, kategriyalari nimadan iborat?
10. Sport sotsiologiyasining vazifalariga nimalar kiradi?
11. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"da jismoniy tarbiya va sportga oid nimalar deyilgan?
12. "O'zbekiston — 2030" Strategiyasida jismoniy tarbiya va sportga oid nimalar deyilgan?
13. Sport sotsiologiyasi fani qanday metod va vositalardan foydalanadi?
14. Sport sotsiologiyasi fanining funksiyalari nimadan iborat?
15. Sport sotsiologiyasi fanining kelib chiqish tarixi qanday?
16. Djon Lokkning jismoniy tarbiya haqidagi qarashalarini yoriib bering?
17. Jan Jak Russto va uning ta'lim-tarbiya haqidagi ilmiy mulohazalarini izohlab bering.
18. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

**Buyuk gumanistlar jismoniy tarbiya haqida mulohazalari (to'ldirish)**

Sharq olimlari	Maxalliy olimlari	G'arb olimlari

## **MAVZU № 4. SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI**

**Reja:**

1. Markaziy Osiyo hududida sportni rivojlanishi. An'anaviy turmush tarzida jismoniy tarbiya va sport. Jismoniy barkamollikda millat mentaliteti. Jismoniy tarbiya – xalq madaniyati elementi sifatida.

2. Milliy-madaniy xususiyat va milliy g'oyalar jismoniy madaniyatni rivojlantirish mezoni sifatida. Sport rivojida "ustoz-shogird" tizimning o'rni.

3. Jismoniy tarbiyaning tarixiy harakteri, uni jamiyat rivojining turli bosqichlaridagi o'zgarishlari. Sport milliy-madaniy rivojida xalq folklorlarining o'rni.

4. Sharq allomalari sportning milliy-madaniy xususiyati haqida.

**Kalit so'zlar:** xalq madaniyati, ustoz-shogird, usto, xalq folklori, kurash, qilichbozlik, kamonbozlik, chavondozlik, polvon, halol, "tanbeh", "dakki", "g'irrom", "Surharbaan", «Alpomish» O&V.

### **4.1. Markaziy Osiyo hududida sportni rivojlanishi.**

An'anaviy turmush tarzida jismoniy tarbiya va sport. **Jismoniy barkamollikda millat mentaliteti. Jismoniy tarbiya – xalq madaniyati elementi sifatida.**



Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlar-milliy ong, tarixiy xotira, azaliy an'analar, diniy e'tiqodlar, xalq ijodi qatorida milliy o'yinlar ham jadal ravishda tiklana boshladi. Har bir tarixiy davr o'z o'yinlarini yaratadi va bu o'yinlar o'z davri kishisini tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi. O'yinlar odamlarda yashash uchun eng zarur bo'lgan sisatlarni shakllantiribgina qolmay, balki ularni har tomonlama-ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlantirishda ham ahamiyatli bo'lgan.

Axloq ijtimoiy ong natijasi sifatida kishilik jamiyatini taribga soluvechi me'yorlar, yozilmagan va yozilmagan qonun-qoidalar tizimidir. Kishining axloq darajasi uning bu me'yorlarga qanchalik rioxal qilish yoki qilmasligini ko'rsatib beradi va bu jarayon inson stressni his qilayotgan paytida yaqqol ko'rindi. Sporchi hayotida esa bunday stress holatlari yuz berishi tabiiy hol bo'lib, ayniqsa musobaqalar davrida sportchining stressga tushish tez-

tez uchrab turadi. Ruhan va ma'nан tetik bo'lgan sportchigina bunday vaziyatlardan og'riqsiz chiqadi va o'zining axloqiy tarbiyasini yanada mustaxkamlashga harakat qiladi.

Sport sotsiologiyasini o'rganish orqali shunday fikrga kelish mumkin-ki: musobaqalarda, sportchilar o'rtaqidagi raqobat sharoitida his qilingan adrenalin sportchilarning ham, muxlislarning ham agressiya va tajavuzkorlik tuyg'usidan xalos bo'lishiga yordam beradi.

O'zi aslida agressiya tuyg'usi insonga xos bo'lgan tuyg'udir. Bu haqida ko'pgina olimlar o'z izlanishlarida ilmiy fikrlarini bildirib o'tishgan. Masalan, Z. Freyd agressiyani – jinsiy energiyaning sublimatsiyasi sisatida ifodalagan. Sh. Leturno, K. Gross, G. Spenser – hayvonot olamidan o'zlashtirilgan his-tuyg'u yoki boshqacha aytadigan bo'lsak hayvonot olamidan meros sisatida qolgan tuyg'u sisatida, boshqalar esa agressiyani insonning tug'ma tuyg'usi deb baholab, unq global ijtimoiy kataklizmlar, urushlar sabachisi deb ta'riflaydilar. Shuning uchun ham qadimda urushayotgan qabilalar o'zaro kelishmovchiliklarini jang yo'li bilan emas, balki kurash, mushtlashish, qilichbozlik va shu turdag'i musobaqa bilan hal qilishgan. Musobaqalarda g'olib bo'lgan tomon mag'lub tomondan o'lpon qabul qilgan va urush qon to'kilmasdan hal qilingan. Ayrim xalqlar orasida kelishmovchliklarni bunday yo'l bilan hal qilish XVIII asrgacha davom etib kelgan. Masalan, Markaziy Osiyoda bo'lib o'tgan turli-hil musobaqalar millatlararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin. Musobaqalar davomida urushlar, janglar va dushmanliklar to'xtatilgan.

O'sib kelayotgan avlodning jismoniy, ruhiy va axloqiy tarbiyasi haqida fikr yuritganda turli xalqarningi tarbiya tizimini va bunda jismoniy tarbiyaning o'rmini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, Tuvada 25-30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlarga spirlitlik ichimliklar ichish taqiqlangan. Buryatiyada esa 40 yoshgacha spirlitli ichimliklar ichish taqiqlangan. Islom dinini qabul qilgan xalqlar orasida spirlitli ichimliklar ichish umuman man etilgan. Yoshlar esa bo'sh vaqtlarini turli-xil musobaqalarda ishtirot etish, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, ko'ngil ochar tadbirlar uyuştirish bilan o'tkazishgan.

Markaziy Osiyo hududida yashagan ajdodlarimizdan meros qolgan juda ko'p boy manbalar mavjud. Bunday bitmas-tugamas boyliklar orasida jismoniy madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi. Jismoniy madaniyat insonlarni bolalikdan sog'lom qilib o'stirish, ularning jismoniy va madaniy kamolotini ravnaq toptirishi, sog'lom turmush kechirish, mehnat qobiliyatini oshirish, uzoq umr ko'rishga ko'maklashuvchi muayyan faoliyat sifatida qaralgan. Bunda ajdodlarimizning ov quollarini yasash, tog', daryo, cho'llarda vahshiy hayvonlarni tutish uchun kuch-quvvat, epchillik, merganlikni o'rganganlar. Bunda otda turib kamondan o'q otish, nayza sanchish, kurashish, piyoda yugurish, to'siqlardan o'tish, an'anaviy urf-odatlar, ommaviy sayllarda harakatli o'yinlarni tashkil qilish kabi murakkab mashqlarni bajaiganlar. Turli janglarda bu qurollardan mohirona foydalanganlar.

Xalq o'z udumlari va an'analarida kurash, ot o'yinlari, qilichbozlik, darboz, poyga va turli harakatli o'yinlardan foydalanganlar. Bu tadbirlar yoshlarni kuchli bo'lishi, Vatanni sevish, kasbni egallash va uddaburonlikka chorlagan. Askarlar harbiy-jismoniy tayyorgarligi milliy jismoniy tarbiya shakllari yordamida amalga oshirilgan va mamlakatni jasurona himoya qilish yo'lida ko'p asrlar davomida to'plangan tajribalar umumlashtirilgan.



O'tmishta ajdodlarimiz tomonidan kurash, qilichbozlik, kamonbozlik, chavondozlik kabi sport musobaqalari sharasiga she'rlar yozilgan, madhiyalar kuylangan, ularga atab qo'shiqlar yaratilagan va g'olib sportchilar, polvonlar madx etilgan.

Musobaqalarda o'zaro hurmat tuyg'usi yetakchi bo'lishi kerak bo'lgan. Bu bilan yoshlar tarbiyasida yuksak insonparvarlik tuyg'usi shakllantirilgan. Masalan, Markaziy Osiyoda "kurash" musobaqasini o'tkazishdan oldin sportchilar ramziy ma'noda bitta idishdan taom iste mol qilishari kerak bo'lgan. Gruziyada esa qilichbozlik (fextovaniye) musobaqalarini ayol kishi o'rtaga ro'mol tashab musobaqani kelgan joyidan to'xtata olgan.

Shuningdek, musobqadan so'ng g'olib bo'lgan polvon yutqazgan sportchiga qo'l uzatishi va uni o'rnidan turishiga yordam berishi shart hisoblangan.

Volga bo'yisi xalqlari orasida ham musobaqalardan so'ng g'olib tomon va mag'lub tomon bir dasturhondan ovqat yegan, ular bir-birlarini turli pishiriqlar bilan mehmon qilishgan. Bu hudud xalqlari orasida sport o'yinlari davomida iliq. do'stona muhit doimo hukm surgan. Yutqazgan sportchilar esa albatta biron-bir she'r, qo'shiq yoki hikoya aytib berishi shart bo'lgan. Buning ahamiyatga molik tomoni shundaki, bu yerda sport nasaqat jismoniy yetuklik va sog'lomlik belgisi sifatida, balki ma'naviy-ruhiy tarbiya, adabiyot va san'at namunalari bilan yo'g'rilib ketgan.

Avstraliyalik ayrim aborogen qabilalarda kattalaraga taqlib qilish asnosida o'g'il bolalar o'yinchoq qurollar yordamida ov ovlash o'yinini o'ynashadi. Agar o'yin paytida kimdir raqibiga o'zi sezmagan holda jiddiy zarar yetkazib qo'ysa, unda u o'z o'yinchoq qurolini shu raqibiga sovg'a qilishi kerak bo'ladi. Bu an'ana esa bolalarning kichik yoshidanoq, ehtiyyotkor bo'lishga, raqibga o'ta og'ir jarohat yetkazmaslikka, insoniylik va sahiylik tuyg'usiga ega bo'lishga o'rgatadi.

Xalq musobaqalarida do'stonalilik, o'zaro hurmat tuyg'usi, yiqilganni urmaslik, orqadan zarba bermaslik, boshga zarba bermaslik kabi qoidalar doimo muhim hisoblangan. Masalan, Moldaviya xalqida musobqalardan oldin raqiblar bir-birlari bilan qo'l beriib so'rashishgan. Shu an'anaga rioya qilmagan sportchi esa musobaqadan chetlashtirilgan.

O'zbek milliy kurashida hakamlikni tomoshabinning o'zi olib borgan. Agar kurashayotgan sportchi (polvon) o'z raqibini kuragini yerga tekkiszsa tomoshabinlar "halol" (adolatli) deb hukm chiqarishgan. Shuningdek, sportchining (polvonning) ishlatgan usullariga qarab ham "chala" (raqibni yiqitish usuli oxirigacha yetkazilmagan), "yonbosh" (raqibning saqat bir kuragi yerga tegib, ikkinchi kuragi yerga to'liq tegmagan) deb ham baho berilgan. Agarda sportchi (polvon) qoidalarga zid harakatlar qilsa unga "tanbeh", "dakki", "g'irrom" jazolari (shtrafnoy ochkolar) berilgan. Kurash sport turining axloqiy jihat shunda-ki, u insonni kuchli va epchil qilish bilan birgan, uni ruhan chidamli, irodali qilib ham tarbiyalaydi.

Qalmoq xalqlari milliy kurashida ham o'zbek milliy kurshiga yaqin qoidalarni ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga raqibning sochlardidan tortish qalmoq halqlari qoidalarida qat'iy man etiladi.

Slovaklarning mushlashuv jang san'ati ham o'z qonun-qoidalalariga ega bo'lib, unda sportchilarning tanasida jarohat yoki qon paydo bo'lganligi aniqlansa musobaqa o'sha zahoti to'htatilgan.

Azamat kazaklari (don kazaklari) Rojdestvo bayramida tantanaga kech kelgan qatanshuvchilarni jazo sisatida xalqning qarsaklari ostida qor to'la ko'chani boshidan-oxirigacha bir-necha bor yugurib o'tishlari shart bo'lgan.

Agarda azamat kazaki qoidalarni ikkinchi marta buzsa unda unga nisbatan jazo belgilanib, aybdor Rojdestvo bayramida o'tkaziladigan o'yinlardan, musobaqalardan chetlashtirilgan.

Yoqtistonnda esa raqiblarga nisbatan insoniy munosabatlarni shakllantirish maqsadida, tub aholi musobaqalar paytida shafqasizlik, g'irromlik, yolg'on va insofsizlikning oldini olishga qaratilgan taqiqlar tizimini ishlab chiqishgan.

Jamiyatning baobro', avtoritet shaxslarning, o'z vaqtida mashhur bo'lgan sportchilarning, keksa avlod vakillarining ommaviy musobaqalarda ishtirok etishi, tez-tez sport o'yinlariga qatnashib turishi yoshlarni to'g'ri yo'lda tarbiyalashga yordam beradi. Masalan, Kavkazda ommaviy musobaqalarda yuzaga keladigan barcha nizolar oqsoqollar kengashi tomonidan hal qilingan. Qoidalarni buzish, g'irromlik, insofsizlik juda qattim qoralangan va sharmandalik sanalgan. Gruziyada qilichbozlik (sextovaniya) o'yinlari paytida sportchilarning bir-biriga og'ir jarohatlar va jiddiy zarar yetkazishi taqiqlangan.

Rossiyadagi tayyoqda urshish va musht janglarini ko'rib chiqsak, ular jarohat olish xavfiyu yuqori bo'lganligi sababli bir necha marta podshohlar tomonidan taqiqlangan va yana qayta ruxsat etilgan. Shuningdek, ushbu musobaqalarda ishtirokchilar va tomoshabinlar uchun qat'iy talablar mavjud bo'lib, ularga rioya qilmaganlar musobaqadan chetlashtirilgan va jazolangan. Bu o'yinlarning o'ziga yarasha tartiblari bor bo'lib, unda, boshga urmaslik, oyoqqa urmaslik, yiqilganni urmaslik, orqadan urmaslik, qon chiqquncha urmaslik, g'azab bilan urmaslik, raqibga adovat tutmaslik kabi qoidalalar mavjud bo'lgan. Bundan tashqari mushtlashish jangida qo'lda yoki kaftning ichida qattiq buyum berkitib, raqibga zarba berish man etilgan. Bu qoidalarning hammasi raqibga nisbatan og'ir zarar

yetkazmaslikka qaratilagandir. Qoidalarni buzganlik qattiq jazolangan, qoidalarni buzgan jangchi esa nasaqat raqib tomonidan, balki o'zinikilar tomonidan ham jazolangan.

Hozirgi kunda yosh bolalarning o'zaro o'yinlarida (bolalarcha mushtlashuvlarda) yuqorida ko'rsatib o'tilgan ayrim qoidalari hozirgacha saqlanib qolining. Ular yiqilgan odamni urmaslik, mushtlashganda yoppasiga mushtashmaslik, mushtashganda yakkama-yakka jang qilish kabi qoidalarga rioya qilishadi. Bu esa bolalarda yoshlikdanoq axloqiy tamoyillar shakllanib kelayotganidan dalolat beradi.

Bolalar o'yinlarida (kattalar orasida ham uchrab turadi) turli rollarga bo'slinib o'yin o'ynash ayniqsa maroqlidir. Masalan, "qopqon", "ovchi va o'lja", "bo'ri qopqonda", "chillak", "quvslashmachoq" kabilarni sanab o'tish mumkin. Hozirgi kunda xalq harakatli o'yinlari, milliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, asrlar davomida rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelinmoqda. Ular bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishga, biror soydali mashg'ulotga jalb qilinishiga, sog'lom o'sishlariga, qat'iyatli bo'lishlariga yordam beradilar. Har bir o'yin biror soydali maqsadga yo'naltiriladi. Bola o'yin davomida har qanday holat yohud vaziyatda ham maqsadga erishishga harakat qiladi. Bu o'yinchining ichki ruhiy ehtiyoji darajasida o'sib boradi. Ehtiyojni qoniqtirish o'z navbatida qat'iyatlilik, sabr-matonat, chidamlilik, fikrlash, topqirlik, hozirjavob bo'lish singari fazilatlarni kamol toptirishni talab etadi.

Sport musobaqalari elementlari turli hil halq an'analarini bo'lmish xalq sayllari, bayramlari, to'y marosimlari bilan ham uyg'unlashib ketgan. Tuy marosimlarida kelin va kuyov tomonidan kelgan mexmonlar o'tasida musobaqalar uyuşhtirish uchrab turadi. Bunday an'analar o'z navbatida o'sib kelayotgan yosh avlodda o'z urug'iga, o'z oilasiga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirishga imkon beradi. Misol tariqasida O'rta Osiyo xalqlari to'y marosimlarida, xalq sayllarida jumladan, Navro'z bayramida, Hosil bayramlarida, kurash, poyga musobaqalari o'tkazilgan. Buryatiya xalqlari o'tasida bayram va tantanalar vaqtida otlar ustida kurash musobaqalari urs bo'lgan. Umuman olganda, nomlari tilga olingen xalqlar sportga o'ziga xos tarzda hurmat bilan qaraganlar. Masalan, buryatiyaliklar

alohida sportga bag'ishlangan bayramlar o'tkazish maqsadida "Surharbaan" (Uch o'g'lon o'yini) nomi ostida milliy kurash festivalini o'tkazishgan.

Azamat kazaklari (don kazaklari) to'y an'analarida va sayllarida o'zaro kurash, belarus xalqida milliy kurash va arqon tortish urf bo'lган. Tuvaliklar to'y an'analarida esa kelin va kuyov tomonidan kelgan mehmonlar o'rtaga qo'yilgan sovrin uchun o'zaro ot ustida musobaqalashishgan. Shimoliy Osetiya xalqlari to'y odatlarida kelin tomonidan kelgan mexmonlar kuyov tarasfdagi mezbonlarning bosh kiyimini olib qochishga uringanlar (buning ham o'z ma'nosи bor bo'lib, bosh kiyimni niyat qilish maqsadida olib qochilgan), o'z navbatida kuyov tomondagи mezbonlar (chavandozlar) bosh kiyimlarini qaytarib olish uchun poyga uyushtirganlar.

Ossuriyaliklar, armanlar va mesxeti turklari an'analarida yo'lda uchragan har qanday odam to'y marosimiini to'xtatib, kelin tomonidan kelgan polvonni kurash jangiga chaqirishi va mabodo polvon mag'lub bo'lsa, kelining otasi g'olib insonga sovg'a-salom berishi kerak edi.

Ba'zi xalqlar kelin va kuyov o'rtaida musobaqalar ham uyushtirgan. Misol uchun, Dog'istonda birinchi nikoh kechasida kelin va kuyov o'rtaida turli musobaqalar, jumladan, kurash bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan. Qadimgi Markaziy Osiyoda bu marosim uzoq tarixga ega. Qadimgi yunon muallifi Emanning guvohlik berishicha, saklar orasida kuyovlikka nomzod yigit qizni kurashda mag'lub etmasa, qiz unga turmushga chiqishi mumkin bo'limgan. Bundan tashqari, kuyov mag'lubiyatga uchragan taqdirda, u qizning quliga aylangan. Chukcha va Koryaklar orasida kuyovlikka nomzod ham xuddi shunday sinovdan o'tishgan va agar kuyov mag'lub bo'lsa, u qizdan uni o'ldirishni yoki uni o'ziga cho'pon qilib olishini so'ragan.

#### **4.2. Milliy-madaniy xususiyat va milliy g'oyalar jismoniy madaniyatni rivojlantirish mezoni sifatida. Sport rivojida "ustoz-shogird" tizimning o'rni**

O'g'il bolalarning jismoniy tarbiyasi va tayyorgarligi masalasi qadimgi davrdan, ya'ni tosh davrdan juda muhim masala bo'lib kelgan. Bolalar tarbiyasi, ayniqsa o'g'il bolalarning kelajakda qabila jangchisi, oila boshlig'i bo'lishini inobatga olinsa, ular tarbiyasi qadimgi davrda ham

muhim o'rın tutgan. O'g'il bolalar tarbiyasi eng zo'r jangchi deb nom chiqqagan, ammo sog'lig'i tufayli ov jarayonlarida yoki janglarda qatnasha olmagan erkaklarga topshirilgan. Keyinchalik bu odat tarbiya tizimidagi an'anaga aylandi va ko'zga ko'ringan, sportdagи mahorati bilan nom chiqqagan sobiq polvonlar o'zlariga shogirdlar olish tizimini yo'lga qo'yishgan. Ular o'z shogirdlariga tez yugurish usullari bo'yicha, kurash jang san'ati bo'yicha, mushtlashish jang san'ati bo'yicha, chavandozlik bo'yicha, kamondan o'q uzish, sakrash, qilichbozlik va shu kabi ov va jang san'atlaridan dars berishgan. Mashg'ulotlardan tashqari vaqtarda murabbiylar o'z tarbiyalanuvchilarining axloqiy, estetik, irodaviy fazilatlarini shakllantirish bilan ham shug'ullanganlar. Bunda murabbiy va ustozlarning o'zları ham namuna bo'lishga intilishgan.

Shuningdek, xalq o'rtasida sportning targ'ib qilinishida nasaqat o'g'il bolalarga berilgan ta'lim-tarbiyaning, balki ularga belgilangan ustoz-murabbiylarning ham o'rni katta bo'lgan. Jumladan, Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ta'lim-tarbiya tizimi haqida to'htaladigan bo'lsak, muqaddas kitob "Avesto"dagi ma'lumotlar qimmatli ahamiyatga ega.



Zardusht (erav. III asr)



Zardushtiylilikning axloqiy qoidalariga binoan insonning o'z burchini his etishining eng birinchi belgisi ma'naviy poklik hisoblangan.

maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-jismoniy mashqlarga va hunarga o'rgatilganligi, ta'limdan maqsad – bolalarni hayotga tayyorlash ekanligi haqida ma'lumot beradi. Zardusht ta'limotida 15 yosh balog'at yoshi sanalgan. Du yoshda ularga davlat qonunlari, axloqiy qoidalar o'rgatilgan. Zardushtiylilikning axloqiy qoidalariga binoan insonning o'z burchini his etishining eng birinchi belgisi ma'naviy poklik hisoblangan.

"Avesto"da insonning barkamol bo'lib etishishida ezgu sikk, ezgu so'z, ezgu amallar birligiga katta e'tibor berilgan. Qadimgi ajdodlarimiz

"Avesto" bo'yicha bolalarga 5 yoshdan savod o'rgata boshlaydilar; o'qishni o'rganishi bilan savdo ishlariga o'rgata boshlaydilar. Bu ma'lumotlar qadimda bolalar o'qitiladigan savod maktablari bo'lganligi va maktablardan tashqari bolalar

insonda juda qadrlaydigan xislatlar jasurlik, adolat, sadoqat, insoniylik bo'lgan. Bu xislatlar o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar, ibtidoiy urug'-qabilachilik turmush tarzi buni taqozo etgan. Ikkita katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtaсидаги ayovsiz kurash insondagi bu xislatlarning bevosita shakllanishiga turki bo'lgan.

Qadimgi ajdodlar ijtimoiy turmush madaniyati, ayniqsa, sihat-salomatlik, jismonan chiniqish, mehnat hamda uzoq umr ko'rib yashash uchun yaratgan ta'llim-tarbiya jarayonlari «Avesto»da chuqur ma'no va o'rinnegallagan.

Ahamiyatga molik jihat shundaki, qadimda bolalarning jismoniy tarbiyasi qabila boshliqlari yoki tajribali jangchilar tomonidan amalga oshirilgan. Ko'pgina xalqlarda o'g'il bolalarni quroq ishlatalishni yaxshi biladigan erkaklar tarbiyasiga topshirilgan. Shvedlar bunday murabbiylarni "forstersaderlar" deb atashgan. Slavyanlar esa o'g'il bolalar murabbiyini "dyadkovaniye" deb atashgan.

Murabbiylar nafaqat jismoniy tarbiya, balki bolalarni ma'naviy tarbiyalash, jumladan, shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun hain mas'ul bo'lganlar. Sport murabbiylari jamiyatda katta hurmatga ega bo'lgan, avtoritet shaxslar hisoblanganlar. Shuning uchun ham o'g'il bolalar murabbiyligiga sobiq championlar tanlanganlar. Biroq, murabbiy darajasiga yetishish uchun faqat sportdagi yutuqlar etarli hisoblanmagan. Masalan, tojiklarda murabbiyni "fotih", o'zbeklar esa "ustoz" deb atashgan va bu mavqega erishish uchun nafaqat polvon bo'lishi balki, yoshlarga ma'naviy tarbiya bera oladigan, o'zi namuna bo'la oladigan inson, ustoz bo'lishi kerak bo'lgan.

"Usto" darajasiga yetishish uchun murabbiy bir necha talablarni bajarishi kerak bo'lgan, u "pok", nuqsonsiz bo'lishi; "halollikda" yetakchilik qilishi; o'z shogirdlaridan bilimlarini ayamasligi; shogirdlariga nisbatan "rahmdil" bo'lishi, ularni qobiliyatiga qarab tarbiyalashi; shogirdlarini bir-biridan ajratmasligi, ularga muloyim munosabatda bo'lishi kerak bo'lgan.

O'z navbatida, shogirdlar ham rostgo'y, taqvodor, odob-axloqli, muruvvatli, hech kimga hasad qilmasliklari, baxllik qilmasliklari shart edi. O'z do'stlari (ta'llim olayotgan sheriklari) bilan tinch-totuv yashashlari, o'z

kuchlari bilan man-manlikka berilmasliklari, dushmanning mag'lubiyatidan xursand bo'lmashliklari lozim bo'lgan. Shuningdek, shogirdlar Allohga itoatli va ustozga hurmatlari baland bo'lishi lozim hisoblangan. O'rta Osiyo xalqlari orasida polvon mustaqil bo'lishi uchun o'z ustozini rozi qilishi va ustozidan oq fotixa olishi an'ana bo'lgan.

Ko'pgina xalqlarning an'analarida doimo turli yoshdagagi bolalarning o'yinlari, musobaqalari, jismoniy kungil ochar marsomilarda ota-onalar hamda kattalarning ishtiroki shart bo'lgan. O'ziga xos bunday musobalar, marosimlar jamoatchilik tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan va ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelgan. Jismoniy tarbiyaning bunday shakli sifatida murabbiy tomonidan o'tkaziladigan maslahatlar, adolatlatlilik hakamlik qilishi, musobaqalarda bevosita ishtirok etish kabilarni kiritish mumkin.

Sport olamida nom chiqargan mashhur, avtoritet sportchilarning jismoniy tarbiyaning rivojiga qo'shgan hissasi sport olamda ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, xalq pedagogikasida yoshi ulug'larga taqlid qilish vaqt o'tib yosh o'quvchilarning o'zлari ham kelajakda ulug' ustoz va murabbiy bo'lib yetishishlariga sabab bo'lgan.

Bolalarning jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida oqsoqollarning, ayniqsa kattalarning ishtiroki jamoaviylik, o'rtoqlarga hurmat, adolat tuyg'usi, keskin vaziyatlarda o'zini tuta bilish va boshqalar kabi fazilatlarni shakllantirishda ijobjiy omil hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib murabbiylik an'analarini o'rganish va uni zamonaliviy ta'lim jarayoniga joriy etishning quyidagi asoslari bor deb hisoblaymiz:

- bugungi kunda yosh bolalar orasida (va hatto kattalarning ham) kam harakatlilik tendensiyasi ko'p uchramoqda, bu esa vaqt o'tib o'zinin ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan salbiy natijalarini ko'rsatadi;
- maktabdan tashqari vaqdagi sport to'garaklari bolalarning sport bo'yicha barcha qiziqishlarini qamrab olishga qodir bo'lmayapti;
- Yurtimizda bolalarni mashq qildirishni istaydiigan, lekin ularga yetarli sharoit bo'magani uchun bu ish bilan shug'ullanmayotgan ko'pgina sobiq sportchilar borki, ularning intilishlari besamar ketayapti;

Shunday sportchilar rahbaraligida mahallalarda, umumta'lim va sport maktabalarida, stadion va suzish havzalarida "Yosh sportchilar", "Sport sog'liq garovi", "Sog' tanda – sog'lom aql" kabi qo'shimcha mashg'ulotlar, tadirlar o'tkazishni ko'paytirish maqsadga muvfiq bo'ladi.

Qirg'iz xalqining an'analariga ko'ra, eng yaxshi jangchilarga 7 toifali "botir" faxriy unvoni berilgan. Eng oliv toifa - "adamin sheri botir" bo'lib, uning ma'nosida "jasorati chegara bilmaydigan, xavf-xatardan qo'rqlmaydigan botir jangchi" tushunilgan. Bu toifadan oldin "qora ko'k botir" yoki "ko'k jal botir", ya'ni "yarador bo'lsa ham jang maydonini tark etmaydigan jangchi, botir" toifalari mavjud edi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, bu erda faqat shaxsiy fazilatlar qayd etilgan. Shubhasiz, "botir" tushunchasi yaxshi harbiy tayyorgarlik va yuqori jismoniy holatni anglatadi.

Qozoqlarda "el uchun yaragan er" iborasi bor, bu taxminan "yurti uchun, xalqi uchun xizmat qilgan qahramon" deb tushuniladi. Qozoqlarning an'anaviy ta'lim kodeksi har bir o'g'il bolani shunday qahramon sisatida tarbiyalashga undaydi. Bu nafaqat vatanparvarlik va jangovorlik fazilatlarini (jasorat, mardlik, botirlik kabi), balki har bir bolada mavjud bo'lishi kerak bo'lgan umuminsoniy fazilatlarni ham shakllantiradi.

Markaziy Osiyo tarbiya tizimida yoshlarga mehribonlik, g'amho'rlik, kattalarga hurmat, yetimlarga, bevalarga, kam ta'minlanganlarga va muhtojlarga yordam qo'llini cho'zish, ularni himoya qilish tuyg'ularini shakllantirish kabi axloqiy kriteriyalari mavjuddir.

#### **4.3. Jismoniy tarbiyaning tarixiy harakteri, uni jamiyat rivojining turli bosqichlaridagi o'zgarishlari. Sport milliy-madaniy rivojida xalq folklorlarining o'rni**

Axloqiy tarbiyani shakllantirishda xalq folklorining ham o'z o'rni bor. Xaql qahramonlari, folklor qahramonlari yetuk jismoniy fazilatlarga, dushmanlarni mag'lub eta olish qudratiga ega bo'lish bilan birga yuksak axloqiy fazilatlarga ham ega bo'lishgan. Ular insonlarga qilgan yahshiliklari, czgu amallari bilan barchaga namuna bo'lishgan. Shunday qahramonlardan Alpomishni, Kenja botirni, Rustamu-dostonni misol qilib keltirish mumkin.

«Alpomish» dostonida kurash, otda poyga, kamondan o'q otish meraganlik kabi jismoniy sifatlar, vatanparvar va xalq uchun jonini ham fido qilish kabi eng ulug' insoniy fazilatlar madh etilgan.

«Alpomish» dostonining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyati shundaki, bundan bir necha ming yillar mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, ayniqsa, yigit va qizlarining bir-biriga vafodorligi, jismoniy jihatdan o'ta barkamolligi, dushmanlarga shafqasiz kurashlari odilona bayon etilgan.

Xalq eposlarida, dostonlarda qahramonlar insonlarga og'ir jismoniy mehnatlarda yordam berishgan. Masalan, Farxod o'zining g'ayritabiyy kuchi bilan Arman o'lkasiga suv kelishiga ko'p xizmat qilgan va arman xalqini dushmanidan qutqargan.

Dostonlarning tarbiyaviy jihatlari shundaki, xalq irodasi, an'analar, urf-odatlar mazmunida otda chopish, jang qilish, qilichbozlik, kurash, kamondan o'q otish kabi jismoniy harakatlar yuqori saviyada madh etilgan. Bunda dushmanlar bilan mardonavor jang qilgan yigit va qizlar timsoli tasvirlanadi. Xalq folklorlarida, dostonlarda xalq irodasi, yigit-qizlarning mehr-muhabbat, sadoqat, jasurlik, botirlik, pahlavonlik, chavandozlik kabi sifatlar o'z ifodasini topgan. Xalq milliy o'yinlari bir necha yo'naliishlarga ega bo'lib, ularning tarkibida raqlar, laparlar, aytishuvlar, askiyalar jang san'at turlari kiradi. Shuningdek, ular qatorida ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan qator harakatli o'yinlar va sportga xos o'yinlar ham juda ko'p. O'zbek xalq o'yinlari va milliy jismoniy mashqlarini quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

- kamondan o'q otish; qilichbozlik;
- kurash (buxorosha, farg'onacha, xorazmcha usullar);
- ot o'yinlari (poyga, olomon poyga, ko'pkari, uloq va h.k.);
- kuch sinashish (tosh ko'tarish, arqon tortishish, ot, buqa, tuya ko'tarish);
- dorboz o'yinlari (dor ustidagi mashqlar);
- harakatli milliy o'yinlar;
- yugurish musobaqalari;
- ov qilish (o'rgatilgan qushlar: lochin, burgui va shu kabi boshqa qushlar bilan).

Bunday o'yinlarning deyarli barchasi ommaviy bayramlar, musobaqalar va to'ylarda keng qo'llanilqan. Qadimgi manbalar Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) daryolari o'rtasidagi vodiyyda poyga musobaqalari keng tarqalgan. So'g'diyona va Baqtriyada kurash, ot poygasi, uloq, dorbozlik juda ominalashgan.

Folklor va dostonlarda qahramonlar, botirlar ulug'lanadilar va ona yurt himoyachilari, adolat va haqiqat kurashchilari, kambag'al va muhtojlarning himoyachilari sifatida ulug'lanadilar.

Chin botir o'z qalbida samimiy, tinchliksevar, adolatparvar, mehnatkash bo'ladi. Chunki, har qanday halq ham o'z yurtida tinch-totuv yashashni xohlaydi, botirlar ham bundan mustasno emas. Xalq nopoliklikni va xiyonatni yomon ko'radi, hatto jangda ham qahramon o'zini halol tutishi va munosib g'alaba qozonishi kerak deb qaraladi.

Bugungi kunga kelib OAV ta'siri ostida sport olamining o'z qahramonlari, botirlari, nufuzli shaxslari ko'payib bormoqda. Ularga yosharning, ommaning katta qismi taqlid qilmoqda. Shu nuqtai nazardan mashhur va nufuzli sportchilarning hati-harakati qaysidir jihatdan yoshlar uchun namuna shaklida qabul qilinishi tabiiy holga aylanib qoldi. Afsuski, bugungi kun yoshlarini ko'proq nufuzli sportchilarning shaxsiy hayotlari va iqtisodiy yutug'lari jalb qilmoqda. Bu esa sportni haqiqiy fidoiy, mard o'g'lonlarning shakllanishiga emas, balki ko'p pul topish manbaaiga aylantirib qo'ymoqda.

Achinarlisi shundaki, asrlar osha bizga yetib kelgan xalq eposlari va folklorlari qahramonlarini bugungi kun yoshlar uchun katta nufuzga ega bo'lmay qolmoqda. An'anaviy jismoniy madaniyat elementlarini bugungi kunda ham qo'llash uchun albatta ushbu madaniyat elementlarning kelib chiqish tarixi, joyi va hududini, bunda mentalitetning o'rnini inobatga olish lozim. Shundagina xalq folklorlari qahramonlarining nufuzi bugungi kun yoshlari orasida oshib boradi.

Xalq milliy qahramonlari marosim, an'ana, milliy o'yinlari uning turmush tarzi, milliy xususiyati, ijtimoiy psixologiyasi, tafakkurlash usulidan kelib chiqqan bo'lib, mazkur xalqning ma'naviyatini belgilab beradi. Biz sobiq ittifoq davrida yo'l qo'yilgan o'tmish xatolarni takrorlamasligimiz uchun xalq milliy madaniyati elementalarini, milliy

udumlari, urf-odatlari va marosimlarini hamda ular zamirida saqlanib kelinayotgan milliy o'yinlarimizni yanada kengroq va chuqurroq o'rganmog'imiz, tahsil qilmog'imiz, oilalarda ularni kundalik tur mush tarziga aylantirnog'imiz, inson kamolotida milliy qadriyatlarning nechog'liq ahamiyatga ega ekanligini farzandlarimiz ongiga, tafakkuriga singdirib bormog'imiz lozim.

#### 4.4. Sharq allomalari sportning milliy-madaniy xususiyati haqida

O'zbek xalq o'yinlarining shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiy etishini o'rganishda sharqning mutasakkirlari Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Umar Xayyom, Amir Temur, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshisiy, Zayniddin Mahmud Vosiliy kabi allomalarining qoldirgan ma'naviy merosni tadqiq qilish hamda amaliyotga tatbiq etish o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir.

O'zbek xalq o'yinlari tarixida birinchi marta milliy o'yin namunalarining bayon etilishi, ularning ta'risi-tasviri qomusiy allomalardan biri Mahmud Qoshg'ariy qalamiga mansubdir. U bundan 1000 yil burun 6 yil mobaynida Turkistondan Termizgacha, Xazar va Orol sohillaridan Tang'irot etaklaricha bo'lgan hududda yashagan turkman, o'g'iz, chigil, yag'mo, qirg'iz va boshqa boshqa turkiyzabon xalqlarning tarixi, milliy psixologiyasi, o'lkkalar jo'g'rosiyasi, urug', qabila, elatlarining til xususiyatlari, yozma va og'zaki adabiyoti, ko'chmanchi tuyakashlar, yilqichilar, cho'ponlar, o'troq dehqonlar, bog'bon va kosiblarning tirikchilik usullari, so'z talassuzlari va turli so'z atamalarini teran o'rganib, "Devon-u lug'atit turk", ya'ni "Turkiy so'zlar devoni"ni tuzib chiqdi.

Mahmud Qoshg'ariyning ushbu devonida 150 ga yaqin xalq o'yinlari tilga olinib, shulardan 20 taga yaqin o'yin turiga batassil ta'rif berilgan. Olim kattalar va bolalarning yosh jihatlariga nisbatan mos bo'lgan o'yin turlariga alohida to'xtalib va musobaqa turlarini bayon qiladi. U o'yinlarni diqqat bilan o'rganib, ham jismoni, ham aqliy mashg'ulotlarga ajratgan. Shundan bilsa bo'ladiki, hozirgi zamонави sport o'yinlarining deyarli juda ko'philigi o'sha davrlardayoq, ya'ni XII asrda ham mavjud bo'lgan ekan.

Ma'lumki, chavgon O'rta Osiyo xalqlarining juda qadimgi hamda sevimli ot sporti o'yinlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, chavgon o'yini el-

yurt mudosaasi uchun zaruriy jismoniy mashqlardan biri bo'lganligi uchun ham, o'yin g'olibiga beriladigan sovrinlarning darajasiga alohida to'xtalib o'tadi. Shuningdek, devonda o'sha davrda otda poyga chopish, quvlanish, tez yo'tib turish, toqqa chiqish, pastlikka tushish kabi "bahs"lar bayoni ham keltirilgan.

Suvda o'tkaziladigan musobaqalar ham alohida diqqatga sazovordir. Suv mashqlaridan biri bo'lgan g'avvoslik juda qadimiy kasblardan biri bo'lib, suv bahslarining ikki turi uchraydi. Birinchisi, suvda cho'milish, sho'ng'ish, suvdan suzib o'tish, suv kechish, suvda quvlashmoq, suvga biron narsani, masalan, suvda cho'kmaydigan yog'och, biror ashyoni tashlamoq; ikkinchisi – ermak, ko'ngil ochish mashq'ulotlari ma'nosidagi o'yinlardir.

Bular: suv yoki sut simirmoq, suv ustida yalpoq toshni kim o'zarga otmoq, ya'ni bahslashmoq. Hozirgi paytda bolalar buni "quymoq" o'yini deb o'ynashadi. O'yinda toshning suvda necha marta tegib sakrab "quymoq" hosil qilishini e'tiborga olinadi va kim "quymoq" hosil qilsa, o'sha g'olib sanaladi.

Devonda bolalar o'yinlarining turi ko'p uchraydi. Ularning ba'zilari yo'l-yo'lakay sanab o'tilgan bo'lsa, ba'zi bir o'yinlar tafsiloti bilan keltirilgan. Oshiq o'yini, to'p o'yini, cho'pon bolalar o'yinlari, chillak o'yinlari, qizlarning arg'imchoq o'yinlari ham birma-bir sanab o'tilgan.

O'sha davrdagi ko'pgina o'yinlar bolalarning hozirgi davrdagi o'yinlarini eslatadi. Masalan, "O'tish-o'tish" deb atalgan o'yin "Kesak kuydi", "Darra soldi", "Musht ketdi" o'yinlariga o'xshab ketadi. Amudaryo va Sirdaryo sohillarida, orol etaklarida, shuningdek, yaqin joylardagi soylar, anhorlar, hovuzlar va ko'llar bo'yalarida bolalarning "Muguz-muguz" nomli qadimiy o'yini o'ynalgan.

Alisher Navoiy o'zining "Mahbub-ul-qulub" asarida "Oqsuyak" o'yini ta'risini beradi. Mahmud Qoshg'ariy devoni XI asrda bitilgan bo'lsa, Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub" asari XV asrda yozilgan. Hozirgi paytda ham bolalar "Oqsuyak" o'yinini xuddi o'sha qoida asosida o'ynaydilar.

"Oqsuyak" o'yini nafaqat O'rta Osiyoda, balki yer kurrasining ko'p joylarida keng tarqalgan. Bu o'yinni Yevropaning Skandinaviya

mamlakatlari xalqlari etnografiyasiga oid adabiyotlarda o'qish mumkin. Hattoki, ushbu o'yin Avstraliyada ham uchraydi. Aslida, xalq o'yinlari hech qachon chegara bilmaydi. Aksincha, o'yinlar xalqlar, elatlar orasidagi o'zaro do'stlik, qon-qardoshlik rishtalarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino nafaqat mashhur shifokor, faylasuf, shoirgina bo'lib qolmasdan, balki xalq o'yinlariga doir g'oyat rang-barang nodir meros qoldirgan allomadir. U xalq o'yinlari haqida fikr yuritar ekan. ayniqsa badantarbiyaning kishi uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berdi.

Ibn Sino inson organizmini sog'lomlashtirish va kasallikni davolash nuqtai nazaridan qarab, xalq o'yinlardan biri bo'lgan badantarbiyani beshta asosiy qismga ajratadi. Jumladan:

1. Tez harakatlar;
2. Nozik va yengil harakatlar;
3. Kuchliroq harakatlar;
4. O'rta kuchli harakatlar;
5. Gavda uchun maxsus harakatlar.

U badantarbiyani tez harakatlar turiga kiritadi. ular asosan, milliy xalq o'yinlari yoki ularning ayrim unsurlaridan iborat. Masalan:

- O'zaro tortilish;
- Musht bilan turtishish;
- Yoydan o'q otish;
- Tez yurish;
- Nayza otish;
- Yuqoridagi bir narsaga irg'ib osilish;
- Bir oyoqda sakrash;
- Qilichbozlik;
- Nayzabozlik;
- Otda yurish: ikki qo'lni silkitish, bu vaqtda odam oyoq uchida turib, qo'llarini oldga va orqaga cho'zib, tez harakat qiladi.

Olim o'yin turlari va unsurlarini shunchaki sanab o'tmasdan, balki xalq donishmandligi asosida o'zining kuchli bilimi bilan ularni boyitib, inson kamoloti uchun qaysi tarzda foydali ekanligini tushuntiradi.

Ulug' hakim isitmadan holsizlangan, ko'krak va qorin to'sig'i kasalligidan zaiflashgan kishilarga, asab tizimining charchashidan kelib chiqqan parishonxotirlik, ishtalha bo'g'ilishi kabi kasallardan qiynalayotganlarga o'yinlarning quyidagi nozik va yengil turlari:

- Arg'imchoqlarda uchish;
- Belanchaklarda tik holda o'tirib yoki yotib uchish;
- Qayiq yoki kemalarda sayr qilish,

Kuchliroq o'yinlardan esa:

- Ot va tuyaga minish,
- Kajava va aravalarga tushishni tavsiya qiladi.

Xalq o'yinlarining kuchli turlariga maydonda bajariladigan quyidagi harakatlarni kiritadi:

- Kishining o'z soyasi bilan olishishi;
- Chapak chalish;
- Sakrash;
- Nayza uchi bilan sanchish;
- Katta va kichik kurralar bilan chavgon o'yini;
- Koptoklarni o'ynash;
- Kurash;
- Tosh ko'tarish;
- Quvlashish;
- Chopayotgan otni jilovidan tortib to'xtatish.

Xalq o'yinlarining ajoyib bilimdoni bo'lgan Ibn Sino xalqimizning milliy sport turi bo'lgan milliy kurash (Buxorocha va Farg'onacha kurash turi) haqida ham yetarlicha ma'lumot qoldirgan.

Kurashning turlari ham bir nechadir, - deydi u. Ulardan biri: ikki kurashuvchining har biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi, shu bilan birga kurashuvchi o'z raqibidan qutulishning chorasini qiladi. Ikkinchisi esa uni qo'yib yubormaslikka harakat qiladi.

Boshqa turi: ikki kurashuvchidan biri ikkala qo'li bilan ikkinchisini mahkam quchoqlab o'ziga tortadi va yerga ag'daradi, bu vaqtida birinchi kurashuvchining o'ng qo'li ostidan o'tkazilishi kerak, kurashuvchilar goh gavdalarini tiklab, goh egiladilar.

Badan tarbiyaning birinchi turi “Gavda uchun maxsus harakatlar” hisoblanib, ularning har birida ma'lum darajada o'yin unsurlari mavjud, ya'ni: 1) qo'l va oyoq harakatlari; 2) ko'krak va nafas a'zolarining harakatlari; 3) butun tanaga oid harakatlardir.

Kaykovusning “Qobusnomा” asari mo'jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlardan iboratdir. Uning “hunar afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo'lish haqida”, “Mazax qilmoq, shatranj va narda o'ynamoq odobini bayoni zikrida”, “Chahorpoy (ot) sotib olmoqning zikrida”, “Farzand parvarish qilmoq zikrida” degan boblarida xalq o'yinlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlar berilgan.

Kaykovus “...Hunar o'rgannoqda mehnat qilmoq, badanni yalqovlik, ya'ni, bekorchilikdin qutqarmoq foydalidur, nedirkim, bekorchilik badanning fasad va bemorligiga sabab bo'lur. Agar badanga ranj berib, uni o'zingga qahr bilan mute qilmasang, martabali bo'la olmassan.

Nedinkim, badan rohatni do'st tutgoni jihatidan ham o'z ixtiyori bila senga farmonbardor bo'lmas. Ul sabab bila kim, badanda asli harakat yo'qdur. U harakatni armon bilan qilur, o'z murodi bilan qilmas va to sen buyurmaguncha badanning hech ishga rag'batি bo'lmas. Bas, ey farzand, badanni o'zingga mute qil va uni qahr bila itoatga buyurgil” - deydi.

Bundan shunday ijtimoiy-psixologik xulosa chiqadi: - Har kishi o'z badanin o'ziga mute qilsa, o'zgalarning badanini ham mute qila olar, chunki har kishi o'z badanini o'ziga farmonbardor qilsa, sozil va hunar o'rgannoq bilan ikki jahoning salomat va sharofatin hosil qilur.

Kaykovus yoshlarga xilma-xil kasb egallahshni, turli xil hunar o'rganishni tavsiya qiladi, ya'ni o'sha paytda jismoniy tarbiya harbiy amaliy tavsiga ega bo'lgani uchun harbiy kishiga harbiy ilmlarni – suvda suzishni, ot minishni, chavgon urishni, buyruq berishni o'rganishni tavsiya qiladi. O'sha davr taqozosiga ko'ra, bunday harbiy ilmlarni o'rganish zamonning talabi bo'lgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) o'zining “Hamsa”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub” va boshqa qator asarlarida xalq o'yinlariga mehr bilan qarab, ularga birma-bir ta'rif-tavsif bergan.

Qadimdan piyoda yurish, yugurish, chavandozlik, qilichbozlik, kurash kabi milliy o'yinlar ko'pchilik podshohlarni, xususan, lashkarboshilar

e'tiborini jalb etgan. Navoiy kuch sinashish bilan bog'liq bo'lган o'yin turlariga "zori" atamasini qo'llagan. Masalan, Farhod bolaligidan ko'pgina harbiy mashqlar bilan qiziqqan va shug'ullanigan.

Farhod nishonga aniq tekkizish, ya'ni, nayzabozlik qalqonbozlik kabi mashq turlarida hammani hayratga soldi. Navoiy undagi shiddatkorlik, kuchlilik, aniq mo'ljalga olish, harbiy quro'l-aslahalarni ishlatalishdagi tadbirkorlik va epchillik xususiyatlarini ajoyib mubolag'alar bilan ifodalagan. U milliy jismoniy mashq turlarini targ'ib etish bilan birga, shug'ullanuvchilarning axloqiy tarbiyasiga ham katta e'tibor bergan.

Shunday qilib, Alisher Navoiy xalq jismoniy madaniyati turlarining benazir bilimdoni ekanligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, uning badantarbiyani "ilmi badan" yoki "badan ilmi" yoxud "ko'ngil tarbiyasi" atamalarini qo'llashi jismoniy tarbiya fani uchun ochilgan yorqin bir sahifalardir. Shuningdek, u "shatranj", "tiyrandozlik", "chavandozlik", "nayzabozlik", "chavgon", "qovoq", "kurash", "qilichbozlik" kabi qadiiniy xalq o'yinlarini o'zining lirik va epik asarlarida yuksak mahorat bilan tasvirlagan.

Husayn Voiz Koshifiy xalq o'yinlarining o'n beshga yaqin turi haqida ma'lumot qoldirgan.

Husayn Koshifiy tomosha ko'rsatuvchi pahlavonlarni sakkiz toifaga ajratadi: ya'ni, kurash tushuvchilar, tosh o'ynovchilar, loy tashuvchilar, zambil ko'taruvchilar, dorbozlar, gurzi ko'taruvchilar va zo'rlar. U kurash ommabop milliy sport turi bo'lib, barcha uchun manzurligini bu ish bilan shug'ullanuvchi kishilar har qanday vaziyatda to'g'rilik va poklik, adolat qonuniyati bilan yashashi kerakligini uqtiradi.

Koshifiy - "Toshotarlar, pok va taqvodor kishilardir, ularning vazifasi tosh bilan dushmanqa aniq zarba yetkazishdir" - deydi. Ularning odobi oltita, deb aytadi:

- 1) Butun choralarни ishga solib, kuch va malaka to'plash va buni dushmanqa qarshi sarflay bilish;
- 2) Toshga qo'l tekkizishdan oldin o'tgan azizlar va pirlarni esga olish;
- 3) Qo'lni toshga urgandan keyin jasorat va mardlik ko'rsatishga intilish;
- 4) Majlis ahlidan madad va himmat tilash;

5) Ko'z bilan tilni va qo'l bilan ko'ngilni noshoista ishlar va narsalardan saqlash;

6) Ma'raka, hunardan forig' bo'lgandan keyin takbir va salovat aytish.

Asarda dorbozlar tashqi ko'rinishdan o'yin, tomosha ahlidan bo'lsalarda, ammo ishlarining asosi jur'at va quvvat bo'lganidan, ular ahli zo'r (pahlavon) jumlasiga kiritiladi. Bu manzara o'sha davr sportchilarining individual-psixologik xususiyatlarini keng tasavvur etishga imkon yaratadi.

Shuni e'tiqod bilan anglab yetish kerakki, zo'rgarlik (kuch-quvvatni namoyon etish) ning haqiqati nafs dushmanligini poymol etishdir, bo'lmasa ko'p hayvon va parrandalarning quvvati odamzodnikidan ortiq. Pir va ustozdan ta'lim, duo olmay qilich taqish noravodir - deydi.

Qalqon sipohiyarlarning qal'asi va jangchilarining himoyachisidir. - deydi Husayn Koshifiy.

Qalqonning 4 ta turi ta'rislanadi, ya'ni: 1) xazr (to'sish) qalqoni; 2) qadr qalqoni; 3) sabr qalqoni; 4) hilm (halimlik) qalqoni.

Koshifiy kamon otish haqida gapirib, kamon kabzasining o'n ikkita odobini ta'riflaydi. Kamon kabzasini tutishning eng ko'p tarqalgan 4 xili mavjud bo'lib. ular: 1) avval pichoq kabzasi; 2) ov kamoni kabzasi; 3) qarchig'ay changali (uni "xandon" ham deydilar); 4) mudavvar (chambarak). Yo'y tortishning ikki xili bor, binobarin, birinchisi mo'ylovsimon tortish; ikkinchisi surmakash (surma tortishga o'xshab) tortishdir.

Amir Temur shon-shuhrat qozonishining siri, mohir sarkardaligi, odil va zukkolik bilan ish yuritishi, donishmandligi va shu bilan bir qatorda yoshlik paytidanoq kurash, chavandozlik, nayzabozlik, qalqonbozlik, qilichbozlik va ov qilish ilmini mukammal egallaganligidir. Bu esa uning bolaligidanoq ko'plab harbiy amaliy tavsifga ega bo'lgan xalq o'yinlarini o'ynaganligidan dalolat beradi. Chunki bolalikda o'ynalgan o'yinlar uni hayotga janglarda, uzoq safarlarga tayyorlashda o'ziga xos maktab vazifasini o'tagan.

"... Amir Temur 14 yoshga kelib erdi, ...xon so'rdikim, Turug' otliq kimdir" anda birov turib aytди: "Bu Tarag'ay Bahodir o'g'lidir. Amir Temur xonning nazarida yosh bola ko'rinishib, buyurdikim: "Tarag'ay Bahodirning

o‘g‘li jangga bormasin”. Anda Amir Temur o‘q-yoy olib, toblab yubordi. Otilib ellik qadam yerga borib tushdi. Mirzo Sayfiddin anda taqlid qilib, ani o‘rniga yuborilmadi. Andin keyin Sohibqiron dasturi Chig‘atoy birla jonga kelib, tizzasin bukib, xonga ta‘zim qildi. Aytdi: “Iltimos qilib sizdin xohlayurmen, davlat xumoyuningizda ushbu qo‘sish men birla talosh qilsalar. Anda uch kun talosh qildilar.

Barchalari aqalli aning qo‘lidan yarog‘in tortib ololmadilar. Bu jur‘atni Sohibqirondan ko‘ra ba‘zilari esxurun zo‘r qildilar, kuchlari yetmadi, tortib ololmadilar”.

Amir temur shiddatkor nayzaboz bo‘lganligi. “Temurnoma”da shunday yozilgan: - “Fil hol qilich arslon aslaha-yarog‘larini, nayzasini qo‘liga olib, Amir ham musallig‘ bo‘lib, ottarga minib, ikki tarasdin shovqin solib, birdan nayzabozlik qilib. Amirga nayza soldi. Amir chap berdi, nayza solib erdi, orqasidin yana soldi... hozir bo‘l, deb Amir otin yoliga yopushdi.

Nayza borib toshga tegib, ikki qarich botti, yana tortib olib nayza soldi. Amir nayzani o‘tkazib, qilich soldi...”.

Sharosiddin Ali Yazdiy qayd etishicha, Amir Temurning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri davlat, mamlakat va fuqaroga g‘amxo‘rlik edi. Uning qoidasi - “Rosti-rusti” edi. Haqiqat - sihat salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat-adolat demakdir, deb tushuntirar edi. U insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug‘laydi, degan gapni ko‘p takrorlagan.

Shunday qilib. Sharq allomalari milliy sport o‘yinlari yosh avlod tarbiyasida benihoya katta ahamiyatga ega ekanligini, milliy sport o‘yinlarining ijtimoiy, pedagogik ahamiyatini o‘z ilmiy asarlarida uqtirib o‘lganlar.

**Xutosa.** Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlar-milliy ong, tarixiy xotira, azaliy an‘analar, diniy e‘tiqodlar, xalq ijodi qatorida milliy o‘yinlar tiklana boshladи. Axloq ijtimoiy ong mahsuli bo‘lgani kabi, sportning ham milliy-madaniy xususiyatlarida axloq aks etib bordi. O‘rtta Osiyo xalqlari orasida, Yoqutiston, Buryatiya, Volga bo‘yi xalqlarida, Rossiya, Belorussiya xalqlarida va arman, gruzin xalqlaridagi sportning milliy-madaniy xususiyatlari jismoniy barkamol millatni yaralishiga, milliy g‘oyani yaralishiga xizmat qildi. Sport rivojida “ustoz-shogird” tizimi ishlab chiqildi. Natijada, jismoniy tarbiya va sportga oid sotsiologik bilimlar

kundan-kun ortib bordi. Bu esa jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy hayotdagi roli va ta'siri ortib borayotganidan dalolat beradi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Jismoniy tarbiya – xalq madaniyati elementi deganda nimani tushunasiz?
2. Markaziy Osiyo, Tuva, Yakutiya, Volga bo'yи xalqlari madaniyatida jismoniy tarbiya va axloq masalalari.
3. Qanday xalq o'yinlari milliy-madaniy sportning rivojiga xizmat qilgan?
4. Turli xalqlar tuy an'analarida, turli xilmaro simlarida jismoniy tarbiyaning o'rni.
5. Bolalar tarbiyasida sportning o'rni.
6. Paxlavon sportchilarini tarbiyalashda milliy qadriyatlar va axloqning o'rni.
7. "Avesto"da bolalar tarbiyasiga, jumladan jismoniy tarbiyasiga bo'lgan qarashlar.
8. "Ustoz-shogird" tizimida sport murabbiylarining o'rni.
9. "Sog'ianda – sog'lom aql" deganda nimani tushunasiz? Qozoq, qirg'iz, o'zbek xalqlari orasida paxlovon-botirlar haqidagi qarashlar.
10. Xalq eposlari va dostonlarida jismoniy tarbiya va qahramonlik harakatlari.
11. Sharq allomalari sportning milliy-madaniy xususiyati haqida.


## MAVZU №5. JAMIYAT SOTSILOGIYANING ASOSIY KATEGORIYASI SIFATIDA

**Reja:**

1. Jamiyat tushunchasi va uning belgilari. Jamiyat tipologiyasi.
2. Kishilik jamiyati – madaniyat mahsuli sifatida.
3. Ogyust Kontning jamiyat haqidagi qarashlari.
4. An'anaviy va industrial jamiyat. Ijtimoiy institutlar va ularning ahamiyati.

*Kalit so‘zlar: jamiyat, sivilizatsiya, quddorlik, feodalizm, kapitalizm, industrial, postindustrial, ijtimoiy institutlar, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy guruhlar, individ, Harakatlar strategiyasi, Ogyust Kont, Maks Veber namunali madaniyat.*

### 5.1. Jamiyat tushunchasi va uning belgilari. Jamiyat tipologiyasi



Jamiyat deb ma'lum bir hududda tarixan shakllangan, kishilik munosabatlarni va ularning turmush tarzini tartibga soladigan yaxlit, bir butun bo'lgan ijtimoiy tizimga aytish mumkin. Boshqacha aytganda jamiyat – bir-biri bilan bog'langan mustaqil "organizmdir".

Jamiyatning ijtimoiy tizimi sifatida bir-biri bilan o'zaro uzziy bog'langan turli faoliyat shakllari va munosabatlarni ko'rsatish mumkin. Har qanday ijtimoiy tizim:

- ijtimoiy institutlardan;
- ijtimoiy guruxlardan;
- alohida olingan individlardan iborat bo'ladi.

Jamiyatning asosiy belgilari sifatida quyidagilar keladi:

1. Jamiyat o'zi alohida, mustaqil tizim bo'lib, u kattaroq bir tizimning alohida bir bo'lagi hisoblanmaydi (agar "jamiyat" deganda biron-bir tashkilot nazarda tutilmayotgan bo'lsagina);
2. Ko'pincha nikohlar aniq bir jamiyat azolari o'rta sidagina tuziladi;
3. Jamiyat a'zolarining ko'payib, jamiyatning kengayib borishiga birinchi navbatda ushbu jamiyat vakillarining farzandalari tomonidan amalga oshiriladi;
4. Jamiyat o'zining aniq hududiga ega bo'lishi shart;

5. Jamiyatning o‘z nomi va o‘z tarixi bor bo‘lishi kerak;
6. Jamiyat o‘zining boshqaruv tizimiga ega bo‘lishi kerak;
7. Jamiyat uzoq tarixga ega bo‘lishi kerak;
8. Jamiyatning o‘z umumiyligini qadriyatlari (urf-odatlar, an'analar, me'yorlar, qonunlar, qoidalar kabi) tizimi bo‘lishi kerak;

Kishilik jamiyati tarixan rivojlanishi natijasida o‘z boshidan bir qancha taraqqiyot evolyusiyasini o‘tkazgan. Ularni biz “formatsion” yondashuvga va “sivilizatsion” yondashuvga bo‘limiz mumkin. “Formatsion” yondashuv nazariyasi nemis olimi Karl Marks bo‘lsa, “sivilizatsion” yondashuv nazariyasi asoschisi amerikalik olim Daniyel Bell hisoblanadi.

*Karl Marks nazariyasi bo‘yicha, kishilik jamiyati o‘z taraqqiyotida 5 bosqichni bosib o‘tgan:*

1. Ibtidoiy davr jamiyat (termachilik jamiyati, ovchilik jamiyati, dehqonchilik jamiyati, chorvadorlar jamiyati);
  2. Quldarlik davri jamiyati;
  3. Feodallik davri jamiyati;
  4. Kapitalistik davr jamiyati;
  5. Kommunistik davr jamiyat (garchi bu davr K.Marks hayolotida bo‘lgan bo‘lsa-da, u utopiyaligicha qolib ketgan);
1. Taraqqiyotning har bir formasjon bosqichi moddiy va ma’naviy, ruhiy, axloqiy ne’matlarni yaratishning o‘ziga xos usuliga ega bo‘lgan.

Amerikalik olim Daniyel Bell esa kishilik jamiyati taraqqiyotini uch bosqichga bo‘lib o‘rganishni taklif qiladi. D. Bell nazariyasiga ko‘ra kishilik jamiyati 1) “doindustrial” (sanoatgacha) bo‘lgan davrga, 2) “industiral” (sanoat) davriga va 3) “postindustrial” (sanoatdan keyingi, kompyuterlashtirish) davrga bo‘linadi.

Keling ularni ko‘rib chiqamiz:

1. “Doindustrial” (sanoatgacha) bo‘lgan davr quyidagi o‘ziga xos belgilurga va xiususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- asosiy kun ko‘rish shakli qo‘l mehnati bilan amalga oshgan;
- shaharlardan kulolchilik, kosibchilik, hunarmandchilik, savdogarlik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanilgan;

- kun ko'rishning asosiy shakli sifatida dehqonchilik bilan shug'ullanilgan;
- inson turmush tarzi asosan qishloq hayoti bilan bog'liq bo'lgan va bu yashab qolishning eng samarali usuli hisoblangan;
- ovchilik va chorvadorlik bilan shug'ullanilgan;
- moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarishda asosan inson va uy hayvonlarining jismoniy kuchidan foydalaniłgan;
- ijtimoiy o'sish juda past bo'lgan, geografik nuqtai nazardan ham bir hududdan ikkinchisiga ko'chish deyarli uchramagan, odamlar bir umr bir joyda yashab o'tganlar;
- ta'lim-tarbiya tizimida an'anaviy qadriyatlarni singdirish bilan olib borilgan, tarbiya faqatgina oilalarda berilgan;

2. "*Industiral*" (*sanoatgacha*) davri quyidagi o'ziga xos belgilarga va xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- ishlab chiqarishning avtomatlashgan shakli;
- ishlab chiqarish iqtisodiy xususiyatga ega, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotlarning katta qismi sotish uchun mo'ljallanadi;
- shahar turmush tarzi rusum bo'ladi va shaharlar kengayish bilan birlashtiriladi o'sa boshlaydilar. Urbanizatsiya yuqori cho'qqiga ko'tariladi (aholining aksariyati shaharlarda yashash uchun ko'chib kela boshlaydi);
- ijtimoiy o'sish imkonli oshadi, odamlarning geografik ko'chish mobilligi ham oshadi;
- ta'lim olish imkonli ko'payadi, ta'lim oluvchilar soni oshadi va kasbiy tayyorgarli darajasi nisbatan ko'tariladi;
- oilaviy ta'limdan tashqari davlat ta'lim tizimi ishlab chiqiladi va ta'lim olish imkonli hamma uchun barobar bo'ladi;

3. "*Postindustrial*" (*sanoatdan keyingi, kompyuterlashtirish*) davri quyidagi o'ziga xos belgilarga va xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- sanoatda ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish jarayonlari to'liq avtomatlashtiriladi va hamma narsani robot-kopinterlar boshqaradi;
- odamlar hayotining ko'plab sohalarida boshqaruvning avtomatik shakli ishga tushiradi va joriy etiladi;
- bozorda asosiy talab "axborot" bo'lib qoladi;

➤ sanoatda, ishlab chiqarishda, jisomniy mehnatda band bo'lgan insonlar sonining qisqarishi va uning o'rniga insonlar fan, axborot va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat olib borishlari ko'payadi;

➤ Shahar aholisining o'sishi bilan bir qatorda qishloq joylarda shinam uy-joyga (dala hovlilarga) ega bo'lganlar soni ortib boradi:

➤ shahar va qishloq joylardigi turmush darajalar tenglashtiriladi:

Shuningdek, "fuqarolik" jamiyatni tushunchasi ham sotsiologiyada mavjud bo'lib, *fuqarolik jamiyatni deganda – davlatning aralashuvidan forig' bo'lgan, mustaqil, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishga qodir erkin fuqarolardan iborat jamiyat tushuniladi.*

*Fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyatlari:*

➤ davlat va jamiyat vakolatlarining qisqarishi va chegaralanishi, fuqarolik jamiyatni institutlarining o'z vakolatlari doirasida davlatga qaram bo'lmasdan, o'z mustaqilligiga ega bo'lishi;

➤ siyosiy sohada demokratiya va plyuralizm to'liq ishlashi;

➤ shaxs huquqi va erkinliklarining davlat mansaattaridan ustun turishi;

➤ mafkuraviy va diniy plyuralizmning mavjudligi;

➤ so'z va ommaviy axborot vositalariga erkinlik berilishi;

➤ bozor iqtisodiyotida erkinlik bo'lishi, bozorni egallashda asosiy ishlab chiqaruvchi sifatida nodavlat korxonalardan tashkil etilishi;

➤ industrial (sanoat) va postindustriya texnologiyalariga asoslangan iqtisodiyotning mavjudligi;

➤ fuqarolik jamiyatining ijtimoiy asosini o'rta tabaqadagi fuqarolar tashkil etishi. Bunda ular davlatga qaram bo'lmay, balki o'zini-o'z iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jihatdan ta'minlay olish imkoniyati va qobiliyatiga ega ekanliglari bo'lib, bu – fuqarolik jamiyatining asosiy belgisini anglatadi;

Har qanday rivojlangan davlatlar fuqarolik jamiyatiga erishiga intiladi. O'zbekiston ham bundan mustasno emas, bugungi kunda yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga bo'lgan sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Prezidenti o'zining har bir chiqishlarida bu masalaga katta e'tibor qaratib kelmoqda. "2017-2021 Harakatlar strategiyasi"da ham, "2022-2026 yillar Yangi O'zbekiston taraqqiyot

strategiyasi” da ham, “O’zbekiston-2030” strategiyasida ham fuqarolik jamiyatini barpo etish haqida bir necha maqsadalar oldinga qo’yilgan.

1) “2017-2021 Harakatlar strategiyasi”ning birinchi bo’limi “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo’nalishlari”da davlat boshqaruvi tizimini, jamoatchilik boshqaruvi tizimini isloh qilish haqida gapirilgan;

2) “2022-2026 yillar Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning ham birinchi bo’limi “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” maqsadida 12 ta maqsadni amalga oshirish davlat rahbarlari oldiga belgilab qo’yilgan;

3) “O’zbekiston-2030” strategiyasida esa yaqin 2030 yillargacha davlatimiz aholisini daromadi o’rtachadan yuqori bo’lgan davlatlar qatoridan joy oldirish g’oyasi, aholi talablari va jahon standartlari talablaridan kelib chiqib ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy sohani mukammal darajaga olib chiqish g’oyasi ustivor qilib belgilab quyilgan.

## 5.2. Kishilik jamiyatı – madaniyat mahsuli sifatida

Tarixiy davrlardan buyon har qaysi jamiyat o’zining madaniy ekspertlariga ega bo’lgan va ular ketidan ergashgan. Masalan, ilk ibtidoi jamiyatlarda *ijtimoiy madaniy ekspertlar* sifatida – sehrgarlik, sehrgarlarning o’zları, shamanlar, jodugarlar; teologik (iloxiy-diniy) bosqichda – ruhoniylar, qohinlar, din namoyondalari; metalizik bosqichda – tanqidchi va skeptik bo’lgan ilk sayfasuflar; ilmiy bosqichda esa – olimlar, ma’rifatparvarlar hisoblanib kelingan. Ammo, shunga e’tibor berish lozimki, ularning barchasi hamisha kuchli maskurachilar, yetakchilar bo’lishgan. Ular doimo, o’z davrlarida hukmronlik qilayotgan har qanday buzg’unchi g’oyaga va maskuraga qarshi tura olishgan va taraqqiyot sari yetaklaydigan yangi g’oya, qarashlarini jamoatchilikka yetkaza olishgan. Tabiiyki, ular “so’z”lari butun bir jamiyatni (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va h.zo sohalarni) ham o’zgarishiga olib kelgan. Fridrix Tyonbruk tili bilan aytganda, aynan ana shu *intellektuallar yoki madaniy ekspertlar* “oldinga yetaklovchi madaniyat”ni yaratishgan va o’zları ham ana shu madaniyat xosilasi va mevasi bo’lishgan. Madaniyatning “noto’g’ri”si

bo'lmaydi chunki, madaniyat jamiyat qanday bo'lsa uning aksi sifatida xuddi shunday namoyon bo'ladi. Jamiyat nimani talab qilsa madaniyat ham aynan shuni beradi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot va shu jamiyatdagi madaniyat bir-birlarini to'ldirib boradilar. Biri ikkinchisini yetaklamaydi, boshqarmaydi aksincha, ular birgalikda faoliyat yuritadilar, birgalikda yashaydilar va birgalikda ijod qiladilar. Ular bir-birlarini yaratadilar, ular o'rtaida o'zaro moslig, "ipsiz" bog'langanlik xususiyati mavjuddir. O.Kont esa insoniyatning taraqqiyot yo'lini bir oz boshqacha baholagan, u insoniyatning boshlang'ich rivojlanish yo'lini (teologik va metasifik bosqichni) "yolg'on", "noto'g'ri" va "siktiv"<sup>[15]</sup> deb atagan. Olim, madaniyat va jamiyatning bir-birlari bilan "ipsiz" bog'langanliklarini, insoniyatning boshlang'ich rivojlanish bosqichi bekorga shu yo'sinda ro'y bermaganligini, shu davrning o'zi, shu davr kishilarining o'zları aynan ana shunday fikrlashni va rivojlanish yo'lidan borishni istagan bo'lishlari mumkinligini inobatga olmaydi. "Oldinga yetaklovchi madaniyat" qanday bo'lsa jamiyat ham shunday ko'rinishga ega bo'ladi. "Oldinga yetaklovchi (namunali) madaniyat" esa jamiyatning, jamiyat a'zolarining hohish va istagidan bunyod bo'ladi. Kont esa ijtimoiy hayotni "xaqiqiy", "chin" tanish yo'lini ilmda ya'ni pozitiv yo'lda, deb biladi.<sup>\*</sup>

Kont olib borgan munozaralarga chuqurroq nazar tashlansa, unda ikki xil tendesiya mavjudligini ko'rish mumkin. Ulardan biri bu, obyektivizm sotsiologiyasi (taraqqiyotni ijtimoiy anglash g'oyasi asosida o'rganadigan) bo'lsa, ikkinchisi esa yuqorida biz "oldinga yetaklovchi madaniyat" yordamida ko'rib chiqqanimiz – sotsiologgiyaning madaniyt-taxliliy analiz tendensiyasidir. Sotsiologiya rivojini tahlil qilish jarayonida bundan buyon, ushbu ikki xil tendensiyaga ko'p bor murojaat qilamiz. Bugungi kunga kelib, sotsiologiya sohasida amaliy jihatdan kuchga ega bo'lgan obyektivizmi yanada qat'iy lashib bordi. Obyektivizm – sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning maskurasiga aylanib qoldi. Unga ko'ra, jamiyat qat'iy bo'lgan obyektiv faktlar asosiga qurilgandir. Bu maskuraga ko'ra, jamiyat ham, uning tizim va tuzilmalari ham hamisha mavjud bo'lgan. Ular,

\* Kont nuqtasi nazari bo'yicha "Pozitiv" bishim volg'onchilikka qarshi haqqoniylig, keraksizlikka qarshi soydalilik, shubxalilikka qarshi ishonchlik, noamqlikka va maxsumlikka qarshi aniqlik, salbiylikka qarshi ijobjiylikdir

o‘zlarini tashkil qilgan kishilarga ham, g‘oyalarga ham, dunyoqarash va turli yondashuvlarga ham bog‘liq bo‘lmasdan, mustaqil taraqqiy etganlar va rivojlanganlar.

Lekin, shu bilan birgalikda, sotsiologiyada madaniy-tahliliy analiz jarayoniga ham katta e‘tibor berilgan. Bu jarayonni o‘rganishga klassik sotsiolog olimlardan asosan Maks Veber, Georg Zimmel kabilar qiziqishgan. Maks Veber sotsiologiyaga, uning rivojlanish va yashash sirlarni o‘rganishga bag‘ishlangan o‘z konsepsiyanı yaratishda – madaniyatga katta e‘tibor bergen va unga asoslangan. U, sotsiologiyani individlarning ijtimoiy xulqini o‘rganuvchi fan, deb taniydi. Va shu asosida individlarning o‘zini, ularning xususiyatlarini o‘rganadi. O‘z izlanishlarida Maks Veber, insonni madaniy mavjudot, deb hisoblaydi. Insonni xayvondan ajratib turuvchi ijtimoiy xulqning o‘ziga hosligi shundaki, unda harakatlarni ongli holda anglash va o‘z harakatlariga javob bera olish holati mavjuddir.

### 5.3. Ogyust Kontning jamiyat haqidagi qarashlari

Sotsiologiya fani shu fanning otasi hisoblanmish Ogyust Kont nomi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Kont sotsiologiyani – jamiyat haqidagi pozitiv fan bo‘lib, sotsiologiya jamiyatni ijtimoiy holatini tabiiy qonuniyatlar asosida o‘rganadi, deb hisoblaydi. Ammo, shu bilan birgalikda olim jamiyat rivojida madaniy qonuniyatlar ham katta ahamiyatga ega bo‘lganligini inkor etmaydi. Sotsiolog olim insoniyat jamiyatni haqida gapirar ekan, uni hamisha tirik organizmga, jamoa ruxiga tenglashtirishdan charchamaydi[33]. Kont sotsiologiyani “jonli jismlar” haqidagi fanlar qatoriga kiritadi. U o‘zining sotsiologik qarashlarida jamiyatni tafakkur shakllari vositasida rivojlanib boruvchi bir organizm, deb hisoblagan. Har qanday tafakkur rivoji esa o‘zi shakllanayotgan muhit madaniyatidan sug‘oriladi va o‘sib-unadi. U ijtimoiy hayotda oila, tabiiy muhit, urushlar, madaniyat, san‘at, iqtisodiy ishlab chiqarish rivoji va boshqa jarayonlarni tahlil qiladi.

Kontning fikricha, jamiyatni rivojlantirish jarayoni sari yetakluvchi asosiy kuch bu – “taraqqiyot ruxiyati”dir. Aslida, bu kuch insoniyat tafakkuri taraqqiyotidir. Inson bilimi, tafakkuri oldinga qarab harakat qiladi. Shuning uchun u o‘z tarixiga ega. Insoniyat tafakkuri o‘z taraqqiyoti

jarayonida uch bosqichni bosib o'tgan va quyidagi qonuniyatni ochilishiga olib kelgan: ilohiyot (teologik) yoki yolg'on (fiktiv) bosqich, metafizik yoki mavxumlashgan bosqich va pozitivizm yoki ilmiy bosqichlardir. Bu uch bosqich haqida O. Kont o'zining mashhur "Uch stadiya qonuni" asarida batafsil to'xtab o'tgan. Kont ta'riflab bergen bu qonuniyatlar oddiylikdan murakkablikka o'tib borganliklari singari ijtimoiy rivojlanishning barcha jabhalarini ham o'zlarini singari o'zgartirib, rivojlantirib bormoqda.

Birinchi teologik davrda inson aqli xodisalarining g'ayritabiyy kuchlarini Xudoning ta'siri bilan izohlashga uringan. Bu bosqichni Kont uch davrga bo'ladi: fetishizm davri, politeizm davri va monoteizm davi. Bu uch davr ichida monoteizm davri ahamiyatliroqdir. Sababi, aynan shu davrga kelib yakkaxudolik davri boshlanadi. Yakkaxudolik insonlarning olamga, hayotga, an'ana va ursf-odatlarga, marosimlarga, axloq va odobga, turmushga siyosatga bo'lgan munosabatlarini butunlay o'zgartirib yubordi.

Kontning sikricha, metafizik dunyoqarash teologik dunyoqarashning o'zgargan shaklidir. Metafizik dunyoqarashga ko'ra, barcha hodisalarining asosini abstrakt (mavhum) metafizik mohiyatlar tashkil etadi. Bu bosqichda odamlar hamma hodisalarini turli mohiyat va sabablarining ta'siri bilan izohlaydilar.

"Pozitiv bosqichda hamma narsalar fan nuqtai nazaridan izohlanadi. Kont insoniyati rivojining bu bosqichlarini har tomonlama tahlil qiladi. Birinchi bosqichda tasavvurlar hukmron bo'lib, bilim juda cheklangan. Odamlar hodisa va narsalarning mavjudligini xudolar va ruhlarning mavjudligi bilan bog'laydi. Bunda nufuz va monarxiya xukmron. Metafizik bosqich mohiyatlarining namoyon bo'lishi sisatidagi turli kuchlarning faoliyati bilan harakterlanadi. Bu bosqichda nufuzlar obro'siga putur yeta boshlaydi. Insonda xudbinlik (egoizm) kuchayib, jamiyat bilan aloqasi susayadi. Sezgining ahamiyati susayib, uning o'rninga aqlning ahamiyati ortib boradi. Bu bosqichda monarxiya o'rninga xalq xokimiyyati o'matishga intilish yuzaga keladi. Uchinchi bosqichda – jamiyat sotsiologiya (sotsial fizika) fanlari beradigan ijobiy bilimlar asosida qayta quriladi. Pozitiv (ijobiyl) fanlar tabiat va jamiyat qonunlari tartibini aniqlash bilan shug'ullanadi. Bu bosqichda oldingi bosqichlarda mavjud bo'lgan

nazariya va amaliyot o'rtasidagi ajralish tugatiladi. Jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan asos – bu bilim taraqqiyotidir.

Shuningdek, Kont "insoniylik dini" deb ataluvchi din yaratish tarafdori bo'lgan"[14].

Agarda, biz madaniyat xodisasiga to'g'ridan-to'g'ri emas balki unga sotsiologik nuqtai nazardan yondoshib o'rgansak, unda madaniyat jamiyat hayotini "chetdan kuzatuvchi" kamtaringina ijtimoiy hodisa bo'lmay, balki undan ham ko'proq kuchga ega bo'lgan jaryon ekanini bilishimiz mumkin. Ya'ni, u turli g'oyalar va qadriyatlar paydo bo'lishiga, ularning jamoatchilik tomonidan aktiv yoki passiv tarzda tan olinishiga sabab bo'lувчи, jamiyatda va kishi dunyoqarashiда yetakchi o'rinnegallagan xodisa ekanligini ko'ramiz. Demak, madaniyat sotsiologik nuqtai nazardan qaralganda – jamiyat a'zolari tasakkurida paydo bo'lgan va shu insonlar tomonidan inobatga olinadigan har qanday *fikr holatini* bildiradi. Jamiyat esa aynan ushbu *fikr holati* vujudga keltirgan madaniyat – ya'ni, "*oldinga yetaklovchi (namunali) madaniyat*" ichida yashaydi.

Kontning "rivojlanishning uch stadiya qonuniyati"ga ya'ni, bosqichiga qaytadigan bo'lsak, bu qonuniyat biz yuqorida aytib o'tgan jamiyat a'zolari ongida paydo bo'lgan va insonlar tomonidan inobatga olingan *fikr holatinidan* o'zga narsa emasligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, Kontning jamiyat rivojidagi uch bosqich haqidagi qarashi kishilar ongiga o'z ta'sirini o'tkazgan "*oldinga yetaklovchi (namunali) madaniyat*" ning natijasi yoki boshqacha aytganda ushbu "*yetaklovchi (namunali) madaniyat*" ning davomiyligidan kelib chiqqan rivojlanish\_bosqichlaridir, xalos. Kitobxon uchun yanada tushunarliroq bo'lishi uchun yuqoridagi *fikrni* tahlil qilib ko'ramiz. Ilohiyot (teologik) bosqichda *olamni diniy tarzda talqin qilish g'oyasi* ushbu jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinganligi uchun ham bu g'oya yashadi, bu g'oya asosida olamni ilohiy qabul qilishning yangicha ko'rinishlari vujudga keldi hamda turli ijtimoiy xatti-harakatlar va ijtimoiy institutlarning asosi sisatida qabul qilindi. Chuqurroq e'tibor bersak, ushbu g'oya kishilar ongida yuqorida aytigandek *fikr holati* sisatida vujudga kelgan edi lekin, bu *fikr holatini* vujudga keltirgan kuch esa aynan "*oldinga yetaklovchi (namunali) madaniyat*" ning natijasi bo'lganligini ko'rish mumkin. Metasifik bosqichda esa insonlar

olamni – *hodisalarning turli mohiyati va sabablari orqali tushunishni istaganliklari uchun ham, tanqidiy va skeptik nuqtai nazarda fikr yuritishgan*. Bu istak ham teologik bosqichda boʻlgani kabi kishilar ongida “*oldinga yetaklovchi (namunali) madaniyat*”ning turkisi bilan vujudgan kelgan *fikr holati* natijasidir, deyish toʻgʼri boʼladi. Uchinchi, ilmiy yoki pozitiv bosqichda jamiyatning ijtimoiy holatini tartibga soluvchi kuch, gʼoya (bu kuch ham – “*oldinga yetaklovchi (namunali) madaniyat*”ning natijasi oʼlaroq vujudga kelgan kuchdir) – bu ilm boʼladi.

Agarda, madaniyatga sotsiologik nuqtai nazardan yondoshilsa ilohiy yoki metofizik bosqichdagi dunyoqarash va gʼoyalar notoʼgʼri boʼlimganligini, ular bor yoʼgʼi shu davrdagi vaqt va zamon talablariga javob bergen va oʼz javoblari bilan ularni (teologik davrni) qoniqtira olgan *fikr holati* ekanligini koʼrishimiz mumkin. *Fikr holati* esa, taʼkidlab oʼtganimizdek “*oldinga yetaklovchi (namunali) madaniyat*” natijasidan oʼzga narsa emas. Demak, bunday koʼrinishdagi gʼoyalar va yetakchilik xususiyati bilan sugʼorilgan madaniyat (“*oldinga yetaklovchi madaniyat*”) jamiyatga, uning aʼzolari ongiga, dunyoqarashiga taʼsir koʼrsata olar ekan, tabiiyki, u oʼz-oʼzidan ijtimoiy xatti-harakatlarning asosi boʼlib qoladi va oʼz navbatida, ushbu jamiyat kishilari ongiga qanday taʼsir koʼrsatsa xuddi shunday javob oladi. “Notoʼgʼri” madaniyat boʼlimganidek, madaniyatdan kelib chiqqan dunyoqarashning va undan kelib chiqqan ijtimoiy xatti-harakaktlarning ham notoʼgʼrisi boʼlimaydi. “*Oldinga yetaklovchi (namunali) madaniyat*” bilan sugʼorilgan dunyoqarash va bu dunyoqarashdan kelib chiqqan gʼoyalar kishilarning ijtimoiy xulqiga taʼsir koʼrsatadi. Tabiiyki, jamiyatda qaiʼiy qaror topgan qonun-qoidalar asosida tuzilgan ijtimoiy tuzum, ijtimoiy institut va ijtimoiy faktlar aynan ana shu madaniyatning hosilasi boʼladi. Madaniyat hodisasiga va jamiyat tuzulishiga shu nuqtai nazardan qaralsagina ularni bir-biriga qarama-qarshi qoʼyib oʼrganish bemaʼnilik ekanligini koʼrishimiz mumkin. Madaniy yondashuv ham, ijtimoiy yondashuv ham aslida, bir jarayonga boʼlgan ikki hil yondashuvdir, xalos. Ijtimoiy hayotni empirik tahlil qilib koʼrsak, “ijtimoiy qism”ni “madaniy qism”dan umuman ajratib boʼlmaydi. Ular bir-birlari bilan “ipsiz” bogʼlangandirlar.

Ogyus Kont oʼzining “Pozitiv falsafa kursi” asarida jamiyatni “tirk sotsial organizm”[33]ga tenglashtiradi. Har qanday sotsial organizm esa

ijtimoiy hayotning barcha soxalarini o'zgartira oladigan turli qarashlarga, fikrlarga asoslanadi. Lekin, duch kelgan qarashlarga va fikrlarga emas, balki aksincha, aynan ijtimoiy hayotning barcha jabxalariga ta'sir ko'rsata oladigan kuchli qarashlargagina ahamiyat beradi. Ana shunday kuchli qarashlar va fikrlarni nemis saylasufi Fridrix Tyonbruk *intellektuallar yoki madaniy ekspertlar*[23]. deb ataydi.

#### **5.4. An'anaviy va industrial jamiyat. Ijtimoiy institutlar va ularning ahamiyati**

*An'anaviy jamiyat va industrial jamiyat.* Ularning belgilari. An'anaviy jamiyatda ega bolgan mulkchilik asosiy o'rinni egallaydi. Boylik tashqi manbalar asosiga qurilib, tabiat manbaalarini egallah, o'zlashtirish kuchayadi.

*Industrial jamiyatda mulkning barchu ko'rinishlariga bolgan munosabat shakllanadi.* Yirik mashina ishlab chiqarishi qo'l mehnati o'rniga kelib, yuksak mehnat unumdorligiga asoslangan ishlab chiqarishni izohlaydi. Avtomatik ishlab chiqarish vujudga keladi. Ishlab chiqarishda yuksak malakali ishchilarning roli ortib boradi. Natijada mashina yordamida standartlashgan operatsiyalar bajariladi. Xo'jalik sohasida sanoat va moliyaviy kapital ustunlik qiladi. Mahsulot bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Industrial jamiyatni iqtisodiy jamiyat deb atash ham mumkin. Chunki real borliq iqtisodga qartilgan bo'ladi. Natijada erkin xalqaro iqtisodiy hamkorlik mamlakat davlatlari qatoriga qo'shila boradi. Urbanizatsiyalashuv ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni, ommaviy madaniyatni vujudga keltira boradi.

"Mo'l-ko'llik jamiyat", "Ochiq jamiyat", "Yopiq jamiyat", "Iste'mol jamiyat", "Postindustrial jamiyat" kabi jamiyat turlari mavjuddir. Hozirgi kunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- Farovonlik (mol-ko'llik) jamiyat: - (Ko'proq G'arbda: Skandinaviya davlatini misol keltirish mumkin):
  - Iste'mol qilish jamiyat (AQSHda XX asr 40-50-yillarda yuzaga kelganligi bilan harakterlanadi);
  - Ochiq va yopiq jamiyat. Ochiq – demokratik jamiyat bo'lib tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib

o'tmoqqa moslashgan jamiyat. Yopiq jamiyat – dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan harakterlanadi;

➢ Industrial (sanoat) jamiyat. XX asr 50-60 -yillarida yuzaga keldi. Bu konsepsiya o'z mohiyatiga ko'ra markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya to'grisidagi ta'limotlarga qarshi qaratilgan;

Jamiyat tipini sinsiy strukturadan ajratib olib qaraydi «Industrial» jamiyat 2 bosqichda kechadi:

- «An'anaviy» jamiyatdan sanoat jamiyatiga o'tib boradi;
- Industrial jamiyat. U 3 bosqichda yuzaga keladi:
  - ✓ industrial jamiyagacha bo'lган davr;
  - ✓ industrial sanoat jamiyat davri;
  - ✓ postindustrial jamiyat davri.

Yuqoridaagi ta'riflar XX va XXI asr madaniy-tarixiy va siyosiy tizimlarni ta'riflash mezonlari sifatida qo'llanilmoqda.

*Ijtimoiy institutlar* deb. qadimdan mavjud bo'lган, vaqt va xalq sinovidan o'tgan, bugungi kunga kelib qadriyatga aylangan va barcha insonlar tomonidan rioya qilinadigan – ursf-odatlar, rusm-rusumlar, marosimlar, yozilgan va yozilmagan qonun-qoidalar, diniy, madaniy, axloqiy qarashlar yig'indisiga aytildi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, *ijtimoiy institutlar* – bu doimiy ravishda takrorlananish va qaytarilish xususiyatiga ega bo'lган ijtimoiy munosabatlar mexanizmidir.

O'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun har qanday ijtimoiy institut o'ziga mos va xos bo'lган tashkilotlarni (sohalarni) yaratadi va mazkur tashkilotlar orqali o'z faoliyatlarini olib boradi.

Jamiyatdagi asosiy ijtimoiy institutlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Oila ijtimoiy instituti;
2. Siyosat ijtimoiy institutlar;
3. Iqtisod ijtimoiy institutlar;
4. Ta'lim ijtimoiy instituti;
5. Madaniyat ijtimoiy instituti;
6. Din ijtimoiy instituti;
7. Sport ijtimoiy instituti;

*Ijtimoiy institutlarni rasmiy va norasmiy ijtimoiy institutlarga bo'lish mumkin.*

*Rasmiy ijtimoiy institutlar* deb – vazifalari, faoliyati, ish yuritish vositalari, usullari oldindan normativ-huquqiy hujjatlar orqali belgilab quyilgan va rasman tasdiqlangan farmon. buyruq, nizomlar va shu kabilar orqali tartibga solinadigan (amalga oshiriladigan) ijtimoiy institutlarga aytildi. Rasmiy ijtimoiy institutlar qat'iy iyerarkik asosda ishlaydi va ularni o'zgartirish juda qiyin masala. (Solishtirish tariqasida aytib o'tsak, norasmiy ijtimoiy institutda qat'iy qonun-qoidalar bo'lmaydi, lekin, yillar davomida shakllanib kelingan va o'zgartirish qiyinroq bo'lgan munosabatlardan iborat bo'ladi. Masalan, qaynona va kelin munosabati). Misol uchun, ularga davlat, sud, armiya, mакtab, oila (oila uni tartibga soladigan qonun hujjatlari asosida) va boshqalar kiradi. Rasmiy ijtimoiy institutlar o'zlarining boshqaruв va nazorat funksiyalarini qat'iy belgilangan rasmiy qoidalar, salbiy va ijobiy sanksiyalar asosida amalga oshiradilar.

*Norasmiy ijtimoiy institutlar* – faoliyati, olib boradigan vazifalari, ish usullari va uslublari rasmiy qoidalar bilan belgilanmagan, ammio ularning ish faoliyati jamoatchitlik tomonidan norasmiy sanksiyalar orqali nazorat qilib turiladigan norasmiy institutlarga aytildi. Ularga, norasmiy bo'lgan shaxsiy aloqalar, mijozlar bilan bo'lgan aloqalar, korrupsiya, qarimdosh-urug'chilik aloqalari, klanlarga bo'linish, nodavlat va notijorat tashkilotlari, urf-odat an'analari, xullas, norasmiy maqomga ega bo'lgan har qanday munosabatlар kiradi.

#### *Ijtimoiy institutlar funksiyalari:*

1. Ijtimoiy munosabatlарini yanada mustahkamlash funksiyasi;
2. Regulyativ (boshqaruvchanlik, tartibga soluvchanlik) funksiyasi;
3. Integrativ (makro va mikro sotsiologiyada qo'llanilib, turli qiziqishda bo'lgan odamlarni birlashtirish degani) funksiyasi;
4. Kommunikativ (aloqa o'rnatish) funksiyasi;
5. Translyasiya qilish (uzatish, yetkazish) funksiyasi;

*Xulosa.* Jamiyat va uning kelib chiqishi madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning paydo bo'lishi haqid bir necha tamoyillar mavjudligini ko'rib chiqdik. Jamiyat bilan bog'liq tamoyillar va tarixiy qarashlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, barchasi kishi jismoniy harakatlari va badan

tarbiyasining rolini inkor etmaydi. Shuningdek, kishilik taraqqiyotida an'anaviy va industrial jamiyatlarning, ochiq va yopiq jamiyatlarning o'rni ham katta ekanligi o'rganib chiqdik.

#### LJTIMOIV INSTITUTLARNING TUZILISHI VA FUNKSIYALARI (ayrimlari mazolida)

Ijtimoiy institutlar	Funksiyalar (vazifalari)	Aсосиy rollari	Jismoniy belgilari	Ramziy belgilari
Oila-nokon instituti	Nasli goldirish, g'arnitorlik va h.zo.	Ota-onas farzand	Uy-joy, jahozlar	Nikob uzisi, nikob sa'mtnomasi
Iqtisodiyot instituti	Oziq-ovqat, kivim-kachak kishilar bilan ta'minlash	Ish beruvchi, yollanmas ishchi, ishchi, sonarchi, haridor	Fabrika Qfis Do'kon kerxona	Pul satudo-sotiq markazlari, vakilmas va h.zo
Sivosiy institutlar	Qonunochidikni ishlab chiqish, qonunmu ishlash va h.zo.	Qonun chiqaruvchi, yaro'stuvchi, mazorat qiluvchi orzeler	Jamoarchilik binolari va davlat tashkilotlari	Bayroq G'arb Kodeks Xarbiya
Diniy institutlar	Ilohayilikka ishozitish, ma'naviy-zuliy qo'llab qurvalash va x.zo.	Rukoniyat, masjid imomlari, a'miqod qiluvchi kishilar	Masjid ibodatxona Cherkov va boshqalar	Qur'oni Karim, Oy va vulduz belgisi, Kixos belgisi va boshqalar
Ta'limo instituti	Savodli qilish, ta'limo-tarbiya berish	O'qituvchi muroddiy, o'quvchi shogird va h.zo.	Mazroi, universitet, olygoza, to'g'zalik	Diploma Attestat Fan nomzodligi diplomi
Jismoniy tarbiya va sport institutu	Sog'lemalashish, yuqori naziyalarni ko'retish va boshqa	Muraabbiy, trener, shogird va h.zo	Sport mazrabani, sport zallari, darsayni va bosh	Olimpiada i balqasi, olimpiada olori va bosh

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyatning kelib chiqish tarixi qanday? U nimalar bilan bog'liq?
3. Jamiyat tipologiyasi haqida gapirib bering.
4. Karl Marks nazariyasi qanduy tuzilgan?
5. Daniyel Bell nazariyasi qanduy tuzilgan?
6. Kishilik jamiyatni evolbsiyasida nimalarning o'rni katta bo'lgan?

7. "2017-2021 Harakatlar strategiyasi"da fuqarolik jamiyatni haqida nimalar deyilgan?
8. "2022-2026 yillar Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da fuqarolik jamiyatini tuzish uchun nimalar maqsad qilib olingan?
9. "O'zbekiston-2030" strategiyasida fuqarolik jamiyatini qurish uchun nimalar rejalashtirilgan?
10. Ijtimoiy institutlar deb nimalarga aytamiz? Ijtimoiy institut turlarini sanab bering.
11. Rasmiy va norasmiy ijtimoiy institutlarning farqi nimada? Ijtimoiy institutlarning funksiyalarini sanab o'ting.
12. Ogyust Kont nazariyasida jamiyatga qanday baho berilgan?
13. Kont o'zining "Poziiv falsafa kursi", "Uch stadiya qonuni" asarlarida nimalar degan?
14. Jamiyat madaniyat hodisasimi yoki tabiat (instinkt) mahsulimi?
15. "Oldinga yetaklovchi (namunali) madaniyat" deganda nimani tushunasiz?
16. Fridrix Tyonbruk kim bo'lgan va u qanday nazariyatni ilgari suradi?
17. Obyektivizm sotsiologiyasi nima degani?
18. Maks Veber, Georg Zimmel haqida gapirib bering.
19. "Ijtimoiy xulq" deganda nimani tushunasiz?

## MAVZU №6. SPORT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA

Reja:

1. Ijtimoiy institut tushunchasi. Sport ijtimoiy institut sifatida.
2. Sport va ommaviy axborot vositalarining o'zaro bog'liqligi.
3. O'zbek sporti: O'zbekiston va o'zbek sportchilari olimpiada o'yinlarida. O'zbek sportchilarida ma'anaviyat masalalari.

*Kalit so'zlar: sport ijtimoiy instituti, sport va OAV, tadbirlar, translyasiya, sog'lom turmush, Feyr Pley, sport va nizo, o'zbek sporti.*

### 6.1. Ijtimoiy institut tushunchasi. Sport ijtimoiy institut sifatida

Ijtimoiy institutlar deb, qadimdan mavjud bo'lgan, vaqt va xalq sinovidan o'tgan, bugungi kunga kelib qadriyatga aylangan va barcha insonlar tomonidan rioya qilinadigan – urf-odatlar, rusm-rusumlar, marosimlar, yozilgan va yozilmagan qonun-qoidalar, diniy, madaniy, axloqiy qarashlar yig'indisiga aytildi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, ijtimoiy institutlar – bu doimiy ravishda takrorlananish va qaytarilish xususiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlar mexanizmidir.

O'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun har qanday ijtimoiy institut o'ziga mos va xos bo'lgan tashkilotlarni (sohalarni) yaratadi va mazkur tashkilotlar orqali o'z faoliyatlarini olib boradi.

Jamiyatdag'i asosiy ijtimoiy institutlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Oila ijtimoiy instituti;
2. Siysat ijtimoiy institutlar;
3. Iqtisod ijtimoiy institutlar;
4. Ta'lim ijtimoiy instituti;
5. Madaniyat ijtimoiy instituti;
6. Din ijtimoiy instituti;
7. Sport ijtimoiy instituti;

*Sport ijtimoiy institut sifatida.* "Sport" tushunchasi qadimgi fransuz va ingлиз tillarining chatishmasidan vujudga kelgan bo'lib. "desporte" atamasi ma'nosida o'yinqaroqlik, xursandchilik, zavqdanmoq degan ma'noni bildiradi. Bugungi kunga kelib "sport" so'zining amaliy ahamiyati bir munkha o'zgargan. Endilikda "sport" deganda biz asosan yuqori

natijalarga erishish, musobaqalashish, professional shug'ullanishni tushunamiz. Garchi, shunga qaramay o'zining tub-tubida sport hali ham qaysidir ma'noda zaqlanish, tomosha ko'rsatish, muxlislarni o'ziga jalb qilish shaklida o'zining ilk mohiyatini saqlab kelmoqda.

I.M. Bixovskayaning qarashiga ko'ra jismoniy madaniyat bu insonning nafaqat o'z tanasi bilan ishlashi (garchi tanaga jismoniy ishlov berish odamni o'ziga ko'proq jalb qilsa-da), balki, jismoniy madaniyat – bu inson ruhiyati bilan ishlash, o'zining ichki olami bilan ishlashi va uni chiniqtira olishidir.

Jismoniy madaniyatni ikki aspekt nuqtai nazardan yondashiladi. ya'ni unga:

- a) jismoniy madaniyat – umumiy madaniyatning bir bo'lagi va ijtimoiy hayot tarzining bir shakli sifatida;
- b) jismoniy madaniyat jismoniy barkamollikka yetishishning o'ziga xos yo'lli sifatidadir;

Lekin yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, jismoniy madaniyat bir qancha chuqurroq mazmun-mohiyatni anglatadi. Jismoniy madaniyatning kelib chiqishi: a) tizmilashtirilgan (sistemalashtirilgan), tartibga solingan jismoniy harakatlar yig'indisini; b) badan tarbiyasini; c) umuminsoniy madaniyatning bir bo'lagini; d) sportni: ommaviy sportni, professional sportni, havaskorlik sportini bildiradi.

Jismoniy madaniyat albatta so'zsiz sport bilan bog'lanib ketiladigan tushunchadir. Agarda sportni o'zini madaniy va ijtimoiy institut sifatida tahlil qilib chiqadigan bo'lsov u quyidagi ko'rinishda bo'ldi:

*Sportga madaniyat nuqtai nazardan baho beradigan bo'lsak:*

- Sport jismoniy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib, madaniyatning o'ziga xos bir elementidir;
- Sportdag'i qadriyatlar aslida umuminsoniy va shaxsiy qadriyatlarning bir elementidir;
- Endi sportga ijtimoiy institut sifatida yondoshadigan bo'lsak:
- Sport ijtimoiy olamning bir bo'lagi bo'lib, u alohida ijtimoiy institut sifatida keladi;
- Sportning ichki va tashqi vazifalari aslida ijtimoiy olamda yuz beradigan vazifalarning bir elementidir;

*Ijtimoiy institutlar – bu qadimidan shakllangan, vaqt sinovidan o'tgan va hozirda kishilarining hatti-harakatlarini nazorat qilib ularni boshqaradigan me'yoriy-qariyatlar yig'indisidir.*

Ijtimoiy institatlarga: oila, din, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat, mudofaa, davlat kabi insonlar harakatini boshqaradigan me'yoriy-qadiriyatlar yig'indisini kiritilgan.

Bugungi kunga kelib sport ham alohida ijtimoiy institut sifatida o'z o'rniga ega bo'la boshladi. Albatta bunga sportning shaxs va jamiyat hayotidagi o'ziga xos fenomen ekanligi, sportning jamiyat va kishilar hayotidagi o'rni oshib borayotganligi 1965 yilda YUNESKO tomonidan tashkillashtirilgan "halqaro sport sotsiologiyasi" qo'mitasi keyinchalik esa assosiatsiyasining vujudga kelishi katta sabab bo'ldi.

*Keling sportning ijtimoiy institut sifatidagi o'ziga xosligini (ya'ni boshqa ijtimoiy institatlardan farqlanishini) ko'rib chiqamiz:*

- Sport aniq belgilangan ijtimoiy vazifalarni bajaradi;
- Sportning boy infrastrukturasi va moddiy bazasi mavjud;
- Sport sohasida professional kadrlarga bo'lgan ehtiyojning oshishi va professional kadrlani tayyorlashning ko'payib borishi;
- Sportga bo'lgan talabning oshishi va birgalikdagi uyushgan harakatlar bilan ularning qondirilishi;
- Sportda umumiyligi qadriyatlarning shakllanishi va ularning umuminsoniy qadriyatlar aylanishi;
- Kutilmagan, sport bilan bog'liq kutilmagan va keskin vaziyatlarda (stixiyali) yangicha ijtimoiy me'yor va qoidalarning paydo bo'lishi;
- Sport bilan bog'liq bo'lgan insonlarning (sportchilar, murabbiylar, sport menedjerlari, sport homiylari va boshqalar) sportda yangi me'yor va qoidalarning vujudga kelganligini tan olishi va ularga rioya qilishi;
- Jamiyat a'zolari tomonidan sportdagi yangi qonun va qoidalarning, me'yorlarning tan olinishi va qabul qilinishi;
- Sportdagagi me'yorlar, qonun va qoidalalar asosida yangicha sanksiyalarning qo'llanilishi va yangi sanksiyalarning amaliy ahamiyati, "obro'si"ni tan olinishi;
- Sport bilan bog'liq nufuzli maqomlarning va ijtimoiy rollarning paydo bo'lishi va jamiyat a'zolari tomonidan tan olinishi;

- Kishilarni “sport ijtimoiy instituti” raqmasida ushlab turadigan rasmiy va norasmiy hatti-harakatlarning mavjudligi;
- Sport ijtimoiy instituti olamidagi yangi qonun-qoidalar, sport me'yirlari va qadriyatlarning jamiyat qadriyatlari bilan uyg'un holda rivojlanishi (sport olamidagi qadriyatlarning jamiyat va davlat qadriyatlariga zid bo'lmashligi);
- Sport ijtimoiy institutining yangi qonun-qoidalar, sport me'yirlari va qadriyatlarning jamiyat a'zolari va davlat tomonidan tan olinishi;
- Sport ijtimoiy institutining mustaqil faoliyat yuritishi uchun moddiy mablag'larning mavjudligi va pul aylanmasining erkinligi;

*Sport ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:*

- tarbiyaviy funksiyasi (talabalarning shaxsini shakllantirishga ta'siri);
- ta'lim berish funksiyasi (jismoniy harakat ko'nikmalarini shakllantirish va malakaga aylantirish);
- me'yoriy funksiya (mashg'ulotlar davomida o'quvchi huquqiy-axloqiy bilim va saboqlar oladi shuningdek, o'quvchining jismoniy va ruhiy qobiliyatlarni rivojlanishi yo'lga qo'yiladi);
- Sog'lomlashtirish funksiyasi;
- Sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish funksiyasi;
- Kommunikativ (aloqalar o'rnatish) funksiyasi;
- Ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy quvvat olish funksiyasi (kundalik hayo'dagi bir xil, monoton turmush tarzini muvozanatlashtirish maqsadida. rang-baranglik kiritish);
- Ijtimoiy-integrativ funksiya (turli ijtimoiy qatlamlardagi kishilarni umulashtirish, birlashish maqsadida);
- Ijtimoiylashuv funksiyasi (kishining jamiyatga birikishida va ijtimoiylashishida jismoniy tarbiya va sportning roli va ahaniyatni);
- Madaniy-integrativ (milliy sport va milliy madaniyatning tiklanishi);
- Iqtisodiy funksiya (sportga kiritilgan mablag'larning o'z-o'zini qoplashi, sportni investitsiyalash);

- Estetik funksiyasi (kishining jismoniy va ma'naviy sifatlarining bir-biri bilan uyg'unlashishi);

## *2. Sportning tarkibiy va tizimli tashkil etilishi:*

- **Sport ijtimoiy tizim sifatida** – bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy olamning bir bo'lagi sifatida mavjud bo'lishi;
- **Sportning ijtimoiy tuzilishi bu** – sport bilan bog'liq bo'lgan kishilar, uyushmalar, jamoalar, guruhlar va turli tabaqadagi odamlarning o'zaro aloqasi;

### **Ommaviy sport:**

- Bolalar va o'smirlar (boshlang'ich va fundamental) sporti;
- Professional-amaliy sport;
- Sog'lomlashtiruvchi sport;
- Adaptiv sport kiradi.

### **Katta sport:**

- Yuqori natijalar ko'rsatish sporti;
- Tijoratlashgan-professional sport kiradi.

## **6.2. Sport va ommaviy axborot vositalarining o'zaro bog'liqligi**

Ommaviy axborot vositalari va sport o'zaro yaqindan bog'langan bo'lib, ular doimo bir-birini to'ldirib boradi, hamda jamiyatda o'z funksiyalarini bajarib boradilar.

### **Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ahaliyatga ega funksiyalari:**

Ma'rifat tarqatish funksiyasi;

Dunyoqarashni shakllantirish, rivojlantirish funksiyasi;

Mafkuraviy funksiya;

Targ'ibot va tashviqot qilish funksiyasi;

Ta'lim berish funksiyasi;

Tarbiyaviy funksiya;

Bo'sh vaqtini samarali o'tkazishni rejalashtirish funksiyasi;

***Sport va OAVlarining o'zaro aloqalari va bir-biriga ta'sir doirasi:***

### **1. OAVlarining sportga ta'siri:**

- Sport tadbirlarini yoritib borish;
- Sog'lom turmush tarzi va faol dam olishni targ'ib qilish;

- Aholi o'rtaida tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- Jismoniy tarbiya va sportni – qadriyat sifatida tanitish;
- Yoshlarni tarbiyalash va ta'lim berish;

**2. Endi esa sportning OAVlariga bo'lgan ta'sirini ko'rib chiqamiz:**

- Sport musobaqalarini translyasiya qilish jarayonida OAVlarining auditoriyasining kengayishi;
- Sport tadbirlarini translyasiya qilish paytida reklama qilish vaqtini sotish va musobaqlarning to'g'ridan-to'g'ri translatsiyasi paytida reklarmalar sonini ko'paytirish;
- Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarini bajarishiga hissa qo'shish;

***Sport va ommaviy axborot vositalarining o'zaro ta'siri muammolari:***

- Sport bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yetarlicha oolib berilmagan;
- Jismoniy tarbiya va sport bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-omnabop, xujjatlilmlarning kamligi;
- Ommaviy kanallarda sportning ta'limiga bag'ishlangan dasturlarning va sport darslarining kamligi;
- Sportning ma'nnaviy-estetik muammolariga yetarlicha e'tibor berilmasligi;

Sportdagi disfunktsional harakatlarning paydo bo'lishi va uning ko'rinishlari (*lotin tilidan: dys - yomon, qiyinlashgan va functio - harakat, amalga oshirish. Disfunksiya – sotsiologik tushuncha sifatida u ma'lum bir funksiyaning noto'g'ri hajarilishini anglatadi*):

- Sportchining sog'lig'iga zarar keltiradigan deviant (me'yordan tashqari bo'lgan) fe'l-atvorning paydo bo'lishi (trenirovkalarining o'ta mashaqqatli bo'lishi, jarohatlar bilan musobaqalarga qatnashish va musobaqalar jarayonida travmalar olish);
- Feyr Pley prinsipining (tamoyilining) buzilishi (boping qabul qilishi, g'alabalarning oldindan kelishib sotib olish, musobaqa jarayonidagi g'irromliklar va boshqalar);

- Sportchining o‘z raqibiga, jamoadoshiga, o‘z hamkasbiga nisbatan nohaqlik qilishi yeki o‘zini unga nisbatan antisotsial (yopiq, keskin, do‘stona bo‘limgan tarzda) tutishi;
- Muxlislar tomonidan agressiya, tajavuzkorlik va zuravonlikning mavjud bo‘lishi;
- Ayrim sportchilarning o‘z jismoniy kuchiga ishonishi natijasida o‘zidan “kachok”larni paydo qilishi va jamiyat orasida “kachok”lar kultini paydo qilishi;

*Sport faoliyatining ijtimoiy-madaniy olam bilan bog‘liqliklari va uning ko‘rinishlari:*

- Sport va nizo. Sport olamida ziddiyatli, baxsli vaziyatlarning kelib chiqishi ehtimoli kattalashishi;
- Sportdagi nizo (ziddiyatlarning) kelib chiqishiga sabablardan biri bu turli madaniy qadriyatlarning har-hilligi bilan bog‘liq. Ya’ni jismoniy-madaniyat qadriyatlar to‘qnashuvi. Chunki ayrim xalq madaniyatlarida sport qadriyatları boshqa xalqlarning sport qadriyatlaridan tamomila farqlanishi ham mumkin va aksincha, bir-biriga o‘xshash jixatlari mavjud bo‘lishi ham mumkin;
- Sportda yuqori natijalarga, muvaffaqiyatga erishishda “sport va texnologiyalar”ning o‘zaro aloqalarining doimo ham kutilgan natijalar bermasligi;

### 6.3. O‘zbek sporti: O‘zbekiston va o‘zbek sportchilari olimpiada o‘yinlarida. O‘zbek sportchilarida ma’anaviyat masalalari

*1996-2020 yillarda O‘zbek sport.* XX asr o‘rtalariga kelib O‘zbekiston sport sohasi rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin oldi. Shu davrdan boshlab O‘zbekistonda jamoaviy o‘yinlardan – voleybol, basketbol, futbol, xokkey, gandbol; yakka turdag‘i sport turalariga – boks, kurash, erkin kurash, belbog‘li kurash, badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, tennis, suzish, sinxron suzish, shaxmat, shashka, yengil atletika, og‘ir atletika kabi sport turlari ommalasha boshladi va rivojlandi.

Shu yillar davomida sport sohasida O‘zbekiston ko‘pgina yutuqlarga va g‘alabalarga erishgan. Ayniqsa Olimpiada o‘yinlarida o‘zbek

kurashchilarini va bokschilarining ko'rsatgan natijalari yuqori bo'lib, ular g'oliblik shox-supasini bir necha bor o'z qo'llarida ushlab turishgan.

O'zbek sporti boy tarixga ega bo'lib, u o'zining bir qancha champion va Olimpiada g'oliblari bilan faxrlanadi. Mustaqil davlat sifatida ilk bor 1994 yili Qishki Olimpiada o'yinlarida ishtiroy etgan. Shu o'rinda aytib o'tmoq kerakki, 1992 yilga tashkil qilingan va 1993 yilda tan olingan MOQ (Milliy Olimpiada qo'mitasi) tashkil etilmaguncha O'zbekiston Olimpiada o'yinlariga sobiq Ittifoq tarkibida bo'lib qatnashgan. Bu degani O'zbekiston o'zi mustaqqil bo'lib Olimpiada o'yinlariga qatnasha olmagan va o'z sportchilarini O'zbekiston sportchilari deb e'lon qila olmagan. O'zbekistondan chiqqan va o'zbek murabbiylari tayyorlagan sportchilarning hammasi SSSR sportchilari, deb hisoblanganlar.

Yozgi Olimpiada o'yinlarida esa O'zbekiston mustaqil davlat sifatida ilk bor 1996 yilda ishtiroy etgan. Shunda buyon O'zbekiston 1996 yil – Atlantadagi XXVI o'yinlarda; 2000 yil – Sidneydagı XXVII o'yinlarda; 2004 yil – Afinadagi XXVIII o'yinlarda; 2008 yil – Pekindagi XXIX o'yinlarda; 2012 yil – Londondagi XXX o'yinlarda; 2016 yil – Rio-de-Janeyrodagi XXXI o'yinlarda; 2021 yil – Tokiodagi XXXII o'yinlarda qatnashib kelmoqda. Umumiy hisobda 1996-2020 yillar oraliq'ida 60 dan ortiq sportchilar Olimpiada o'yinlarida ishtiroy etganlar va g'alabalarni qo'lga kiritganlar.

Mazkur Olimpiada o'yinlarida eng yuqori o'rirlarni egallagan sportchilardan Oksana Chusovitina, Artur Taymazov, Muhammadqodir Abdullayev, Xasanboy Dusmatov, Bahodir Jalolov, Aleksandar Dokturishvili, Lina Cheryazova, Arsen Fadzayev, Maharbek Xadarsov, Fazliddin G'oibnazarov, Ramil Ganiyev, Andrey Abduvaliyev, Lyubov Perepelova, Go'zal Xubbiyeva, Vitaliy Smirnov, Leonid Andreyev, Svetlana Radzivil, Nadiya Dusanova va boshqalardir.

*2023 yilgi Osyo o'yinlari: O'zbekiston terma jamoasining g'olib va sovrindorlari:*

Osyo o'yinlari dastlab 2022 yilda o'tkazish rejalashtirilgan bo'sada, biroq koronovirus pandemiyasi tusayli 2023 yilga qoldirilgan edi. 2023 yilda o'tkazilgan Osyo o'yinlari "Xanchjou - 2022" da O'zbekistondan qatnashgan sportchilarning fidoiyiligi va tirishqoqligi tusayli 71 ta medal

qoʻlga kiritilgan. Shulardan 22 ta oltin medal, 18 ta kumush medal va 31 ta bronza medali qoʻlga kiritilgan. Medallar hisobida Oʻzbekiston terma jamoasi beshinchı oʻrinni egalladi. Jamoaga eng koʻp sovrirlarni dzyudochilar (3 oltin, 2 kumush va 4 bronza), kanoyeda eshkak eshishda (1/3/3), eshkak eshishda (2/4/1), kurashchilar (4/1/1) va tayekvondochilar (1/4/4) olib keldilar. Kurash bahslarida Oʻzbekiston yana 1 oltin va 5 bronza medalini qoʻlga kiritdi. Jamoaviy bahslarda yagona medal bronza boʻlib, uni erkaklar futbol jamoasi qoʻlga kiritdi.

Bunda jismoniy tarbiya va sport inson tanasini chiniqtirish orqali tanada ruhning imkoniyatlarini kengaytiradi. Inson ruhining barqarorligi milliy gururni ham shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qalb va ruh mutanosibligi uchun qalbning kengligi talab qilinadi. Qalb kengligi jismoniy tarbiya va sport orqali ham shakllanadi. Negaki, inson jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugʻullanishi natijasida u oʻzida jismoniy qiychiliklarni his qila boshlaydi. Qiychilik va azobni oʻz tanasidan oʻtqazib, uni his qiladi. Bu esa insonning qalbini chiniqishiga olib keladi. Natijada inson qalbining ulgʻayishiga yordam beradi. Inson ichki dunyosining boyishida ham jismoniy tarbiya va sportning oʻrnini kattadir. Inson ichki dunyosi maʼrifat bilan boyib boradi. Maʼrifatli boʼlish asosida ham mashaqqat yotadi. Mashaqqatning mohiyatini jismoniy jihatdan chiniqqan insongina toʻliq anglab yeta oladi. Umaman olganda jismoniy tarbiya va sportning maʼnaviy qadriyatlarni rivojiga taʼsiri insonning shaxs boʼlib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishini koʻrsatadi.

Har bir xalqning sogʻligi xotin-qizlarning salomatligiga bogʼliq boʼladi. Hatto shu xalqda xotin-qizlarning ozodalikga qanchalik darajada eʼtibor qilishi ham ularning salomatlik darajasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ona sogʼlom boʼlsa farzand ham sogʼlom dunyoga keladi. Uning keyingi hayoti ham asosan onaning sutiga, jamiyatning ozodaligiga bogʼliq boʼlib boradi. Shuning uchun ham bizning bugungi jamiyatimizda xotin-qizlar salomatligi masalasiga alohida eʼtibor qaratib kelinmoqda. Xotin-qizlar salomatligini taʼminlovchi asosiy mezonlardan bir sisatida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga, unda xotin-qizlar faoliyagini oshirishga xizmat qiluvchi masalalar oʼrganib borish zaruriyat boʼlib bormoqda.

**Xulosa:** Sport ijtimoiy institut sifatida o'rganilar ekan, uning maqsadalari va vazifalari oydinlashtiriladi. Sport institutining ichki tartibi yaratiladi, natijada sport iqtisodiyot, madaniyat, sog'liqni saqlash, din hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida integratsiyalashadi. Sportning milliy modellari biznes yuritishning umumiyligi madaniy an'anasi sifatida paydo bo'ldi, bu katta sportda sportni boshqarishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Milliy mentalitet sportning ma'lum bir turiga nisbatan ma'lum munosabatni tarbiyalaydi va sportning ijtimoiy-madaniy dinamikasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sport jismoniy madaniyatning bir bo'lagi deganda nimani tushunasiz?
2. Sportda umuminsoniy va milliy qadriyatlar.
3. Ijtimoiy institut deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy institutlarga nimalar kiradi?
4. Sport ijtimoiy institutlar qatoriga kiritilishiga sabab nima?
5. Sportning ijtimoiy institut sifatidagi funksiyalari (vazifalari) nimalardan iborat?
6. Sport ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida qanday funksiyalarni bajaradi?
7. Ommaviy sport va katta sportning farqi nimada?
8. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy funksiyalari nimalardan iborat?
9. OAVlarining sportga bilan bo'lgan aoqalari va ularning sportga bo'lgan ijobiy yoki salbiy ta'sirini izohlab bering? Sportning OAVga bo'lgan ta'siri qanday?
10. Sport va OAVlarining o'zaro bog'liqliklaridagi muammolar qanday?
11. 1996-2020 yillardagi o'zbek sporti. O'zbekistondagi qaysi nufuzli sportchilarni bilasiz?

## MAVZU №7. SPORTDAGI SOTSILOGIK MUAMMOLAR

### Reja:

1. Jamiyat taraqqiyotida sportning o'rni. Sportning zamonaviy muammolari.
2. Sportda gumanizm, olimpiya harakati va yuqori natijalar rivoji masalalari.
3. Sport va xalqaro mojarolar. Zamonaviy sportda Fair Play tamoyillariga rioya qilish muammosi.

*Kalit so'zlar: Ijtimoiy-siyosiy omillar, Ijtimoiy-madaniy omillar, gumanizm, sportda gumanizm, olimpiya harakati. Per de Kuberten, kibrsport, ekstremal sport, Fair Play.*

### 7.1. Jamiyat taraqqiyotida sportning o'rni. Sportning zamonaviy muammolari

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi iqtisodiy taraqqiyotning notekisligi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarning kuchayishini uchratar ekanmiz, bu jarayon jismoniy tarbiya va sport sohasiga ham tegishli ekanligi ko'rishimiz mumkin. Aynan shu vaziyatda sport sotsiologiyasi o'zining alohida o'rniiga ega bo'lib, u mavjud sport sohasidagi muammolarni o'rganish, tahlil qilishi va ularni bartaraf etishning eng optimal yo'llarini taklif qiladi. Bugungi kunga kelib sport bilan bog'liq bo'limgan va yoki sport bilan aloqaga kirmagan biron ta soha mavjud emas. Chunki sportning tarkibiy qismi bo'l mish ommaviy sport, professional sport, olimpiya harakatlari davlatning yuzi, jamiyatning esa ham ma'naviy, ham jismoniy qadriyati hisoblanadi. O'z navbatida jismoniy madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir bo'lagiga aylanib bo'lganini inbotga olsak, u o'z navbatida zamonaviy shaxs uchun ham ham ijtimoiy, ham shaxsiy qadriyat bo'lib bormoqda. Sportning ijtimoiy olamga, hususan oila, din, iqtisod, sog'liqni saqlash, madaniyat, ekologiya kabi ijtimoiy institutlarga intensiv ravishda kirib borayotganini inbatga olsak, sportdan kundalik turmushda samarali soydalishning yangicha usullarini va taktikasini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu jarayonning yuz berishiga esa davlat tuzilishining, siyosatning yangicha bosqichga ko'tarilishi, bundan-da yana siyosatning insoniy lashishga bo'lgan o'zgarishi sportning nusuzining

oshishiga, sportchilarning mashhur bo'lib borishiga, jismoniy madaniyatga munosabat yanada yuqorilashishiga sabab bo'ldi. Insonlar daromadining oshishi, ta'limning optimallashishi, inson omiliga bo'lgan munosabat-larning yaxshilanishi, inson turmush tarzining o'sishi odamlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi darajasini ko'tarib berdi.

Shunga qaramay sport sohasida hali-hanuz yaxshilanishi bundan-da kerak bo'lgan yo'nalishlar bor-ki, ularga bolalar va o'smirlar sportini, ayollar spotini, professional sportni, olimpiya harakati sportini o'zbek jamiyatidagi nufuzini oshirish va ularni nafaqat maxsus tayyorgarlik ko'rgan sportchilar uchun, balki jamiyatning har bir a'zosi uchun yetarli qilib berish lozim.

*Sportning ijtimoiy muammolari.* Ma'lumki, har qanday sohanining muammolari ushbu sohani komponentlari, uni qismlari bilan tug'ridan-tug'ri bog'liq bo'ladi. Jismoniy madaniyat va sport sohasi ham bundan mustasno emas. Jismoniy madaniyat nuqtai-nazaridan olib qaraydigan bo'lsak sport sohasidagi muammolarga kishilarning o'z ehtiyojlarini qondirishga va shu orqali o'z hayotiy sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan intilishlar yotadi.

#### *Jismoniy madaniyatni ommalashtirish orqali uni ommabop qilish.*

Kishilik jamiyatida tabaqalashuvning yo'qolib borishi va tenglik g'oyasi hamma sohaga, shu jumladan sport sohasiga ham kirib kelishi natijasija, jamiyatda "omma"ning o'rni orta boshladи. Xo'sh, omma o'zi kim va ommaviy madaniyat deganda nimani tushunishimiz kerak? Jismoniy madaniyatning esa ommaviy madaniyatdagi o'rni qanday? Ommaviy madaniyatda jismoniy madaniyat qanday ko'rindi, keling shu savollarga javob berishdan avval, ommaviy madaniyat o'zi nimia ekanligi bilan tanishib olsak.

Ommaviy madaniyat – madaniyat o'ziga xos shaklidir. Ko'p hollarda ommaviy madaniyat deyilganda G'arb madaniyatini bilan qorishib ketgan, sharm-hayosizlikdan, ma'naviy soyda keltirmaydigan, didsizlikdan iborat bo'lgan madaniyat sisatida talqin qilinadi. Ommaviy madaniyat paydo bo'lishining ijtimoiy – iqtisodiy ildizlari yirik sanoat ishlab chiqarishning paydo bo'lishi bilan bog'liq. XX asrda radio, kino, video, televedeniye, kompyuter va internat tizimining paydo bo'lishi natijasida ommaviy

madaniyat rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Qudratli quroqla aylangan reklama, moda kabi vositalar yordamida ommaviy ko'rinishdagi iste'molchilikning kelib chiqishi, elitar madaniyatni, intellektual faoliyatni, jismoniy mehnatni siqib chiqariliishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida insonlarning kam harakatliligi, o'tirib ish faoliyatini olib borishi, internet o'ynlariga mukkasidan ketishlik va ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodning passiv bo'lib borishi kelib chiqdi. Bunday salbiy holatni ijobiy tomonga o'zgartirish maqsadida jismoniy madaniyatni va sportni ommalashtirish va uni ommabop qilish, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish kabi harakatlar boshlanib ketdi.

Umuman olganda ommaviy sport bu – jamiyatning ijtimoiy sohalaridan biridir. Uning asosida insonlarning jismonan sog'lom bo'lish, jismoniy reabilitatsiyasi, jismoniy harakatlarini oshirish orqali sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish ehtiyojlari yotadi. Mazkur ehtiyojlar sabab jismoniy madaniyat va sport vaqt o'tishi bilan alohida ijtimoiy institut bo'lib ajralib chiqdi. Insonlarning jismoniy harakatlarga bo'lgan ehtiyojlari sekin-asta ommaviy jismoniy madaniyatning kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Ommaviy jismoniy madaniyatni rivojlantirish axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u odamlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilishning muhim omili sifatida, sog'lom turmush tarzi mehyorlarini ishlab chiqish sifatida va yomon odatlarga (tamaki chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, giyohvandilik kabi) berilmaslik, ulardan voz usuli sifatida qaraladi.

Jismoniy madaniyatning ommaviy harakteri ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy omillar bilan belgilandi. Keling ushbu omillarni jismoniy madaniyatga bo'lgan ta'sirini va ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

**Ijtimoiy-iqtisodiy omillar.** Iqtisodning kishilar hayotidagi o'rnini qanchalik muhim ekanligini bilish qiyin emas. Kundalik hayotimizda yeb-ichib, kiynib, uy qurib – o'z-o'zimizni moddiy ta'minlar ekanmiz, buning hammasi iqtisod bilan bog'liqligini tushunamiz. Iqtisod jamiyatning barcha sohalari bilan bog'liqdir. Sport sohasi ham bundan mustasno emas. Chunki jismoniy madaniyat va sport ijtimoiy olamning ajralmas bir qismi bo'lib, u

ham o'zining ijtimoiy-iqtisodiy omillariga ega. Omillardan eng asosiysi bu – iqtisod sportning rivojlanishini ta'minlab berishidir.

Mainlakat iqtisodiyoti jismoniy tarbiyani samarali olib borish uchun barcha qulay sharoitlarni yaratib berishi kerak. Sport moddiy bazasining iqtisodiy rivojlanishga bog'liqligi aniq-tiniq ko'rinish turibdi. Dastlab, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari sport uchun maxsus yugurish yo'llari, suzish havzalari kabi sharoitlar yaratib bershni talab qilmagan bo'lsada, endilikda esa vaziyat o'zgardi. Aholining jismonan sog'lomi bo'lishi uchun davlat siyosatida katta e'tiborlik ishlar amalga oshirildi va amalga oirilmoqda. Hozirda maxsus sport jihozlari bilan qurilmalar paydo bo'lmoxda, gimnastika anjomlari, o'yin maydonchalari, stadionlar, suzish havzalari, sport o'yinlari uchun zallar, konkida uchish maydonchalari, chang'i tog'lari va boshqalar yaratildi. Jismoniy tarbiya mashqlari uchun sun'iy muhit yaratildi, ya'ni, maxsus mashg'ulotlarni amalga oshirish imkon beruvchi stimulyatorlarni yaratish boshlandi. Iqtisodiyotning rivojlanishi jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qo'llab-quvvatlash, shuningdek jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga xizmat ko'rsatishda moliyaviy, kadrlar va ilmiy yordam ko'rsatish imkonini berdi. Sport sohasida iqtisodiyotning rivojlanishi odamlarning jismoniy ehtiyojlarini qondirishiga sabab bo'ldi. Muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan insonlarning mehnat sifati yuqori bo'lib, ular jamiyatga va faoliyat olib borayotgan korxonalariga bir muncha ko'proq foyda keltiradilar. Chunki, jismonan sog'lomi va chiniqqan inson ko'proq ish qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

*Ijtimoiy-siyosiy omillar.* Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi siyosatning amaldiga roli bu – sport bilan bog'liq bo'lgan harakatining huquqiy va siyosiy tomonlarini tartibga solish, uning jamiyatdagi mavqeini aniqlashdan iboratdir. Davlat siyosati odamlarning jismoniy tarbiya faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoit yaratadi va shu bilan birgalikda, aholining mansaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularning sport bilan shug'ullanish huquqini ta'minlaydi. Shuningdek, davlat siyosati jismoniy madaniyat va sportning davlat uchun foydali bo'lgan ijtimoiy jihatlarini (vazifalarini) rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratuvchi vazifasini ham bajaradi.

Shunday qilib, jismoniy madaniyat ham boshqa sohalari kabi siyosatga xizmat qiladi. Zamonaviy davlat tuzilmalarida jismoniy tarbiyani boshqaradigan, odamlarning jismoniy faolligini nazorat qiladigan, ularni qo'llab-quvvatlaydigan va rag'batlanadiradigan rasmiy tashkilotlar ko'plab mavjud va biz ham bu jarayonlardan ijobiy saboq olmog'imiz lozim.

*Ijtimoiy-madaniy omillar.* Ijtimoiy-madaniy omillarga ijtimoiy ong, milliy mentaliteti, axloqiy me'yorlar, badiiy qarashlar, diniy e'tiqodlar, fan va san'at va shu kabilarni kirlitsak bo'ladi.

Sotsiologyaning asosiy vazifalarining biriga ijtimoiy-madaniy omillarni o'rghanish va ijtimoiy-madaniy omil sistida aholining jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanishini yo'lga qo'yish kiradi. Demak bunda, turli gurux qatlamlari orasida jismoniy tarbiyanii targ'ib etish, jismoniy tarbiya va sportni qadriyatga aylantirish lozim bo'ladi.

Qadriyatlilik tushunchasini shakkantirish mexanizmi ko'p jihatdan jismoniy tarbiya va sportning foydaliligi, targ'iboti, reklamasi, jismoniy tarbiya sisati, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari to'g'risidagi jamoatchilikning erkin sichti orqali belgilanadi.

Jismoniy tarbiyaning ahamiyatini oshirish, yosh avlodda sog'lom turmush tarziga mazmunli munosabati shakkantirish va umuman, millat salomatligini mustahkamlashda davlatning siyosiy faoliyati alohida o'rinn tutadi.

Ijtimoiy-madaniy omillar jismoniy madaniyatni rivojlantirishda harakat yo'nalishini belgilaydi, unga maqsadga muvofiqlik beradi, uni ma'naviyat, maskuraviy va qadriyat mazmuni bilan to'ldiradi.

Shu bilan birga, jismoniy madaniyat jamiyatning ma'naviy hayotiga ham ta'sir qiladi. Barcha asrlar davomida tana go'zalligi estetik qadriyatlardan biri sisatida baholangan, bu rassomlarning rasmlarida, haykaltaroshlarning haykallarida, miniatyura san'atida, raqs va balet san'atida va shu kabi boshqa san'at asarlarida namoyon bo'ladi.

## 7.2. Sportda gumanizm, olimpiya harakati va yuqori natijalar rivoji masalalari

Olimpiya harakatlari zamonaviy olalining ijtimoiy hayotida muhim o'rnilardan birini tutadi. Zamonaviy Olimpiya harakatining asoschisi Per de

Kuberten va uning izdoshlari Olimpiya harakatini insonlar o'tasidagi do'stlikni va o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradigan kishilarning ijtimoiy faoliyatining mahsuli bo'ladi deb umid qilishgan. Per de Kuberten Olimpiya harakatini insonlar o'tasidagi do'stlikning ramzi va umuminsoniy qadriyatga sifatida qabul qilinishi uchun harakat qilgan.

Lekin bugungi kunga kelib Olimpiya harakati qaysidir ma'noda o'zining asosiy maqsadini unutib qo'gandek tuyuladi. Hozirda Olimpiada o'yinlari ko'proq turli davlatlarning o'zlarini tanitishga bo'lgan intilish bilan, o'zlarining kuchlarini namoyon qilish bilan, sportchilarning esa moddiy mansaatni ko'zlarishari bilan to'lib-toshgan. Ayniqsa, Olimpiya harakatining tijoratlashib borishi uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib bormoqda. Eng achinarliси aynan do'stlik maqsadida tuzilgan bu harakat borgan sari do'stlik bilan emas tijorat bilan yo'g'rilib borishini uchratmoqdamiz. Shu darajaga borib yetildiki, hattoki, Olimpiada o'yinlari, Osiyo o'yinlari, Jahon championatlari va boshqa o'ynlarning o'tkazilish vaqt, joyi va shart-sharoitlari sportchilarning mansaatlari va istaklarini inobatga olib emas, balki, xomiylar, reklama beruvchilar, OAV buyurtmachilari va menedjerlar mansaatlарini inobatga olib, ularning buyurtmasalri asosida belgilanmoqda.

Olimpiadaga kiritilgan sport turlari orasida borgan sari g'ayriinsoniy harakatlar, an'analar rusum bo'lib bormoqda. Ularda shafqasizlik, qat'iy raqobat, o'zaro dushmanlik, bir-biriga ziyon yetkazish, murosasizlik, bir-birini kalaka qilish, doping masalasi, sportdagi firibgarlik kabi Olimpiada harakatlariga mutlaqo zid bo'lgan harkatlarni kuzatishimiz mumkin.

Olimpizmning zamонавиј ко'риниші qadimgi yunon Olimpiya o'yinlaridagi tinchlikparvarlik an'analaridan va Per de Kuberten istagan havaskorlik sporti va undagi do'stlik g'oyasidan ancha uzoqdir. Zamонавиј оламning ijtimoiy-madaniy talabiga ko'ra sport o'yinlarining yangi va yangi qoidalari yaratilmoqda. Shunday bo'lsada, bugungi kunda Olimpiya harakatida vujudga kelgan bunday g'ayri insoniy talablarning mavjudligi vaqt o'tishi bilan chin Olimpizm harakatining so'l maqsadlarini tiklashga turki bo'lib qolishi mumkin. Agarda jamoatchilik, ijtimoiy-madaniy olam yoshlар orasida Olimpizm harakatini shakllantira olsa, unda vaqt o'tib biz,

har qanday manfaatlardan voz kechilgan, sof Olimpizm harakatiga erishamiz.

### *Yuqori natijalar sporti: kutilayotgan naijalar.*

Yuqoridagi fikrlardan shuni bildikku, sport doimo ham biz kutgandek gumanizm (insoniylik) bilan to'lgan faoliyat bo'lib qolmaydi. Unga bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy ta'sirlar ostida u o'zining asl maqsadini o'zgartirib yuborishi ham mumkin ekan. Shunday ekan, XXI asrga kelib sportga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan va uning o'zgarishiga (ijobiy yoki salbiy tomoniga) sabab bo'ladigan ayrim jarayonlarni ko'rib chiqamiz:

- Sportning demokratlashishi, geografik jihatdan keng yoyilishi, demografik jihatdan keng ommaga tarqalishi;
- Yangi va yangi sport turlarining paydo bo'lishi;
- Ekstremal sport turlarining shakllanishi;
- Kibrsportning ommalashuvi va uning yangi shakllarining paydo bo'lishi;
- Ommaviy sportning rivojlanishi va ommabop bo'lib borishi;
- Professional sportning rivojlanishi;
- Sportdag'i texnika va usullarning yangicha ko'rinishlarining vujudga kelishi va rivojlanishi;
- Sport texnikasining yangicha usullari orqali yuqori natijadorlikka erishish;
- Ayollar sportining rivojlanishi;
- Ayollar havaskorlik sportining ommaboplashishi;
- Ekstremal-ayollar sportining rivojlanishi;
- Bolalar va o'smirlar sportining rivojlanishi;
- Bolalar va o'smirlar havaskorlik sportining ommalashuvi;
- Milliy va xalqaro miqyosdagi sport musobaqalarini o'tkazishni ko'paytirib borish;
- Sportni o'rganuvchi maxsus ilmiy fanlarni ko'paytirish va rivojlantirish;
- Sport va jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiyani targ'ib qiluvchi, uni ilmiy jihatdan o'rganuvchi, ilmiy-ommabop va xujjatli filmlarni tayyorlovchi O&V (ommaviy axborot vositalari)ni yo'lga qo'yish;

➤ sport inshootlarining kuchli ixtisoslashtirilgan tizimini yo'lga qo'yish;

➤ Yangi turdag'i xalqaro sport tashkilotlarini yo'lga qo'yish va ularni jadal rivojlantirish;

### 7.3. Sport va xalqaro mojarolar

➤ Ijtimoiy ahamiyatga ega har qanday sohada ma'lum vaqt oralig'ida nizolar muqarrar, chunki jamiyat hayoti deyarli doimiy ravishda o'zgarib turadi va bu maskuralar, innovatsiyalar va an'analarning to'qnashuviga, ish shakllari, usullarining samaradorligini muhokama qilishga olib keladi.

➤ Zamonaviy jamiyatda nizolarning muqarrarligi tajovuzkorlikning kuchayishi, zo'ravonlik, keng tarqalgan terrorizm, kelajak qo'rquvi, ma'lum bir shaxsning va umuman insoniyatning faoliyatini strategik belgilovchi tushunchalar to'qnashuvi, ularning mavjudligini rag'batlantirmoqda.

Xo'sh, nizo nima bilan tavsiflanadi?

➤ u har doim qandaydir kelishmovchilikka, qarama-qarshi mansaftlar, sikrlar, pozisiyalar to'qnashuviga asoslanadi;

➤ ishtirokechilar ushbu qarama-qarshilik tufayli noqulaylik his qiladilar va bu ziddiyatni bartaraf etish uchun harakat qiladilar;

➤ bu shaxslararo munosabatlarda hissiy keskinlik va "qizishib ketish"ga olib keladi.

Sportdagi nizolarning asosiy sababi sifatida:

- O'zingiz xohlagan yoki kerakli narsani ololmaslik (ta'lim, o'quv yoki raqobat jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq kamchiliklar, ma'naviy va moddiy rag'batlantirish vositalaridan to'liq va noto'g'ri foydalanish va boshqalar)ni korsatish mumkin.

➤ Sport mahoratiga asos bo'lgan o'ziga xos va kasbiy fazilatlar darajasi (ekstremal vaziyatlarda sport jamoalari a'zolarining jismoniylari va texnik tayyorgarligi teng bo'limgaganligi da'volar, ayblovlari yoki birligidagi harakatlarni rad etish uchun sabab bo'ladi).

➤ Sportchilarning jinsi, yoshi va bo'yisi va vazni ko'rsatkichlari (akrobatiqa, figurali uchish, gimnastika va boshqalar).

➤ Psixofiziologik xususiyatlardagi farqlar (axborotni qabul qilish va fikrplashning tezligi, bajariladigan harakatlarning tempi va ritmi).

- O'zaro ta'sir qiluvchi tomonlarning shaxsiy fazilatlari.
- Murabbiylardagi:
- ✓ hokimiyatga intilish;
- ✓ shaxsning past axloqi va axloqiy salohiyati;
- ✓ chidamlilik va sabr-toqatning yetishmasligi;
- ✓ sportchilar bilan muloqot qilishda qo'pollik va odobsizlik;
- ✓ natijalarni bashorat qilishda xatoliklar;
- ✓ baholashda subektivlik va noxolislik;
- ✓ haddan tashqari qattimqo'llik va zo'ravonlik.
- Sportchilardagi:
- ✓ ishlash intizomining yo'qligi;
- ✓ fidokorona mashq qilish istagi yo'qligi;
- ✓ maksimal yuklamalarga bardosh bera olmaslik (bardosh);
- ✓ jamoa mansaatlari uchun o'zini qurbon qilishni istamaslik;
- ✓ jangovar fazilatlarning yetishmasligi.
- sport sohasida, sport jamoasidagi shaxslararo imunosabatlardagi keskinlik, shuningdek, avtoritar yetakechilik uslubining ustunligi, noto'g'ri yetakchilik uslubi va boshqalar tusayli qiyinchiliklar mavjud.

*Sport nizolar ehtimoliga ta'sir ko'rsatadigan bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi:*

- sportchilar o'rtasidagi bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri psixologik va jismoniy qarama-qarshilik, musobaqlarda va o'quv va mashg'ulot jarayonida qattiq raqobat, yuqori jismoniy, neyro-psixologik stress bilan bog'liq;
- Zamonaviy sport insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlariga yuqori talablar qo'yadi. Mashqlar va musobaqa jarayoni ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri, ochiq, ziddiyatli yoki yashirin, ichki nizoga aylanadigan vaziyatlar bilan birga keladi;
- Rivojlanayotgan to'qnashuvlar mashg'ulot jarayonining monotonligi va musobaqadan oldingi noqulay sharoitlarning mavjudligi bilan birgalikda nevrologik reaksiyalarga, shaxslararo imunosabatlarning buzilishiga olib keladi va sport faoliyati samaradorligini pasaytiradi;

➤ Bir tomonidan, nizo odamlar o'tasidagi munosabatlarning buzilishi, o'tkir janjal kelib chiqishi, bir-biriga zarar etkazishiga sabab bo'ldi.

#### **7.4. Zamonaviy sportda Fair Play tamoyillariga rioya qilish muammosi**

*Fair play tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:* (Fair play, inglizcha – “adolatli o'yin”ning taxminiy tarjimasi; – sportda olijanoblik va adolatlilikka shaxsning ichki ishonchiga asoslangan axloqiy va adolat qonunlar majmui.)

- Raqibga hurmat qilish;
- Sudyalarning qoidalari va qarorlarini hurmat qilish - sudyalarning barcha qarorlarini qabul qilish va ularga alohida tartibda to'g'ri e'tiroz bildirish;
- Doping va har qanday sun'iy stimulyatsiyani rad etish;
- Imkoniyatlar teng - musobaqa boshida barcha sportchilar teng ravishda g'alabaga ishonishlari mumkin;
- Sportchining o'zini tuta bilishi - his-tuyg'ularini ushlab turish, jangning har qanday natijasini yetarli darajada idrok eta olish;

#### **Zamonaviy sportda Fair Play tamoyillariga rioya qilish muammosi.**

Doping (inglizcha doping, inglizcha dope - "dope", "mast qiluvchi") - bu sport atamasi bo'lib, sport ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun tabiiy yoki sintetik kelib chiqadigan har qanday moddalardan foydalanishni anglatadi. Bunday moddalar asab va endokrin tizimlarning faolligini, mushaklar kuchini sezilarli darajada oshirishi yoki mushaklarning yuki (masalan, steroidlar) ta'siridan keyin mushak oqsillari sintezini rag'batlantirishi mumkin. Ko'pgina dorilar sportchilar uchun taqiqlangan maqomga ega. Elit (oliy) sport turlarida dopingga qarshi kurashish sohasidagi zamonaviy konsepsiya WADANing Butunjahon antidoping kodeksida (Xalqaro Olimpiya qo'mitasi – XOQ tashabbusi bilan tashkil etilgan Butunjahon antidoping agentligi) berilgan. Har yili WADA sportchilar uchun taqiqlangan moddalarning yangilangan ro'yxatini va quyidagi standartlarning yangi versiyalarini chiqaradi: Xalqaro laboratoriya standarti, Xalqaro sinov standarti va Terapevtik imtiyozlar uchun xalqaro standart.

Bugungi kunda doping - bu sportchining tanasining normal ishlashi uchun ortiqcha bo'lgan moddalarni ataylab qabul qilish yoki faqat sport musobaqalari paytida jismoniy faoliyatni chidamlilikni sun'iy ravishda oshirish maqsadida preparatning haddan tashqari dozasi oshirish.

XX asr boshlarida Olimpiya o'yinlarida sportchilar tomonidan turli xil ogohlantiruvchi dorilarni qo'llash keng tarqaldi. 1950-1960-yillarda va undan keyingi yillarda esa bu hol tez-tez uchrab turdi. 1952 yilgi Qishki Olimpiya o'yinlarida konkida uchuvchilar tomonidan fenamindan foydalanish holatlari kuzatildi va buning natijasida ularning sog'lig'i yomonlashdi.

Melburndagi XVI Olimpiya o'yinlarida (1956) velosipedchilar bilan ham xuddi shunday voqeа sodir bo'lgan. Daniyalik poygachi Kurt Jensen XVII Olimpiada o'yinlarida (Rim, 1960) velosport musobaqasi paytida fenaminni qo'llash natijasida vasot etganidan keyin Xalqaro Olimpiya qo'mitasi dopingga qarshi kurashni boshladi.

Sportchilarning taqiqlangan stimulyatorlardan foydalanganligini tekshirish uchun mo'ljallangan birinchi qon tahlillari 1964 yilda Tokioda XVIII Olimpiada o'yinlarida olingan.

**Xulosa.** Zamonaviy sport va Olimpiya harakatini chuqur anglashning dolzarbliji, shuningdek, ularning ijtimoiy ahamiyati to'g'risida ko'plab asosli va asossiz xulosalar chiqarish mumkin. Sport jamiyatga ko'plab umidlar berishi va uming aksi bo'lib ushbu umidlarni oqlamasligi ham mumkin. Sportni o'rGANISH, uning ustida ilmiy izlanishlar va yangi-yangi texnik usullarni yaratish lozim, shu bilan birga sportning ijtimoiy olamdag'i o'rmini to'g'ri baholash va jamoatchilik orasidagi nufuzini gumanizm g'oyalari bilan ushlab turmoq lozim.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sportdagि ijtimoiy muammolar. Sport va madaniyat tushunchalarining o'zaro bog'liqligi. "Ommaviy madaniyat" va unda sportning tutgan o'rni.
2. Sportdagи ijtimoiy-iqtisodiy muammolar.
3. Sportning ijtimoiy-siyosiy muammolari.
4. Sport rivojida ijtimoiy-madaniy omilalar.
5. Sportda gumanizm deganda nimalarni tushunasiz?
6. Yuqori natijal sporti nima degani?
7. Sport bilan bog'liq qanday xalqaro mojarolar bo'lishi mumkin?
8. Fair Play tamoyili haqida gapirib bering.
9. Sportda doping muammosi deganda nimani tushunasiz?

## **MAVZU №8. SPORTCHI KARYERASI VA SPORTCHI KASBНИНГ JAMIYAT IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI**

**Reja:**

1. Karyera tushunchasi va karyera bosqichlari. Sportchi karyerasi tushunchasi. Sport karyerasi va ijtimoiylashuv bosqichlari.
2. Sportdagи inqirozlar. Sport karyerasining inqirozlarini belgilaydigan asosiy qarama-qarshiliklar.
3. Erkaklar va ayollar sporti. Ayollar sportida uchraydigan inqiroz.

**Kalit so'zlar:** karyera, sportda inqiroz, psixologik holat, raqobat-bardosh, karyerani tugashi, ayollar sportidagi inqiroz.

### **8.1. Karyera tushunchasi va karyera bosqichlari. Sportchi karyerasi tushunchasi. Sport karyerasi va ijtimoiylashuv bosqichlari**



Karyera deganda biz xizmat pog'onasidan yuqoriga qarata ko'tarilishimiz va nufuzimiz oshib borishini tushunishimiz kerak. Ko'pchilik odamlar karyera deganda mehnat faoliyatini tushunadi, bu esa unchalik ham to'g'ri emas. Mehnat faoliyati bu – uzoq muddat bir ish faoliyati bilan shug'ullanib va shu faoliyat orqasidan uzoq muddat bir lavozimda qolishni anglatadi. Karyera esa bu – doimiy rivojlanish, o'sish, o'z kasbiy kompitentligini, malakasini oshirish, lavozim pillapoyasida yuqoriga ko'tarilishni va o'z navbatida daromadning ham oshishini anglatadigan tushunchadir.

Karyera so'zining lug'aviy kelib chiqishi italyan tiliga borib taqalib, bu so'z "carriyera" – yugurmoq, hayotiy yo'l va lotincha "carrus" – aravani sudramoq degan ma'nolarni anglatadi. Karyeraning ikkita asosiy shakli mavjud bo'lib, ularni: a) umumiy professional o'sishni anglatuvchi karyera va b) ma'lum bir tashkilot ichidagi o'sishni anglatuvchi karyeralarga ajratish mumkin.

a) Professional karyera bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi va ular ko'p hollarda quyidagi yosh davrlarida o'z isodasini topadi:

- Dastlabki bosqich – 25 yoshgacha. Bu bosqichda inson professioinal o'sishga endigi tayyorgarlik ko'rayotgan bo'ladi;
- Yakunlash bosqichi – 60 yoshdan o'tgan davr. Bu bosqichla inson mehnat nafaqasiga chiqishga tayyorgarlik ko'rishni boshlaydi va o'zini

ketidan yosh shogirdlarini qoldirish, ularga o‘z mahoratini o‘rgatish payid bo‘ladi;

➤ Shakllanish bosqichi – 30 yoshgacha. Bu bosqichda inson mehnat faoliyatini boshlab yuvorgan bo‘ladi va u o‘z kasb mahoratini oshirish davrini boshidan o‘tkazayotgan hisoblanadi;

➤ O‘sish bosqichi – 45 yoshgacha bo‘ladi. Bu bosqichda mutaxassis allaqachon yuqori natijalarga erishgan va o‘z imkoniyatlardan keng foydalana olish qobiliyatiga erishgan bo‘ladi;

➤ Mehnat nasaqasi davri – 65 yoshdan yuqori yosh. Bu bosqichga yetib kelgan mutaxassis mehnat davrini tugatgan va endilikda boshqa o‘zi istagan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘la boshlagan bo‘ladi. Masalan, karyera qurishi davrida shug‘ullanishga vaqtি bo‘lмаган biron-bir xobbi bilan;

Albatta, yuqorida ko‘rsatilgan karyeraning yoshga bo‘linish davri barcha uchun aynan shunday bo‘lib taqsimlanmaydi, lekin asosiy omma odamlarining mehnat faoliyatidagi yosh davri shunga yaqin ravishda ifodalanadi.

*Sportchi karyerasi tushunchasi. Sportchi karyerasining o‘ziga xosligi.*

Sport karyerasi – biron bir sport turi bo‘yicha yuqori natijalarga erishish maqsadida olib borilgan ko‘p yillik sport malakasi, ko‘nikmasi va sport kompitentligiga ega bo‘lmoqligini anglatadi.

Sport karyerasi davrini bosqichlarga bo‘lib o‘rgansak, u boshqa sohadalardagi karyera o‘sishidan farq qilib, ularni (shartli ravishda) quyidagi etaplarga bo‘lib ko‘rib chiqish mumkin:

- Sportga dastlabki tayyorgarlik ko‘rish bosqichi (etapi);
- Sport karyerasining boshlang‘ich etapi;
- Tanlangan sport turidagi mashg‘ulotlarini chuqurlashtirish etapi;
- Sportdagи yetuklik davri;
- Sportdagи ilk yutuqlar davri;
- Sportdagи maksimal imkoniyatlarga erishish davri;
- Erishgan yutuqlarini saqlab qolish davri;

Sport karyerasi sportchi tomonidan tanlangan “sport klassifikatsiyasi” bilan belgilanadi:

- Ommaviy sport;

➤ Yuqori natijalar sporti (bu ham professional sportga kiradi, lekin farqi shundaki, bu yerda tijorat ahamiyatga ega bo'lmaydi, masalan olimpiada o'yinlari);

➤ Professional sport (sportning bu klassifikatsiyasida yuqori natijalar sportidan tijoratning o'rni kattaligi bilan farqlanadi);

Sport karyerasida o'sish mavjudigini angatuvchi komponentlar quyidagilar bo'ladi:

➤ Spotchiga motivatsiya beradigan har qanday holatlar, ya'ni vazisalar, motivatsiyalar, maqsadlar, hohish va istaklar. Bu mexanizmlar sportchining o'z ustida ishlashiga va o'z karyerasini qurishiga, sport pillapoyasida yuqoriga ko'tarilishiga motivatsiya bo'lib yordam beradigan mexanizmlardir. Agarda niyat yuqori bo'li, lekin maqsad to'g'ri yo'lga qo'yilmasin sportchi karyerasida o'sish bo'lmaydi, natija bo'lmaydi. Bunda sportchi o'z energiyasini va jismoniy resurslarini noto'g'ri tashkillashtirgan bo'ladi;

➤ Strategiya va taktikani to'g'ri olib borish;

➤ Samara beradigan komponent. Bu komponent sportchining professionallik darajasini, uning yutuqlari, malakasi, sport toifasi va jamoadagi o'rnniniini ko'rsatadi.

Sport karyerasida shunday tartib va qat'iy qonun-qoidalari borki. ularga gollar, ballar, shtraflar, kartochkalar va boshqalar kiritishimiz mumkin. Sport bilan shug'ullangan inson ayniqsa u hali to'liq mustaqil shaxs bo'lib shakllanmagan yosh bola bo'lsa, u o'zining sport bilan bog'liq har bir hatti-harakatini murabbiylar va hakamlar qarashlari bilan baholay boshlaydi. Natijada bola murabbiylar talabiga, hakamlar talabiga mos bo'lishga, ularning talabiga javob berishga harakat qiladi. Bu albatta bo'lajak professional sportchi bo'lib yetishish uchun yordam bersada, lekin bolaning o'zi-o'ziga bo'lgan ishonchi yo'qolishiga, o'ziga bo'lgan hurmatning yo'qolishiga ham sabab bo'lib qolishi mumkin. Professional sport qiyin, qat'iy raqobatni talab qiladi, bu esa hali to'liq shakllanib bo'lmagan yosh sportchini sindirib qo'yish ehtimoli ham mavjud. Shunga qaramay, sport karyerasidagi bu etap bo'lajak sportchida shaxsiy harakterni va ruhiy chidamlilikni shakllantiradi. Sport karyerasining yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu faoliyat bilan shug'ullangan inson

doimo o'z ustida ishlashi, bir nuqtada to'xtab qolmasligi va faqatgina yuqori natijalar ko'rsatsagina sport karyerasi o'sishi mumkinligi, aks holda karyeraning bu shakli to'xtab qolishiligidadir. Bo'lajak professional sportchi shu narsalarni o'zi anglab yetishi va mustaqil ravishda o'z hayot yo'lini o'zi belgilab olishi lozim, boshqalarning yordamida yoki maslahati bilan emas. Katta sportga qadam qo'yayotgan o'smirlar sport karyerasini qurishning shu bosqichida ruhiy qiyinchiliklarga uchrashadi va ular ottonalarining, o'z yaqinlarining, psixologlarning yordamiga muhtoj bo'lib qolishadi. Chunki katta sportda qolish yoki ketish masalasi aktual bo'lib turgan paytda yosh sportchida ko'p ikkilanish, sportdan ketsam nima bilan shug'ullanaman, hayotim qanday bo'ladi degan qo'rquv, shubha-gumonlar bilan to'lgan bo'ladi.

*Sportchiga qo'yiladigan psixologik (ruhiy) talablar.* Har qanday sport turi sportchidan o'ziga yarasha irodaviy-emosional (hissiy) tuyg'ularni his qilishni talab qiladi. Iroda – biron-bir qiyinchilikni yengib o'tishga qaratilgan ongli, maqsadli faoliyat turidir. Raqobatni talab qiladigan professional sport bilan havaskorlik sportining bir-biridan farqi bor bo'lib, raqobatli sportda kuchli raqiblarning mavjudligi, qat'iy qonun-qoidalar va raqib tomonidan tajovuzkorlikning mavjudligi, muxlislarning munosabati bilan jamoadoshlarning munosabatigacha sportchiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida sportchida ruhiy-emosional disbalansnii keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa sportchining ruhiy-emosional stressga tushishi, asabining tarangligi, temperamenti, umumiy ruhiy holati kabi individual psixologik holatini inobatga olish kerak bo'ladi. Bu narsa o'smir yoshdagi sportchilarda (ayniqsa o'tish yoshiida o'smir tanasida gormonal o'zgarishlar bo'lgayotganini inobatga olsak) o'ziga xos ravishda ifodalananadi.

*Sportchining shaxs sifaitda shakllanishiga sabab bo'livchi omillar.* Sport faoliyati bilan shug'ullanish sportchidan tinimsiz o'z ustida ishlashni, o'ziga nisbatan qattim qo'l va talabchan bo'lishni, raqobatbardosh bo'la olishni, ruhiy va emosional turg'unlikka ega bo'lishni, kerak bo'lgan paytda o'zini ayamaslikni talab qiladi. Bu esa sportchidan qat'iy maqsadlarni va ularga tinimsiz mehnat bilan intilish strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga albatta sportchi tanlagan sport turining o'ziga

xosligini, inobatga olishi kerak. Ayrim sport turlari jamoaviy bo'lsa, boshqalari yakkama-yakka olishuvni nazarda tutadi.

Bolani biron-bir sport turiga berganda albatta uning qobiliyatları ruhiy holati, aqliy va jismoniy holatlari inbatga olinadi. Bunda bolaning ruhiy holati ham katta ahamiyatsha ega bo'lib, agar bola sport bilan shug'ullanishni istamasa yoki boshqa mazkur sport turidan ko'ngli to'imay. boshqa sport turini istasa ham u bo'lajak sportchi sifatida yuqori natijalar ko'rasata olmaydi. Shuningdek, yosh sportchi mashqlar o'tkazayotgan jamoaning ruhi ham mazkur sportchi o'z karyerasini qurishi uchun ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rasatadi. Jamoadagi, ko'chadagi shaxslararo munosabatlar kelajakda u qanday sportchi bo'lib yetishishd. uning qanday shaxs bo'lib shaklanishida, uning ijtimoiylashuv jarayonida o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Sportda yuqori natijalarga erishish va sport karyerasini qurish uchun uning o'ziga hos shartlari bor bo'lib, unga sportchi qobiliyati, mashg'ulot o'tkazish uchun maxsus sharoitlarning mavjudligi, mashq qilish usul va uslablari, murabbiyning yondoshuvi, oila a'zolari va yaqin insonlarning ta'siri kabi narslar kiradi.

## **8.2. Sportdag'i inqirozlar. Sport karyerasining inqirozlarini belgilaydigan asosiy qarama-qarshiliklar**

Sport karyerasida uchraydigan inqirozlar haqida fikr yuritsak. avvalom bor, "sportdag'i inqiroz" nima ekanligini aniqlab olishimiz kerak. Keling ushbu savolni N.B. Stambulova tomonidan ishlab chiqqan klassifikatsiyasiga ko'ra, ko'rib chiqamiz:[42]

➤ Sport bilan shug'ullanishning boshlang'ich darida yuzaga keladigan inqiroz: Bu davrdagi inqiroz (yoki sportdan yuz o'girish desak ham bo'ladi) ko'p hollarda 4-7 yoshdag'i jippi sportchilar endigina sport karyerasini qurishni boshlashgan davrlarda yuz beradi. Bu yoshdag'i sportchilarning inqirozining yuz berishiga sabab: ularning juda yoshligi yoki ularga yuklatilgan vazifalar murakkabligi, uddasidan chiqsa olmayotganligi, ulgura olmayotganligi, yosh jippi sportchilarning motivatsiyasi yo'qolishi. ular kutayotgan keskin o'zgarishlar va natijalar

darrov yuz bermayotganligi, jismoniy mashqlarning o'ta og'irligi kabi sabablar orqali yuz berishi mumkin;

➤ Sport bilan shug'ullanishning chuqurlashtirilgan davrida yuzaga keladigan inqiroz: Inqiroz jismoniy mashqlarning murakkablashishi va yosh sportchi kutayotgan natijalar darrov yuz bermayotganligidan bo'lishi ham mumkin;

➤ Ommaviy sport turidan yuqori natijalar sport turiga o'tish davrida yuzaga keladigan inqiroz: Bu davrdagi inqiroz sabablardan biri bu – fiziologik yosh bilan bog'liq bo'lib, sportchi organizmida yuz berayotgan gormonal o'zgarishlar uning ruhiy va jismoniy holatiga ta'sir qilishi mumkin. Natijada sportchida professional sport bilan shug'ullanishni davom ettirishga shubha uyg'onadi;

➤ O'smirlar sportidan kattalar sportiga o'tish darida yuzaga keladigan inqiroz: Bu yoshdagi ko'plab sportchilar g'alabaning yuqori cho'qqilarni zabit etgan bo'lishadi. Endilikda ular o'zlarining yosh kategoriyalari ichida professional sportchi hisoblanishadi. Shu bilan birga, ularga endilikda mutlaqo boshqa, nisbatan ancha yuqori talablar qo'yila boshlanadi. Ko'pincha bunday sportchilar xorijiy musobaqalarda, xalqaro musobaqalarda qatnashib, yurt sharafini munosib himoya qilishga tuyassar bo'ladilar. Albatta, bu narsa, sportchidan natija uchun ko'proq mas'uliyatni his qilishni talab qiladi, bu esa, o'z navbatida, tashvish va stressga olib keladi. Bunday talablarga bardosh bermaslik va bunday stresslarni ko'tara olmaslik esa sport karyerasidagi inqirozga sabab bo'ladi;

➤ Xavaskorlik sportidan professional sportga o'tish davrida yuzaga keladigan inqiroz;

➤ Sportdagagi eng yuqori g'alaba cho'qqilarini egallagandan so'ng keladigan inqiroz. Mazkur inqiroz sportchining motivatsiyasi tushib ketishi, avvaldagi kabi yuqori natijalarga erishish qiyin bo'lishi, yangi natijalar ko'rsatishga kuchi yetmayotganligi kabi sabablar orqali vujudga keladi;

➤ Sportni tugatish vaqtiga yetib kelgan davridagi inqiroz: Bu davrdagi inqiroz ko'pincha sportchining yoshi ancha ulg'ayib, uning jismoniy holati bo'shashib qolganligi bilan va sportchi o'z faoliyatini endilikda boshqa turdagagi faoliyatga o'zgartirishi bilan yuz beradi. Odatda bu davrdagi inqiroz sportchining 40 yoshlar atrofida yuz beradi;

Sport karyerasini tugatilishiga sabab bo'ladigan barcha omillarni sportchining o'zi ham, uning murabbiyi ham avvaldan bilishi va karyeraning tugatish uchun oldindan tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Biz yuqorida umuman "sport karyerasi" dagi inqiroz turlarini ko'rib chiqdik, keling endilikda "*Sportchi karyerasi*" *tugagandan so'ng uning hayotida yuzaga keladigan inqrozni va uning sabablarini ko'rib chiqamiz:*

➢ Sportchining kutilmagandan, sportdan to'satdan ketish yoki ketishga majbur bo'lishi;

➢ Sportchining sportdan ketishga tayyor bo'lasligi;

➢ Sportchining tashabbussiz, passiv bo'lishi;

➢ Sportchiga ma'naviy, ruhiy va moddiy yordamning yetishmasligi;

Sport individning ijtimoiylashuvida va shaxsga aylanishida katta yordam beradigan jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham o'zining sportdagi profesional karyerasini tugatgan bo'lishiga qaramay, sportchilar sport bilan shug'ullanmagan insonlardan ko'ra ko'proq yutuqlarga va nufuzga erishishgan hisoblanishadi. Biroq, sportdan boshqa narsa bilan qiziqmay, umri davomida faqat sport bilan shug'ullangan sportchilar, umri davomida o'z murabbiyi tomonidan belgilangan aniq ko'rsatmalarни bajarib kelgan sportchilar, doimo qiladigan ishi ma'lum bo'lib, faqat trenirovka bilan mashg'ul bo'lgan va bir umrlik sport rejimi bilan yashab kelgan sportchilar sportdan kutilmaganda ekstreml ravishda katta sportdan ketishga majbur bo'lishganda (sport kasbidagi inqirozga uchraganda) o'zlarini yo'qotib qo'yishadi va kundalik turmushda ijtimoiy muhitga moslashishga qiynalishadi. Bunday sobiq sportchilar o'zlarining hayotdagi motivatsiyalarini, maqsadlarini yo'qotib qo'yishadi.

Sportchi karyerasining tugatilishi natijasida sportchining turmush tarziga (odatda salbiy) ta'sir ko'rsatidigan holatlarga quyidagi omillarni ko'rsatishimiz mumkin:

➢ Doimiy bajarib yurilgan mashqlarning (trenirovkalarining) keskin to'xtatilib qo'yilishi, musobaqalarda qatnashishning keskin to'xtatilishi natijasida sport faoliyatining keskin tugatilishi;

➢ Sport klubi tomonidan, murabbiy tomonidan, xizmat ko'rsatib kelgan personal tomonidan vasiylik va g'amho'rlik ko'rsatilishining to'xtatib qo'yilishi;

- Sport klublari, murabbiy, o'z jamoadooshlari bilan bo'lgan do'stona va kasbiy-professional muloqotning keskin to'tatilib qo'yilishi;
- G'alabalarning yo'qligi, rejimdagи trenirovkalrning yo'qligi natijasida ruhiy va jismoniy diskomfort his qilish;
- Yangi kasbni egallashi istamaslik va uni avvalgi sportdagi erishgan yutuqlaridan, sportdagi karyerasidan ko'ra nusuzsiz deb bilishi oqibatida o'zidan ko'ngli to'lmaslik, ruhiy zo'riqish;
- O'zini keraksizdek his qilishi, jamiyatdagи nusuzining tushib ketishi yoki avvalgidek emas, deb his qilishi;
- O'zini avvalgidek mashhur emas, deb his qilishi;
- Iqtisodiy daromadning tushib ketishi;

Ushbu omillar sportchining o'z karyerasini tugatganda jamiyatga birikishiga to'siqlik qiladi va uni sportdan tashqari olamda o'z hayotini qurishiga halaqit beradi. Albatta, sportchi o'z karyerasidan ketganda bu omillar aynan shunday ishlaydi, deb mutlaqo qat'iy aytib bo'lmaydi, lekin, ularning mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi. Sportchi o'z faoliyatini sekin-astalik bilan, avvaldan rejalashitrgan ravishda to'xtatsa unda yuqorida sanab o'tilgan omillar nisbatan yumshoqroq ta'sir ko'rsatadi. Odatda sportda eng yuqori marralarni egallab bo'lgan, endilikda o'zi egallagan yutuqlarni uzoq vaqt ushlab tura olgan sportchilar vaqt-soati kelib sportdan ketishlari kerakligini oldindan anglab yetadilar va mag'lub bo'lmasdan avval, o'zlar anglagan holda sportdagi karyeralarini to'xtatadilar.

*Sportchilarning ijtimoiy olamga bo'lgan moslashuvlariga quyidagi omillar yordam beradi:*

- Sportchi sportdagi karyerasining eng yuqori cho'qqisiga chiqqanligini anglashi, o'z imkoniiyatlarini to'g'ri baholay olishi va sportdan tashqari rejalarini ishlab chiqishi;
- Jismoniy tarbiya va sport bilan bog'liq bo'lgan boshqa sohalarni tanlashi, masalan murabbiylilikni;
- Oila a'zolari, yaqin insonlari, do'stlari, murabbiy tomonidan ma'naviy qo'llab-quvvatlanish;
- Sportdan ketgan bo'lishiga qaramay davlat tomonidan, sport sohasi tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlanishi, yordam olishi;
- Davlat tomonidan tibbiy va ijtimoiy himoyaga olinishi;

➤ Boshqa sobiq sportchilar bilan, sport faxriylari bilan ahil munosabatni o'rnatilishi, o'lar bilan do'stlashish va vaqt-i-vaqt bilan o'zaro imusobaqalr o'tkazib turish;

Mazkur omillar o'zining sportdag'i karyerasini to'xtatgan yoki to'xtatishga majbur bo'lgan sportchilarga jamiyatga moslashishiga katta yordam beradi.

### **8.3. Erkaklar va ayollar sporti. Ayollar sportida uchraydigan inqiroz**

Erkaklar va ayollarning xususiyatlari uchta asosiy yo'nalishda ko'rib chiqiladi: kognitiv, hissiy, motivasion.

Kognitiv sohada ayollarda og'zaki qobiliyatlar biroz yaxshiroq rivojlanganligi va erkaklarda fazoviy qobiliyatlar biroz yaxshiroq rivojlanganligi aniqlangan. Intellektual rivojlanishning o'rtacha ko'rsatkichlari bo'yicha erkaklar va ayollar farq qilmaydi.

Hissiy sohada erkaklar boshqa odamlarning his-tuyg'ularini aniqlashga va ularga ichki hamdardlik bildirishga qodirligi ayollardan kam emasligi aniqlandi, ammo ular boshqalar buni boshqa insonlarga sezdirmaslikka harakat qilishadi.

**Maskulizm** - bu erkakning psixologik xususiyatlari.

**Feminizm** - bu ayolning psixologik xususiyatlari.

Ayol va erkak xulq-atvorini baholaydigan gender stereotiplari mavjud. Gender stereotiplarining uchta guruhi mavjud.

*Psixologik fazilatlar.*

*Erkaklarda* – ustunlik, imustaqillik, o'ziga ishonch, tajovuzkorlik, mantiqiy fikrlash.

*Ayollar* – kamtarlik, qaramlik, hissiylik, muvosiqlik, muloyimlik;

*Ijtimoiy rollar* – erkaklar kasbiy muvaffaqiyatlariga, ayollarga oila va bolalarning borligiga qarab baholanadi.

XXI asrga kelib ayollar katta ishtiyoq ila sport turlari bilan shug'ullanishmoqda. Hozirda ayollarni nafaqat klassik ko'rinishdagi sport turlarida balki yangidan-yangi bo'lgan zamonaviy sport turlarida ham uchratishimiz mumkin. Ayollar erkaklardan qolishmag'an tarzda sportda yuqori natijalarni erishish bilan birgalikda va rekord natijalarni o'matishmoqda.

Sportchi ayollar o'zlarining jismoniy baqquvatligi, sog'lomligi, chiniqqaqligi va chidamliligi bilan boshqa ayollardan farqlanib turishadi. Ularning turmush tarzida, hayot tarzida ham farqlar mavjud.

Sport karyerasini qurish uchun ko'pgina sport turlari bilan bolalikdan shug'ullanishni talab qiladi. Ayollar sport turlari ham bundan mustasno emas. Masalan, badiiy gimnastika, figurali uchish, suzish kabi sport turlari bilan shug'ullanish 5-7 yoshdan boshlanadi. Bolalaikdan sport bilan shug'ullanish bolaning ham, uning ota-onasining ham turmush tarzini va o'zgartirib yuboradi. Xo'shi shuday ekan, yosh qig'aloqlarning bunday qat'iyatlilik ila sport bilan shug'ullanishiga sabab ularning ota-onasining hohish-istiklari, qizaloqlarning o'zlarining biron-bir sportchi ayolga taqlib qilishlari va eng asosiysi yosh sportchi qizaloqlarning o'zlarining sport bilan qiziqishlari bo'ladi. Albatta, agarda qizloqlar sport bilan o'z istaklari orqali shug'ullanishayotgan bo'lsa bu katta samara berishi mumkn, lekin agarda ular sport bilan kimningdir hohish istagi bilan, majburan shug'ullanayotgan bo'lishsa bu katta ehtimol bilan uzoqqa bormasligi, yosh sportchining karyerasini dastlabki bosqichdayoq inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi. Sababi, sport karyerasining boshlanishida ijobiy samara bergen sport faoliyati, vaqt o'tib bolaning ruhiy, aqliy fikrlashi o'sishi bilan o'zgarishi, ulardag'i motivatsiyaning yo'qolishi hamda ularda tajavuzkorlik hissini paydo bo'lishiga ham sabab bo'ladi.

Bugungi kunga kelib sport meditsinasi, sport psixologiyasi, sport fiziologiyasi va shu kabi sport bilan bog'liq bo'lgan ilm-fan shu darajada rivojlanib ketdiki, sportchining ruhiy olamini nazorat qilish, unga barcha ruhiy ko'makni berish yo'llari ishlab chiqildi. Bu narsa o'z navbatida sport mashqlari yuklamasini sportchi ruhiyatiga va tanasiga salbiy ta'sirini kamaytiradi.

Sportchi qizlarning sportga ijtimoiylashuvi birlamchi ravishda oiladan boshlanadi. Ota-onalarning o'zlarining sportga bo'lgan qiziqishlari, bir vaqtli o'zlar erisha olmagan orzulari ularni o'z qiz (o'g'il) farzandalarini katta sportga berishiga va farzandaridan katta yutuqlarini kutishlariga sabab bo'ladi. Bu esa sportchi qizlarga "ota-onani istaklarini bajarish", ularning xafsalasini pir qilmaslik kabi ma'suliyatni yuklaydi. Lekin bu to'g'ri emas. Aynan birlamchi ijtimoiylashuv, ya'ni sportga yo'naltirilgan birlamchi

ijtimoiylashuv keyinchalik qizlarda sportga nisbatan muhabbatni va yoki aksincha nafratni keltirib chiqarishi mumkin. Hammasi sportga ijtimoylashtirish qay tarzda olib borilganiga bog'liqdir. Chunki aynan oila bolani makro va mikro dunyo bilan tanishtiradi va uning qonun-qoidalarini, qadriyatlarini singdiradi.

Sport bilan shug'ullanish vaqt oshib borgan sari. sport qizlar dunyoqarashiga va shaxsiga o'z ta'sirini ko'paytirib boraveradi. Sportchi qizlar jismoniy sog'lomlikda ham, chiniqqanlikda ham, chidamlilikda ham, baquvvatlilik va bo'yalarining o'sishida ham o'z tengdoshlariga nisbatan (va hatto o'g'il bola tengdoshlariga nisbatan ham) ajralib turadilar. Ular o'zlarini sinfda, jamoada liderdek tuta boshaydilar, ularda irodalilik, jamoada tez til topib keta olishlik bilan birga urishqoqlik, tajavuzkorlik hissi ham shakllanadi. Bunday tuyg'ular vaqt o'tib sportchi qizlarda erkaklarga xos harakterni shakllantiradi va ularda qizlarga xos hislatlarning yo'qolishiga sabab bo'lib qoladi. Bu esa beqaror oilaviy ahvolni, oilalarning buzulishini, jamiyatda qizlarning o'zlarini erkaklarga xos tutishini va ko'plab umidsizliklarni keltirib chiqaradi.

**Xulosa.** Karyera va sportchi karyerasini o'rganar ekanmiz. sportchining ijtimoiy hayotdagি o'rni katta ekanligini anglaymiz. Sportchilarning ijtimoiy moslashishdagi muammolari, sportdagи inqirozlar sportchi ijtimoiy hayotiga ta'sir qilmay qo'ymaydi. Sportning genderga bo'linishi va unda erkak va ayol sportchining o'z o'rni borligi sport karyerasini qurishda ahamiyatlidir. Va har qanday sportchi kelajakda o'z karyerasi yakunlaganda nima bilan mashg'ul bo'lishini avvaldan o'ylab qo'mog'i, bunda davlat sportchiga suyanchig' bo'lmog'i darkor.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Karyera deganda nimani tushunasiz? Karyera so'zi qaysi tildan olingan va nima ma'noni anglatadi?
2. Karyeraning shakllari mavjud?
3. Professional karyera qanday bosqichlardan iborat?
4. Sportchi karyerasi deganda nimani tushunasiz?
5. Sportchi karyerasining o'ziga xosligi nimada? Sportchi karyerasi bosqichlarini izohlab o'ting.
6. Sport karyerasida o'sish mavjudigini angatuvchi komponentlar nimalar?
7. Sportchiga qo'yiladigan psixologik (ruhiy) talablar qanday?
8. Sportchining shaxs sisaitda shakllanishiga sabab bo'livchi omillar qanday?
9. Sportdagi inqiroz deganda nimani tushunasiz?
10. Sportchining sport karyerasidagi inqirozlar deganda nima tushunasiz?
11. "Sport karyerasi" dagi inqirozlar bilan "Sportchi karyera" sidagi, hatidagi inqirozlarning farqi nimada?
12. Sportchilarning ijtimoiylashuvi qanday kechadi? Sportchilarning ijtimoiylashuvi qanday etaplardan iborat?
13. Ayollar sportidagi inqirozlar haqida gapirib bering.

## XULOSA

Mamlakatda tobora chuqurlashib borayotgan fuqarolik jamiyatni qurish islohotlari jahondagi rivojlangan mamlakatlarda yuz berayotgan sotsial o'zgarishlar, sotsial taraqqiyot, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir tajribalar va zamonaviy nazariy asoslarni chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Shu bilan bir vaqtida, hozirgi davr kelajakda o'z ajdodlari hayotini davom ettiradigan, jahondagi va xalqaro munosabatlardagi voqeliklar va hodisalarni chuqur anglaydigan, islohotlar jarayonida shaxsan faol ishtirot etadigan yosh avlodni shakllantirishni talab qilmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "O'zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir. ... Bu, avvalambor, ta'lif va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq ekanini biz yaxshi anglaymiz" [7].

Bu albatta ta'lif muassasalari o'quv jarayoni, o'quv rejalarini va o'qitiladigan fanlar tizimiga alohida vazifalar qo'yadi. Ushbu fanlar tizimida sotsiologiya fani alohida o'rinni tutadi. Sotsiologiya jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini faol o'rghanadi. Bunda uning tadqiqot predmetiga ma'rifiy, madaniy, ilmiy, adabiy, ijodiy, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy munosabatlar bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport bilan bog'liq munosabatlar ham kiradi. Demak, sotsiologiya ijtimoiy hayotning bir sohasi bilan chegaralanib qolmay, u "inson" mansub bo'lgan barcha guruqlar, qatlamlar, jamoalar, muassasalar hamda odamlarning kundalik-maishiy hayotlari masalalari bilan ham qiziqadi.

Bugungi kunda sport jamiyatning ajralmas qismidir. Zamonaviy jamiyatning barcha jahbalariga kirib, jamiyat hayotining asosiy sohalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Sport milliy darajadagi munosabatlarga, insonning jamiyatdagi mavqeiga ta'sir qiladi, shu bilan axloqiy qadriyatlar va odamlarning turmush tarzini shakllantiradi. Salbiy odatlarning oldini olishdan tashqari, jismoniy madaniyat insoniyatning ajoyib ehtiyojlarini qondiradi. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy muammolari sport sotsiologiyasi fani yordamida o'rghaniladi. Sport sotsiologiyasi

maimlakatimizda ham, xorijda ham jadal rivojlanayotgan ilmiy bilim sohasi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportga oid sotsiologik bilimlarning ahamiyati kundan-kun ortib bormoqda, bu esa jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy hayotdagi roli va ta'siri ortib borayotganidan dalolat beradi. Fan doirasida berilgan ma'lumotlardan olingen quyidagi xulosalar sport sotsiologiyasining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.

*Birinchidan*, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, aholining sport turlariga bo'lgan munosabatini yanada yaxshilashda ta'labalarga sport sotsiologiyasining asosiy tushunchalarini, fanning rivojlanish tarixini, sport sotsiologiyasining jamiyatdagi asosiy vazifasini, ayniqsa sportda erishayotgan natijalarimiz xalqimizning buyuk o'tmishini, madaniyatini, shuningdek, hozirda sport har qachongidan ko'ra jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligini har taraflama tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish alohida o'r'in tutadi.

*Ikkinchidan*, yosh sportchilarda sportchi karyerasi va sportchi kasbining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni, jismoniy tarbiya va sportdagи sotsiologik muammolarni sotsiologik tadqiqotlar asosida aniqlash, sotsiologik tadqiqotlarni qo'llash ko'nikmasini kengaytirish, sotsiologik tadqiqot turlari, ularni tashkil etish, natijalarini tahlil qilish bo'yicha ilmiy-nazariy sikrlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish yoshlari ijtimoiylashuvini yanada jadallashtiradi.

Yosh avlodga O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy va huquqiy hujjat asoslарини, sportda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalarни to'g'ri tavsitlay olish malakalarini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratish shuningdek, aholining sportga bo'lgan munosabatini, qiziqishini o'rganishda, ijtimoiy madaniy omillarning ta'sirini belgilash ham jamiyatda jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabatni o'zgartirishga va shu orqali jismonan soglom, ma'nан barkamol avlodni tarbiyalashga hissa qo'shadi.

## ATAMALAR LUG'ATI (GLOSSARIY)

**Badan tarbiyasi** - maxsus badanni chiniqtirish uchun, sog'lom bo'lish.

**Ekstremal sport** – esktrimni talab qiladigan sport turlari.

**Fair play** - halol o'yin, raqibga va hakamga hurmat

**Ijtimoiy** – umumiy, barchaga taaluqli, barchaga tegishli.

**Ijtimoiy harakat** – ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish yoki to's-qinlik qilish uchun jalg etilgan odamlarning katta-katta guruhi va harakati.

**Ijtimoiy me'yor** – ijtimoiy xatti-harakatni umumiy boshqarib turuvchi qatori sisatida namoyon qiluvchi qoida yig'indisi.

**Ijtimoiy mobillik** – individlarning va guruhlarning jamiyat tarkibida o'z o'rnnini, mavqeini o'zgartirishi bo'lib, ulra vertikal va gorizontal ko'rinishga ega bo'ladi.

**Ijtimoiy nazorat** – ijtimoiy tizimning uni tashkil etuvchi elementlarining o'zaro xatti-harakatlarini normativ idora vositasida tartibga solishni ta'minlovchi o'zini-o'zi idora etish vositasi, yo'li.

**Ijtimoyleshuv** – individning ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda u shaxs sisatida shakllanadi, ijtimoyleshuv "ijtimoiy adaptatsiya" va "ijtimoiy interiorizatsiya"ga bo'linadi.

**Indivi** (lot. yagona, bo'linmas) – bu insoniyat zotining yakka vakili, insoniyatning hamma sotsial va ruhiy jihatlarini idrokiy, irodasi, ehtiyojlari, manfaatlari va hokazolarning sohibi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, alohida insonning o'ziga xos tabiiy-biologik va ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari, aqli, irodasi va hokazolar yig'indisi ekanligi nazarda tutilib, «individ» tushunchasi qo'llaniladi.

**Jamiyat** – muayyan hududda istiqomat qiluvchi, yagona siyosiy hokimiyatga itoat qiladigan va o'zlarini boshqa qo'shni guruhlardan farqlaydigan odamlar guruhi, yig'indisi va jamoasi.

**Jamiyat** – tarixiy shakllangan, tizimlashtirilgan, boshqariladigan bir maqsad, vazifa va majburiyatlar bilan bog'langan kishilar yig'indsi.

**Jamoatchilik** – ko'pchilik tomonidan amalga oshiriladigan jarayon.

**Jamoatchilik fikri** – ommaning, aholi ko'pchilik qatlamining voqeahodisalarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi fikrlari, g'oya, qarash va tasavvurlari yig'iindisi.

**Jamoaviy harakat** – muayyan joyda to‘plangan ko‘p miqdordagi odamlar tomonidan o‘z-o‘zidan kelib chiqib bajariladigan harakatlardir.

**Jimoniy tarbiya** – bashariyat madaniyatining uzviy bog‘langan bir qismi bo‘lib, uning alohiba mustaqil sohasidir. Shuningdek, jismoniy tarbiya maxsus jarayon va inson faoliyatining mahsuli, shaxs jismoniy mukammalligining vosita va usulini bildiradi.

**Jismoniy madaniyat** - umuminsoniy madaniyatning bir bo‘lagi bo‘lib, odamlarning kundalik hayotda badan tarbiyasiga, sportga, ommaviy sportga, sportchiga va umuman sportning jamiyatda tutgan o‘rniga bo‘lgan munosabati, bahosi va hurmatidir.

**Jismoniy tarbiya** – umumiy tarbiyaning uzviy davomi bo‘lib, jismoniy madaniyatning bir ko‘rinishi. Jismoniy tarbiyada jism tarbiyalanadi va chiniqtiriladi.

**Karyera** - italyancha so‘zdan olingan bo‘lib, mansab pillapoyasi.

**Kibrsport** – internet orqali amalga oshiriladigan virtual olamdag‘i sport turi.

**Kun-fu** – qadimgi xitoy sport turi.

**Makroso-siologiya** – katta ko‘lamdag‘i guruhs, tashkilotlar yoki ijtimoiy tizimlarni o‘rganish, shuningdek, global ijtimoiy masalalarni tadqiq qilish.

**Millat** – til, ma’naviyat, milliy o‘zlikni anglash, ruhiyati, urf-odatlar, an‘analar va qadriyatlар yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil subyekt sisfatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi.

**Oila** – qon-qarindoshlik, nikoh yoki farzandlikka olish munosabatlari bilan bog‘langan individlarning katta yoki kichik guruhi, oila “monogam” yoki “poligam” shaklda bo‘ladi.

**Ommaviy sport** - yoshidan, ijtimoiy holatidan, kasbidan, faoliyat turidan qat‘iy nazar jamiyatni barcha a‘zolarini qamrab olgan sport turlari majmuidir.

**Pentatlon (beshkurash)** – qadimgi Gretsya va Rimdagi olimpiada o‘yinlaridagi 5 turdag‘i musobaqlari (yugurish, uzoqqa sakrash, disk va nayza uloqtirish hamda kurash mashq turlari kirgan).

**Per de Kuberte** – zamonaviy olimpiada va sportdagi gumanizm g‘oyasining asoschisi.

**Prognоз** – biror bir hodisaning kelajakdagi holati haqidagi ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ehtimoliy mulohaza.

**Propaganda** - (lot. yoyish, tarqatish) – keng ma'noda: ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishdir; tor ma'noda: maskura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyatdir.

**Ruhiy begonalashuv** – bu insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishidir. Ushbu muammoni nemis mutaffakiri Erix Fromm juda yaxshi ishlab chiqqan. Uning sikricha, insonning mohiyatan o'z-o'zidan begonalashuvining har bir darajasiga ma'lum bir sotsial harakter – dunyoparastlik, ekspluatatorlik, reseptiv (andozalik, qolip)ga bo'yusunmaslik.

**Shaxs** – alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ.

**Siyosiy partiylar** – davlat hokimiyatiga erishish va bu hokimiyatdan muayyan dasturni bajarish uchun foydalanishni mausad qilib qo'ygan tashkilot.

**Sotsiologiya** – jamyatning strukturasi, uning elementlari va mayjud bo'lishi shart-sharoitlarini, shuningdek ushbu strukturada amalga oshadigan ijtimoiy jarayonlarni o'rjanuvchi san.

**Sport** – jismoniy tarbiyaning bir qismidir. Unda inson o'zining imkoniyati chegaralarini kengaytirishga intiladi, bu omad va omadsizliklarni yuzaga keltiruvchi hissiyotlarning ulkan dunyosi, mashhur tomoshalar, tarbiya va insonni o'zini tarbiyalovchi voqelikdagi harakat vositasи sisatida qaraladi.

**Sport** - sport bu jismoniy madaniyatning bir bo'lagi. U odamlar doimiy turmush tarzidagi xatti-harakatlarining qadriyatga aylanganligi belgisidir.

**Sport ijtimoiy institut** – sportning hayot muhitida insonlarning sportda doir o'zaro xatti-harakatlarini idora etuvchi va unda rol va statuslarni belgilovchi rasmiy va norasmiy qoidalar, tamoyillar, me'yorlar, o'rnashmalarning barqaror yig'indisi, ijtimoiy institutlar oila, din, mahalla, ta'lim va boshqalar kiradi.

**Sport sotsiologiyasi** – millatning salomatligi va unga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish bilan birga, aholining jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan munosabatini o‘rganib boradigan ijtimoiy olam haqidagi fan.

**Sport sotsiologiyasi** – sportning jamiyatdagi tutgan o‘rnini, nufuzini va sportdagi ijtimoiy jarayonlarni o‘rganadigan fan.

**Sport sotsiologiyasi fanining maqsadi** – sport turlari rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillarni o‘rganish, jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy manbalarni yaratish va shakllantirish, yoshlarni sport turlariga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish orqali mavjud sport turlari istiqbolini ilmiy bashorat qilishga ko‘maklashishdan iborat bo‘lgan qarashlar.

**Sport sotsiologiyasi predmeti** – sport sotsiologiyasining obyekti sisatida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi aholi, yoshlar, sportchilar jamoasi, sportchilar harakatini, yig‘indisi.

**Sport va nizo** – sport bilan bog‘liq holda vujudga keladigan ziddiyatlar. Bular sportchi va trenert, sportchi va sportchi, sportchi va klub o‘rtasida va shu kabi munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

**Sportchilar ijtimoiy guruh** –ma’lum bir tarzda o‘ziga hos xatti-harakat qiluvchi individlar yig‘indisi, sinfi bo‘lib, u katta guruxlarga va kichik guruxlarga bo‘linadi.

**Sportdagagi anomiya** – sportdagi ijtimoiy meyorlar individ xulq-atvorini belgilay olmaydigan vaziyatlarni bildiradi.

**Sportdagagi ijtimoiy fikr** – sport sohasidagi taraqqiyotning turli muammolari, xususiyatlari to‘g‘risida turli xil ijtimoiy guruh yoki qatlamlarga mansub kishilarning munosabatini o‘rganish natijasida hosil qilingan qarashlar to‘plami.

**Tijoratlashtirilgan-professional sport** - moddiy manfaatni ko‘zlab, professional sportchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan sport musobaqalarini kiritish mumkin.

**Tizim** – o‘zaro munosabat va aloqada bo‘lgan, muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko‘p qismlar majmui.

**Xalq** – lug‘aviy ma’noda el, elat, millat, aholi, xaloyiq, bir guruh kishilar ma’nolarini anglatish uchun qo’llaniladigan tushuncha.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **Me'yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: [Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 01.05.2023.] // <https://lex.uz/docs/6445145>

2. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O'RQ-394-son (yangi tahriri). // <https://lex.uz/docs/2742233?ONDATE=04.12.2020%2000>

3. Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash ha'mda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.11.2022 yildagi PQ-414-son. // <https://lex.uz/docs/6273973>

4. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent sh., 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son. 67-68 maqsadlar. // <https://lex.uz/docs/5841063>

5. "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. 34-37 maqsadlar. // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

### **Asosiy adabiyotlar**

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: «O'zbekiston» 2022. – 416 bet.

7. Mirziyoyev Sh.M. Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari Kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutq //Xalq so'zi, 2016-yil, 19-oktabr.

8. Giddens E. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. T., -2002. 850 b.

9. Shopulatov A.N., Ochilov O.A. Sport sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. -T: O'zDJTI nashriyoti, 2014.-B.63.

10. Shopulatov A.N., Yaqubov F.M. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. T., - 2021. 242 b.

11. Абдикадирова Н.С. Социология физической культуры и спорта. Учебное пособие. – Т.: "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMIU. 2022. –180 с.

12. Лубышева Л.И. Социология физической культуры и спорта. Учебное пособие. – М: Академия, 2001. – 240 с.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

13. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" sanidan O'quv uslubiy majmua. JIZZAX - 2020 yil // <https://znanio.ru/media/jismoniy-tarbiva-nazarivasi-va-metodikasi-sanidan-oquv-uslubiy-majmua-2816671>

14. Falsafa qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharir Q.Nazarov). – Т.: Sharq, 2004. 203 b.

15. G'arb falsafasi. (tuzuvchi va ma'sul muharir Q. Nazarov.) – Т.: "Sharq", 2004. 520 b.

16. Mansur Bekmurodov, Nargiza Yusupova. Madaniyat sotsiologiyasi. "YANGI NASHR" nashriyoti. 2010. // [https://staff.tuiame.uz/storage/users/435/books/zCArSMt8allbKaoresKfSx\\_FzKIjCRRtMSRLxN4.pdf](https://staff.tuiame.uz/storage/users/435/books/zCArSMt8allbKaoresKfSx_FzKIjCRRtMSRLxN4.pdf)

17. O'UM elektron varianti. Navoiy shahri-2021 yil // <https://znanio.ru/media/zhismonij-madanivat-tarhi-sanidan-mazhmua-2718218>

18. Sotsiologiya. O'quv qullanma. T. A-Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. "O'AJBNT" markazi, 2002. - 292 bet.

19. Sport salomatlik garovi // <https://azkurs.org/sport-salomatlilik-garovi.html>

### **Xorijiy adabiyotlari**

20. Cindy Chang, Margot Putukian, Giselle Aerni, Alex Diamond, Gene Hong, Yvette Ingram, Claudia L Reardon, Andrew Wolanin // Mental health issues and psychological factors in athletes: detection, management, effect on performance and prevention: American Medical Society for Sports Medicine Position Statement— Executive Summary, 2019.

21. Glen Ewen: From junior to senior sport: Do athletes differ in their transitional experiences? // Edith Cowan University, 2010.

22. Sophia Jowell, David Lavallee Social Psychology in Sport: Human Kinetics, 2007.
23. Tenbruck F. H. Repräsentative Kultur // Sozialstruktur und Kultur / Hrsg. Von H. Haferkamp. Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1990.
24. Американская социология. Перспективы, проблемы, методы. Под ред. Т. Парсона. М., 1972, С.364.
25. Базунов, Б.А. Кумиры стадионов Эллады / Б.А. Базунов ; М.: Советский спорт, 2004.
26. Белозёров В.И. Спорт как социальный феномен: основные этапы становления социологии спорта // Общество: социология, психология, педагогика. 2022. № 2. С. 53–59.  
<https://doi.org/10.24158/spp.2022.2.7>.
27. Гайл В.В. Краткая история физической культуры и спорта. Екатеринбург 2006.
28. Гайл, В.В. Становление образования в сфере физической культуры как элемента российской системы образования на Урале /В.В. Гайл// Физическая культура и олимпийское движение на Урале: сб. тез. докл. Екатеринбург: УГТУ-УПИ, 1999.
29. Гайл, В.В. Становление российской системы физической культуры на Урале в конце XIX – начале XX в. /В.В. Гайл// Физическая культура в образовательном процессе : межвуз. сб. науч. тр. Екатеринбург: УГТУ-УПИ, 1999.
30. Голощапов, Б.Р. История физической культуры и спорта: учеб. пособие / Б.Р. Голощапов; М.: Академия, 2002.
31. Е. А. Лунекина, О. Н. Мельникова Психология личности и спортивной карьеры — Гомель, 2010.
32. Загайнов Р. М. Кризисные ситуации в спорте и психология их преодоления: монография. — М.: Советский спорт, 2010.
33. Конт О. Курс позитивный философии // Родоначальники позитивизма. Вып. 4. СПб, 1912. 19 стр.
34. Кулинко, Н.Ф. История физической культуры и спорта: учеб. пособие / Н.Ф. Кулинко; Оренбург: Оренбургское книжное издательство, 1997.

35. Кун, Л. Всеобщая история физической культуры и спорта: пер. с венг. / Л. Кун; под общ. ред. В.В. Столбова; М.: Радуга, 1982.
36. Локк Дж. Сочинения в трёх томах: Т. 3.— М.: Мысль, 1988.— 668 с.— (Филос. наследие. Т.103).— С.407-614.
37. Лубышева Л.И. Социология физической культуры и спорта: Учеб. пособие.- М.: Издательский центр «Академия», 2001.
38. Методики психодиагностики в спорте: учеб. пособие для пед. ин-в / В. Л. Марищук [ и др. ]. — М., 1984.
39. Оливова, В. Люди и игры: У истоков современного спорта: пер. с чеш. / В. Оливова; М.: Физкультура и спорт, 1985.
40. Руссо, Жан Жак. Эмиль, или О воспитании. Санкт-Петербург, Газ. "Шк. и жизнь", 1912. 491 с.
41. Стамбулова Н.Б. Кризисы спортивной карьеры // Теория и практика физической культуры. – 1997. - № 10.
42. Стамбулова, Н. Б. Психология спортивной карьеры: учебное пособие / Н. Б. Стамбулова — СПб.: Питер, 1999.
43. Столбов, В.В. История физической культуры: учебник / В.В. Столбов ; М.: Просвещение, 1989.
44. Чернышова, Т. М. Психологическая подготовка спортсмена: предстартовое состояние / Т. М. Чернышова //
45. Юров, И. А. Психологическое тестирование и психотерапия в спорте / И. А. Юров. — М.: Советский спорт, 2006.

#### Internet saytlari

46. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
47. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
48. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmogi
49. <https://fizkult-ura.ru/lk> – Jismoniy tarbiya va sportga doir ma'lumotlar bazasi.

## Mundarija

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>MAVZU №1. SOTSIOLOGIYANING ASOSIY TUSHUNCHASI VA KATEGORIYALARI.....</b>	<b>6</b>
1.1. Sotsiologiya faniga kirish. Sotsiologiya strukturasi, obyekti va predmeti. ....	6
1.2. Ogyus Kont va uning izdoshlarining ilmiy-sotsiologik qarashlari. Sotsiologiya obyekti va predmeti Kont talqinida.....	10
1.3. Sotsiologiya funksiyalari. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Jamiaty tushunchasining talqini .....	13
1.4. Antik dunyo olimlari va Sharq mutasakkirlarining ijtimoiy borliq haqidagi qarashlari .....	22
<b>MAVZU № 2. SPORT SOTSIOLOGIYASI FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....</b>	<b>26</b>
2.1. Jismoniy harakatlarning ijtimoiy-madaniy kelib chiqish tarixi. Qadimgi dunyo ijtimoiy muhitida jismoniy harakatlarning o'rni ...	26
2.2. Qadimgi Sharq va qadimgi G'arb ijtimoiy olamida jismoniy tarbiyaning o'rni .....	29
2.3. Olimpiada o'yinlarining kelib chiqishi va ularning ijtimoiy ahamiyati .....	35
2.4. Qadimgi Markaziy Osiyo jismoniy tarbiya. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish bosqichlari .....	38
<b>MAVZU № 3. SPORT SOTSIOLOGIYASI FANINING OBEKTI VA PREDMETI .....</b>	<b>46</b>
3.1. Jismoniy harakatlar, badantartvibasi va jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sport tushunchalarining o'zaro nisbati .....	46
3.2. Sport sotsiologiyasi fanining vujudga kelishi tarixi, rivojlanishi va bugungi kundagi rivoji .....	50
3.3. Sport sotsiologiyasi fani tushunchasi, o'rganilish obyekti va predmeti. Sport sotsiologiyasining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi .....	55
3.4. Sport bilan bog'liq olib borilayotgan davlat siyosati hamda qabul qilingan hujjatlarining o'rni .....	59

<b>MAVZU № 4. SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>65</b>
4.1. Markaziy Osiyo hududida sportni rivojlanishi. An'anaviy turmush tarzida jismoniy tarbiya va sport. Jismoniy barkamollikda millat mentaliteti. Jismoniy tarbiya – xalq madaniyat elementi sifatida. ....	65
4.2. Milliy-madaniy xususiyat va milliy g'oyalar jismoniy madaniyatni rivojlantirish mezoni sifatida. Sport rivojida “ustoz-shogird” tizimning o'rni.....	71
4.3. Jismoniy tarbiyaning tarixiy harakteri, uni jamiyat rivojining turli bosqichlaridagi o'zgarishlari. Sport milliy-madaniy rivojida xalq folklorlarining o'rni.....	75
4.4. Sharq allomalari sportning milliy-madaniy xususiyati haqida .....	78
<b>MAVZU №5. JAMIYAT SOTSILOGIYANING ASOSIY KATEGORIYASI SIFATIDA .....</b>	<b>87</b>
5.1. Jamiyat tushunchasi va uning belgilari. Jamiyat tipologiyasi .....	87
5.2. Kishilik jamiyati – madaniyat mahsuli sifatida .....	91
5.3. Ogyust Kontning jamiyat haqidagi qarashlari .....	93
5.4. An'anaviy va industrial jamiyati. Ijtimoiy institutlar va ularning ahamiyati .....	97
<b>MAVZU №6. SPORT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....</b>	<b>102</b>
6.1. Ijtimoiy institut tushunchasi. Sport ijtimoiy institut sifatida .....	102
6.2. Sport va ommaviy axborot vositalarining o'zaro bog'liqligi .....	106
6.3. O'zbek sporti: O'zbekiston va o'zbek sportchilari olimpiada o'yinlarida. O'zbek sportchilarida ma'anaviyat masalalari .....	108
<b>MAVZU №7. SPORTDAGI SOTSILOGIK MUAMMOLAR .....</b>	<b>112</b>
7.1. Jamiyat taraqqiyotida sportning o'rni. Sportning zamonaviy muammolari .....	112
7.2. Sportda gumanizm, olimpiya harakati va yuqori natijalar rivoji masalalari .....	116
7.3. Sport va xalqaro mojarolar .....	119
7.4. Zamonaviy sportda Fair Play tamoyillariga riosa qilish muammosi	121

<b>MAVZU №8. SPORTCHI KARYERASI VA SPORTCHI KASBINING JAMIYAT IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI</b>	<b>124</b>
8.1. Karyera tushunchasi va karyera bosqichlari. Sportchi karyerasi tushunchasi. Sport karyerasi va ijtimoiylashuv bosqichlari.....	124
8.2. Sportdagi inqirozlar. Sport karyerasining inqirozlarini belgilaydigan asosiy qarama-qarshiliklar .....	128
8.3. Erkaklar va ayollar sporti. Ayollar sportida uchraydigan inqiroz ....	132
<b>XULOSA.....</b>	<b>136</b>
<b>ATAMALAR LUG'ATI (GLOSSARIY) .....</b>	<b>138</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>142</b>

YUSUPOVA NARGIZA RUSTAMOVNA

# SPORT SOTSIOLOGIYASI

O'quv qo'llanma

Muharrir: I.Abdusalomov  
Kompyuterda sahifalovchi: I.Mirzayev

Nashr. lits. № 239295.  
Bosishga ruxsat etildi 27.06.2024.  
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz. "Times New Roman"  
garniturasi. Hisob nashr tabog'i. 9,375.  
Adadi 20 dona. Buyurtma № 15

"MAKON SAVDO PRINT" bosmaxonasida chop etildi.  
100198, Toshkent, Qoraqamish 4-mavze, 56.

ISBN 978-9910-9192-1-3



9 789910 919213



THOMAS TAYLOR